

VOLUME 2, SPECIAL ISSUE 1

Scientific Journal

ERUS

Educational Research in Universal Sciences



Scientific Journal Impact Factor : 5.564

ISSN: 2181-3515

Economics
Exact Sciences
Natural Sciences
Medical Sciences
Arts and Culture
Technical Sciences
Philological Sciences
Pedagogical Sciences
Psychological Sciences
Social Sciences and
Humanities

zenodo



PKP|INDEX

2023 / 3

ISSN 2181-3515
VOLUME 2, SPECIAL
ISSUE 1 MARCH 2023



<https://erus.uz/>

EDUCATIONAL RESEARCH IN UNIVERSAL SCIENCES
VOLUME 2, SPECIAL ISSUE 1, MARCH, 2023

EDITOR-IN-CHIEF

M. Kurbonov

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, National University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD

Sh. Otajonov

Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, National University of Uzbekistan

I. Tursunov

Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

B. Eshchanov

Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

J. Usarov

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

G. Karlibayeva

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Nukus State Pedagogical Institute

H. Jurayev

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Bukhara State University

Y. Maxmudov

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Termez State University

K. Ismaylov

Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Karshi State University

Sh. Sodikova

Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, National University of Uzbekistan

Sh. Pazilova

Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

E. Xujanov

Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Tashkent State Pedagogical University

H. Qurbanov

Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Tashkent State Transport University

F. Khazratov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Bukhara State University

M. Mansurova

Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Tashkent State Transport University

**BURISH SONI $\rho = [k_1, k_2, \dots, k_1, k_2, \dots]$ BO‘LGANDA
 $R_\rho x = \{x + \rho\}$ AYLANA AKSLANTIRISHI UCHUN DINAMIK BO‘LINISH
QURISH**

Sulaymonov Fozil Uralovich

JDPU “Matematika o‘qitish metodikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi.

e-mail: fozil.sulaymanov@mail.ru

Abduxakimov Saidaxmat Xazratqulovich

JDPU “Matematika o‘qitish metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi.

e-mail. asaidahmat@mail.ru

Abduxakimova Maftuna G‘ofur qizi

JDPU “Matematika o‘qitish metodikasi” kafedrası 2-kurs magistranti.

e-mail. asaidahmat@mail.ru

ANNOTATSIYA

Biz bu ishda bir o‘lchovli aylana akslantirishlarining markaziy tushunchalaridan biri aylananing dinamik bo‘linishni qurishni o‘rganamiz.

Kalit so‘zlar: uzluksiz kasr, burish soni, dinamik bo‘linish, munosib kasr.

АННОТАЦИЯ

В этой работе мы изучаем одно из центральных понятий одномерных отображений окружности, динамических разбиений окружности.

Ключевые слова: непрерывная дробь, число поворотов, динамическое разбиение, правильная дробью

ABSTRACT

In this work, we study one of the central concepts of one dimensional mappings of the circle, dynamic partitions of the circle.

Key words: continued fraction, number of turns, dynamic partition, proper fraction.

Kirish. Bir o‘lchovli aylana akslantirishlari dinamik sistemalar nazariyasining asosiy tushinchalaridan biri hisoblanadi.

Aylana gomemorfizmlari nazariyasi, dinamik sistemalar nazariyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Aylana gomeomorfizmlar nazariyasining yaratilishi va keyingi taraqqiyoti buyuk matematiklar A. Puankare, A. Danjua, A.N. Kolmogorov, V.I. Arnold, Ya. Sinay¹ lar nomi bilan bog‘liqdir. $S^1 = [0,1)$ birlik aylanada aniqlangan va $\rho = [1,1, \dots, 1,1, \dots]$ burish soni bo‘lgan aylana gomeomorfizmlari uchun dinamik bo‘linishni. A.A. Djalilov² ishlarida o‘rganilgan. Aylana gomemorfizmlarida dinamik bo‘linish muhim ahamiyatga ega dinamik bo‘linishdan foydalanib ko‘plab masalalar o‘rganilgan va o‘rganib kelinmoqda. Burish soni $\rho = [k_1, k_2, \dots, k_1, k_2, \dots]$ bo‘lganda dinamik bo‘linishdan foydalanib S.X. Abdukhakimov, M.K. Khomidov³ lar tomonidan kritik nuqtaga ega bo‘lgan aylana gomemorfizmlari uchun termodinmik formaliz qurilgan.

Burish soni $\rho = [k_1, k_2, \dots, k_1, k_2, \dots]$ bo‘lganda

$R_\rho x = \{x + \rho\}$ aylana akslantirishi uchun dinamik bo‘linish

Aylananing dinamik bo‘linishi, haqiqiy sonning uzluksiz kasrga yoyilmasi bilan muhim bog‘langan.

$\rho \in [0,1]$ sonni olamiz. Bu sonning uzluksiz kasrga yoyilmasi quyidagicha bo‘lsin: ⁴

$$\rho = \frac{1}{k_1 + \frac{1}{k_2 + \dots \frac{1}{k_1 + \frac{1}{k_2} + \dots}}}$$

Uzluksiz kasrning elementlarini $k_1 = k_n, k_2 = k_{n+1}$ orqali belgilaymiz va ular quyidagi munosabatdan topiladi: $k_n = \{\frac{1}{k_n}\}, k_{n+1} = [\frac{1}{k_n}]$ bu yerda $\{\bullet\}, [\bullet]$ mos ravishda sonning kasr va butun qismlaridir. Biz ko‘ramizki, uzluksiz kasrlar $\rho \rightarrow \{\frac{1}{\rho}\}$ formula bilan aniqlangan, $[0,1)$ ni o‘zini-o‘ziga o‘tkazuvchi T akslantirish bilan bog‘liqdir. Xususiy holda $\rho = [k_1, k_2, \dots, k_n, k_{n+1}, \dots]$ bo‘lsa $T\rho = [k_2, \dots, k_n, k_{n+1}, \dots]$ bo‘ladi. $\rho = [k_1, k_2, \dots, k_n, k_{n+1}, \dots]$ munosib kasr maxraji uchun $q_0 = 1, q_1 = k_1, q_n = k_n q_{n-1} + q_{n-2}$ rekkurent munosabat o‘rinli.

¹ И. П. Корнфелд, Я. Г. Синай, С. В. Фомин. Эргодическая теория М.: Наука, 1980.

² А.А. Джалитов, Термодинамический формализм и сингулярные инвариантные меры критических отображений, ТМФ, 2003, том 134, номер2,191-206.

³ S.X. Abdukhakimov, M.K. Khomidov. The orbit of critical point and thermodynamic formalism for critical circle maps without periodic points. Uzbek Mathematical Journal, 2020 № 3pp. 4-15.

⁴ R. Ostlund, D. Rand, J. Sethna, E. Sigg. Physica D.1983. V. 8. 303.

S^1 birlik aylanada R_ρ orqali ρ burchakka burishni belgilaymiz, ya'ni $R_\rho x = \{x + \rho\}$. Bu belgilashga ko'ra $x \in [0; 1)$ deb olamiz.

$k_1\rho \leq 1 < (k_1 + 1)\rho$ tengsizlik, S^1 aylanani uzunligi ρ ga teng $(k_1 + 1)$ ta yoy bilan qoplash mumkinligini va k_1 ta yoy bilan qoplash mumkin emasligini bildiradi. S^1 aylanada $x_0 \in S^1$ nuqtani fiksirlaymiz va $\Delta_1^{(0)}$ orqali chegaralari x_0 va $x_0 + \rho$ nuqtalar bo'lgan yoyni belgilaymiz. U holda $\Delta_i^{(0)} = R_\rho^{i-1}\Delta_1^{(0)}$, $1 \leq i \leq k_1$ lar uzunliklari ρ ga teng bo'lgan o'zaro bir-birlari bilan kesishmaydigan yoyni ifodalaydi.

1-lemma . Agar burish soni $\rho = [k_1, k_2, \dots, k_1, k_2, \dots]$ ga teng bo'lsa. $\Delta_1^{(n)}$ va $\Delta_1^{(n-1)}$ larning uzunliklari nisbati uchun quyidagi munosabatlar o'rinli bo'ladi.

$$\frac{|\Delta_1^{(n)}|}{|\Delta_1^{(n-1)}|} = \begin{cases} T\rho & \text{agar } n = 2k + 1 \text{ bo'lsa,} \\ T^2\rho & \text{agar } n = 2k \text{ bo'lsa.} \end{cases}$$

bu yerda $[k_2, \dots, k_n, k_{n+1}, \dots] = T\rho$ va $[k_1, \dots, k_n, k_{n+1}, \dots] = T^2\rho$.

Isbot. 1-lemmani induksiya metodi orqali isbotlaymiz $n = 1$ bo'lsin u holda $\Delta_1^{(1)}$ orqali chegaralari $k_1\rho$ va x_0 nuqtalar bo'lgan yoyni belgilaymiz. $\Delta_1^{(1)}$ va $\Delta_1^{(0)}$ yoyni nisbatlari quyidagilarga teng:

$$\frac{|\Delta_1^{(1)}|}{|\Delta_1^{(0)}|} = \frac{1 - \rho k_1}{\rho} = \frac{1 - \frac{k_1}{k_1 + [k_2 + \dots + k_n, k_{n+1}, \dots]}}{\frac{1}{k_1 + [k_2 + \dots + k_n, k_{n+1}, \dots]}} = [k_2, \dots, k_n, k_{n+1}, \dots] = T\rho.$$

Bundan ko'rinadiki, $|\Delta_1^{(1)}| < |\Delta_1^{(0)}|$. Shunday qilib, biz $\Delta_1^{(0)}$ yoyni chap chegarasidan uzunligi $|\Delta_1^{(1)}|$ bo'lgan yoyni bilan maksimal qoplash mumkin bo'lgan sonni ko'rishimiz mumkin. Ularning sonini m bilan belgilaymiz. U holda $m|\Delta_1^{(1)}| \leq |\Delta_1^{(0)}| < (m + 1)|\Delta_1^{(1)}|$ yoki $m \leq \frac{1}{T\rho} = \frac{|\Delta_1^{(0)}|}{|\Delta_1^{(1)}|} < m + 1$, bundan $m = [\frac{1}{T\rho}] = k_2$.

$\Delta_1^{(2)}$ orqali yoyni qolgan qismini belgilaymiz. U holda

$$\frac{|\Delta_1^{(2)}|}{|\Delta_1^{(1)}|} = \frac{|\Delta_1^{(2)}|}{|\Delta_1^{(0)}|} \cdot \frac{|\Delta_1^{(1)}|}{|\Delta_1^{(0)}|} = \frac{1 - k_2 \frac{|\Delta_1^{(1)}|}{|\Delta_1^{(0)}|}}{T\rho} = [k_1, \dots, k_n, k_{n+1}, \dots] = T^2\rho.$$

Bundan ko'rinadiki, $|\Delta_1^{(2)}| < |\Delta_1^{(1)}|$. Shunday qilib, biz $\Delta_1^{(1)}$ yoyni chap chegarasidan uzunligi $|\Delta_1^{(2)}|$ bo'lgan yoyni bilan maksimal qoplash mumkin bo'lgan sonni ko'rishimiz mumkin. Ularning sonini m bilan belgilaymiz. U holda $m|\Delta_1^{(2)}| \leq |\Delta_1^{(1)}| < (m + 1)|\Delta_1^{(2)}|$ yoki $m \leq \frac{1}{T^2\rho} = \frac{|\Delta_1^{(1)}|}{|\Delta_1^{(2)}|} < m + 1$, bundan $m = [\frac{1}{T^2\rho}] = k_1$.

Bundan bizga ma'lum bo'ladiki, barcha k_n va k_{n+1} larni Evklid algoritmlari variantlari yordamida ko'rish mumkin ekan. Demak $\Delta_1^{(n-1)}$, $\Delta_1^{(n)}$ yo'ylar quyidagi ko'rinishda qurilar ekan. x_0 umumiy chegaralar bo'lib, x_0 nuqtaning ikkala tomonida yotadi.

$$\frac{|\Delta_1^{(n)}|}{|\Delta_1^{(n-1)}|} = [k_n, k_{n+1}, \dots] = \begin{cases} T\rho & \text{agar } n = 2k + 1 \text{ bo'lsa,} \\ T^2\rho & \text{agar } n = 2k \text{ bo'lsa.} \end{cases}$$

Endi m orqali $\Delta_1^{(n)}$ yo'ylarning $\Delta_1^{(n+1)}$ yo'yni maksimal qoplash mumkin bo'lgan sonini belgilasak, u holda $m|\Delta_1^{(n+1)}| \leq |\Delta_1^{(n)}| < (m + 1)|\Delta_1^{(n+1)}|$ yoki

$$m = \left[\frac{|\Delta_1^{(n+1)}|}{|\Delta_1^{(n)}|} \right] = \frac{1}{[T^n\rho]} = \begin{cases} k_2 & \text{agar } n = 2k + 1 \text{ bo'lsa,} \\ k_1 & \text{agar } n = 2k \text{ bo'lsa.} \end{cases}$$

va

$$\frac{|\Delta_1^{(n+1)}|}{|\Delta_1^{(n)}|} = \frac{|\Delta_1^{(n-1)}| - k_n|\Delta_1^{(n)}|}{|\Delta_1^{(n)}|} = \frac{1}{T^n\rho} - \left[\frac{1}{T^n\rho} \right] = \left\{ \frac{1}{T^n\rho} \right\} = T^{n+1}\rho.$$

1-lemma to'liq isbot bo'ldi.

Har bir $\Delta_1^{(n)}$ yo'yning chegara nuqtalaridan biri x_0 nuqta bo'ladi. Bu $n = 1, 2$ bo'lganda oson kelib chiqadi. Ixtiyoriy n uchun induksiyadan foydalanib ko'rsatamiz. $\Delta_1^{(n-1)}$, $\Delta_1^{(n)}$ uchun bizning tasdig'imiz isbotlangan bo'lsin. Qurilishidan va induktiv holatga ko'ra, chetki nuqtalaridan biri $R_\rho^{q_{n-1}}x_0$ bo'lgan va uzunligi $|\Delta_1^{(n)}|$ bo'lgan birinchi yo'yni $R_\rho^{q_{n-1}}\Delta_1^{(n)}$ ko'rinishda ifodalash mumkin. Oxirgi yo'yni

$$R_\rho^{q_{n-1}+q_n}\Delta_1^{(n)}, R_\rho^{q_{n-1}+2q_n}\Delta_1^{(n)}, \dots, R_\rho^{q_{n-1}+(k_{n+1}-1)q_n}\Delta_1^{(n)}$$

ko'rinishga ega. $R_\rho^{q_{n-1}+(k_{n+1})q_n}\Delta_1^{(n)}$ yo'yni x_0 nuqtani qoplaydi. shuning uchun

$$R_\rho^{q_{n-1}+(k_{n+1})q_n}x_0 = R_\rho^{q_{n+1}}x_0$$

nuqta $\Delta_1^{(n)}$ ning chegarasida yotadi. $\Delta_i^{(n)} = R_\rho^{i-1}\Delta_1^{(n)}$ ni olamiz.

1-lemma to'liq isbot bo'ldi.

2-lemma . Ushbu

$$1) \Delta_i^{(n-1)}, \quad 1 \leq i \leq q_n, \quad \Delta_j^{(n)}, \quad 1 \leq j \leq q_{n-1}$$

ochiq yo'ylar sistemasi quyidagi xossalarga ega.

$$\Delta_{i_1}^{(n-1)} \cap \Delta_{i_2}^{(n-1)} = \emptyset, \quad i_1 \neq i_2; \quad \Delta_{j_1}^{(n-1)} \cap \Delta_{j_2}^{(n-1)} = \emptyset, \quad j_1 \neq j_2.$$

Barcha i, j lar uchun $\Delta_i^{(n-1)} \cap \Delta_j^{(n-1)} = \emptyset$

$$2) \cup_{i=1}^{q_n} \Delta_i^{(n-1)} \cup \cup_{j=1}^{q_{n-1}} \Delta_j^{(n)} = S^1.$$

Isbot 1) $n = 1, 2$ bo'lganda aniqlanishi va qurilishidan 2-lemmani tasdig'i kelib chiqadi. Induksiya metodidan foydalanib $\Delta_i^{(n)}$, $1 \leq i \leq q_{n+1}$, $\Delta_j^{(n+1)}$, $1 \leq j \leq q_n$ larni qaraymiz. Shuningdek qurilishidan kelib chiqadiki, barcha $\Delta_i^{(n)}$, $1 \leq i \leq q_{n+1}$ yo'ylar orasida $\Delta_1^{(n-1)}$ ichida va $\Delta_1^{(n+1)}$ yoy tashqarisida yotuvchi, kesishmaydigan faqat $\Delta_{1+q_{n-1}+jq_n}^{(n)}$ yo'ylar mavjud. Bundan kelib chiqadiki, barcha $\Delta_i^{(n)}$, $1 \leq i \leq q_{n+1}$ yo'ylar $\Delta_1^{(n+1)}$ bilan kesishmaydi. Birinchi bo'sh bo'lmagan $\Delta_1^{(n)} \cap \Delta_i^{(n)} = \emptyset$ kesishma faqat $0 = 1 + q_{n-1} + i_{n+1}q_n = 1 + q_{n+1} > q_{n+1}$ da hosil bo'ladi. Shunday qilib, barcha $i_1 \neq i_2$; $1 \leq i_1, i_2 \leq q_{n+1}$ da $\Delta_{i_1}^{(n)} \cap \Delta_{i_2}^{(n)} = \emptyset$ bo'ladi. Bu faktdan foydalanib $\Delta_1^{(n)}$ ning chegaralari x_0 va $R_\rho^{q_n} x_0$ dan farqli ekanligini ko'ramiz. Shuning uchun osongina

$$\Delta_{1+q_n}^{(n+1)} \subset \Delta_1^{(n)} \quad \text{va} \quad \Delta_1^{(n+1)} \cap \Delta_1^{(n)} = \emptyset, \quad 1 < i \leq q_n$$

ga ega bo'lamiz.

Shunday qilib, barcha $\Delta_i^{(n)}$, $1 \leq i \leq q_{n+1}$ lar o'zaro kesishmaydi va bularning har biri $\Delta_j^{(n)}$, $1 \leq j \leq q_n$ lar bilan ham kesishmaydi. Agar biz $1 \leq j_1, j_2 \leq q_n$, $j_1 \neq j_2$ lar uchun $\Delta_{j_1}^{(n+1)} \cap \Delta_{j_2}^{(n+1)} = \emptyset$ ekanligini ko'rsatsak 2-lemmaning 1-tasdig'ini to'liq isbotlaymiz. Bu esa barcha $1 \leq j \leq q_n$ da $\Delta_1^{(n+1)} \cap \Delta_j^{(n+1)} = \emptyset$ bilan ekvivalent. Ammo qurilishiga asosan $\Delta_1^{(n+1)} \cap \Delta_j^{(n+1)}$ faqat $i > q_{n+1}$ bo'lgandagina bo'sh bo'lmagan kesishmaga ega. Demak 2-lemmaning 1-tasdig'i isbot bo'ldi. 2-lemmaning 2-tasdig'ini isbotlash uchun ham induksiyadan foydalanamiz.

Faraz qilaylik, $\bigcup_{i=1}^{q_n} \Delta_i^{(n-1)} \cup \bigcup_{j=1}^{q_{n-1}} \Delta_j^{(n)} = S^1$ induktiv ravishda kelib chiqqan bo'lsin, ta'kitlab o'tamiz $\Delta_1^{(n-1)} = \bigcup_{l=0}^{k_{n+1}-1} \Delta_{1+q_{n-1}+lq_n}^{(n)} \cup \Delta_j^{(n+1)}$. Shuning uchun barcha $1 \leq j \leq q_n$ da $\Delta_j^{(n-1)} = \bigcup_{l=0}^{k_{n+1}-1} \Delta_{1+q_{n-1}+lq_n}^{(n-1)} \cup \Delta_j^{(n+1)}$ va $S^1 = \bigcup_{i=1}^{q_n} \Delta_i^{(n-1)} \cup \bigcup_{j=1}^{q_{n-1}} \Delta_j^{(n)} = \bigcup_{j=1}^{q_n} \Delta_j^{(n+1)} \cup \bigcup_{j=1}^{q_n} \bigcup_{l=1}^{k_{n+1}-1} \Delta_{j+q_{n-1}+lq_n}^{(n)} \cup_{j=1}^{q_{n-1}} \Delta_j^{(n+1)} \cup_{i=1}^{q_n} \Delta_i^{(n)}$ va 2-tasdiq isbot bo'ldi.

S^1 aylana $\Delta_i^{(n-1)}$, $1 \leq i \leq q_n$ va $\Delta_j^{(n)}$, $1 \leq j \leq q_{n-1}$ yo'ylardan hosil bo'lgan aylana bo'linishini η_n bilan belgilaymiz. U holda $\eta_2 \leq \eta_3 \leq \dots \leq \eta_n \leq \dots$

Biz yuqorida kiritilgan aylana bo'linishi $R_\rho x = \{x + \rho\}$. ρ burchakka burishga mos aylana bo'linishidir. Bu holatda hosil bo'lgan bo'linish x_0 nuqtadan bog'liq emas.

Ixtiyoriy $x_0 \in S^1$ nuqta uchun chekli nuqtalari x_0 va $x_{q_n} = T_f^{q_n} x_0$ bo'lgan yopiq intervalni $\Delta_0^{(n)}(x_0)$ orqali belgilaymiz.

Takidlab o'tamizki, n toq bo'lganda x_{q_n} nuqta x_0 nuqtadan chapda, n juft bo'lganda o'ngda yotadi. $\Delta_i^{(n)}(x_0)$ orqali $\Delta_0^{(n)}(x_0)$ intervalning iteratsiyasini belgilaymiz. Bu nuqtaning $\{x_i, 0 \leq i \leq q_n + q_{n-1}\}$ trayektoriyasini aylanani kesishmaydigan $\Delta_k^{(n-1)}(x_0), 0 \leq k \leq q_n, \Delta_j^{(n)}(x_0), 0 \leq j \leq q_{n-1}$ bo'laklarga bo'ladi.

Hosil bo'lgan bo'linishni $\xi_n(x_0)$ orqali belgilaymiz va bu $n -$ tartibli dinamik bo'linish deyiladi. $\xi_n(x_0)$ bo'linishdan $\xi_{n+1}(x_0)$ bo'linishni quyidagicha hosil bo'ladi. Barcha $\Delta_j^{(n)}(x_0), 0 \leq j \leq q_{n-1}$ bo'laklar saqlanib, har bir $\Delta_i^{(n-1)}(x_0), 0 \leq i \leq q_n$ bo'lak $k_{n+1} + 1$ ta bo'lakka bo'linadi:

$$\Delta_i^{(n-1)} = \Delta_i^{(n+1)} \cup \bigcup_{s=0}^{k_{n+1}-1} \Delta_{1+q_{n-1}+sq_n}^{(n)}$$

Demak, dinamik bo'linishda elementlar uzunligining 0 ga intilish tezligini baholaydigan va aylana gomeomorfizmning xarakteristikalarini o'rganishda muhim o'rin tutadigan quyidagi teoremani keltiramiz.

1-teorema $\forall x_0 \in S^1$ nuqtani qaraylik. Bu nuqta $\{x_i, 0 \leq i \leq q_n + q_{n-1}\}$ trayektoriyaning kesmasi aylanani kesishmaydigan bo'laklarga ajratadi:

$$\Delta_i^{(n)}(x_0), \quad 0 \leq i \leq q_{n-1} - 1, \quad \Delta_j^{(n-1)}(x_0), \quad 0 \leq j \leq q_n - 1$$

Hosil bo'lgan bo'linishni $\xi_n(x_0)$ orqali belgilaymiz va $n -$ tartibli dinamik bo'linish deymiz. Endi $\xi_n(x_0)$ dan $\xi_{n+1}(x_0)$ ga o'tish jarayonini tasvirlaymiz. Bunda barcha $\Delta_i^{(n)}(x_0), 0 \leq i \leq q_{n-1} - 1$ bo'laklar saqlanadi, va har bir $\Delta_j^{(n-1)}(x_0)$ bo'lak $(k_{n+1} + 1)$ kesmaga ajratadi.

$$\Delta_j^{(n-1)} = \Delta_j^{(n+1)} \cup \bigcup_{s=0}^{k_{n+1}-1} \Delta_{j+q_{n-1}+sq_n}^{(n)}$$

Xulosa. Ushbu ish burish soni $\rho = [k_1, k_2, \dots, k_1, k_2, \dots]$ bo'lganda ayna $R_\rho x = \{x + \rho\}$ gomeomorfizmi uchun dinamik bo'linishni qurishga bag'ishlangan. Burish soni $\rho = [k_1, k_2, \dots, k_1, k_2, \dots]$ bo'lganda aylana uzunliklari nisbati va aylana yoylari haqidagi lemmalar isbotlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. А.А. Джалилов, Термодинамический формализм и сингулярные инвариантные меры критических отображений, ТМФ, 2003, том 134, номер2,191-206.
- 2.S.X. Abdukhakimov, M.K. Khomidov. The orbit of critical point and thermodynamic formalism for critical circle maps without periodic points. Uzbek Mathematical Journal, 2020 № 3pp. 4-15.
- 3.И. П. Корнфелд, Я. Г. Синай, С. В. Фомин. Эргодическая теория М.: Наука, 1980.
- 4.R. Ostlund, D. Rand, J. Sethna, E. Sigga. Physica D.1983. V. 8. 303.

UCHBURCHAKLAR MAVZUSIGA OID OLIMPIADA MASALALARNING GEOMETRIK YECHIMLARI VA METODIKASI

Pulatov Shodiyor Shokir o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistratura talabasi

Isoqova E'zoza Jahongir qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

O'quvchilarning bilim darajasini, mushohada qilish qobiliyatini, o'zining tengdoshlaridan qanchalik kuchli bilimdon ekanligini aniqlab beruvchi va kelgusida yetuk mutaxassis bo'lib yetishishiga yo'l ochib beruvchi tadbirlardan biri bu shubhasiz fan olimpiadalaridir.

Kalit so'zlar: Pifagor teoremasi, burchak, yuza, mediana, tomon, to'g'ri burchakli uchburchak, radius

АННОТАЦИЯ

Несомненно, олимпиады по естествознанию являются одним из мероприятий, определяющих уровень знаний учащихся, умение наблюдать, насколько они более осведомлены, чем их сверстники, и прокладывают путь к тому, чтобы они в будущем стали зрелыми специалистами

Ключевые слова: теорема Пифагора, угол, площадь, медиана, сторона, прямоугольный треугольник, радиус.

ABSTRACT

Undoubtedly, Science Olympiads are one of the events that determine students' level of knowledge, ability to observe, how much more knowledgeable they are than their peers, and pave the way for them to become mature specialists in the future.

Key words: Pythagorean theorem, angle, surface, median, side, right triangle, radius.


Olimpiadalarda mustaqil fikrlashga o'rgangan, masalalar yechish bilan muntazam shug'ullanib yuradigan, mantiqiy fikrlash qobiliyati yuqori bo'lgan o'quvchilargina g'olib bo'la oladilar. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach har bir sohada ko'plab islohotlar amalga oshirilgani kabi ta'lim sohasida ham ko'plab yangiliklar yaratildi, imkoniyatlar kengaydi. Fan olimpiadalarida ham sezilarli yutuqlar qo'lga kiritildi.

Bularga yaqqol misol sifatida respublikamiz o'quvchilarining jahon olimpiadalarida qatnashayotganliklarini, sirtqi televizion olimpiadalar tashkil qilinganligini keltirib o'tishimiz mumkin. Yildan yilga fan olimpiadalarida berilayotgan misol va masalalarning saviyasi ortib bormoqda. Bu esa o'quvchi va uning ustozidan katta mahorat, kuchli bilim va albatta doimiy yangiliklar bilan tanishib borishni talab qiladi. Ushbu maqola 1996-2010 yillar mobaynida o'tkazilgan matematika olimpiadalarining viloyat bosqichida o'quvchilar uchun tavsiya etilgan bir nechta misol va masalalarning yechimlari, yechish usullari va ko'rsatmalar berilgan. Agar maqoladagi masalalarning yechimlarini ko'rib chiqsangiz, ularni albatta yecha olasiz. Maqoladan matematika fani bo'yicha olimpiadalarda qatnashish niyatida bo'lgan o'quvchilar, o'quvchilarini olimpiadalarga tayyorlayotgan muallimlar, talabalar, o'qituvchilar va umuman barcha matematika faniga qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

Quyidagi masalalarni qaraylik

1-Masala. Uchburchakning ikki medianasi o'zaro perpendikulyar bo'lib ularning uzunliklari m va n ga teng. Bu uchburchakning yuzini toping.

Yechish: Ma'lumki, uchburchakning medianalari bir nuqtada kesishadi va uni 6 ta teng yuzali uchburchaklarga ajratadi. Medianalar kesishish nuqtasida uchburchak uchidan boshlab hisoblaganda 2: 1 nisbatda bo'linadi. $m = AD$, $n = CF$ desak, $OF = \frac{1}{3}n$, $OA = \frac{2}{3}m$ va $S_{AOF} = \frac{1}{2}OF \cdot OA = \frac{1}{9}mn$ bo'ladi va $S = 6S_{AOF} = \frac{2}{3}mn$.




Javob: $S = 6S_{AOF} = \frac{2}{3}mn$.

2-masala. O nuqta tomonlari a, b, c bo'lgan uchburchakka ichki chizilgan aylana markazi bo'lsa, $\frac{OA^2}{bc} + \frac{OB^2}{ac} + \frac{OC^2}{ab} = 1$ ekanini isbotlang

Yechish: Uchburchakning yuzi S ga burchaklari $2\alpha, 2\beta, 2\gamma$ ga ichki chizilgan aylana radiusi r ga teng bo'lsin.

Quyidagilarga egamiz:



$$\begin{cases} OA^2 = x^2 + r^2 \\ OB^2 = y^2 + r^2 \\ OC^2 = z^2 + r^2 \end{cases} \begin{cases} \frac{r}{x} = \tan \alpha \\ \frac{r}{y} = \tan \beta \\ \frac{r}{z} = \tan \gamma \end{cases}$$

Bulardan foydalanib quyidagilarga ega bo‘lamiz:


$$\frac{OA^2}{bc} + \frac{OB^2}{ac} + \frac{OC^2}{ab} = \frac{OA^2 \sin 2\alpha}{2S} + \frac{OB^2 \sin 2\beta}{2S} + \frac{OC^2 \sin 2\gamma}{2S} = \frac{OA^2 \operatorname{tg} \alpha}{(1+\operatorname{tg}^2 \alpha)S} + \frac{OB^2 \operatorname{tg} \beta}{(1+\operatorname{tg}^2 \beta)S} + \frac{OC^2 \operatorname{tg} \gamma}{(1+\operatorname{tg}^2 \gamma)S} = \frac{OA^2 rx}{(x^2+r^2)S} + \frac{OA^2 ry}{(y^2+r^2)S} + \frac{OA^2 rz}{(z^2+r^2)S} = \frac{r(x+y+z)}{S} = \frac{S}{S} = 1 \text{ kelib chiqadi.}$$

3-masala. To‘g‘ri burchakli uchburchakda $\angle C = 90^\circ$, $AB = c$ gipotenuza bo‘lib, AK va BN lar bissektirisalari va $AK^2 + BN^2 = m^2$ bo‘lsa KN ning uzunligini toping.

Yechish: $AC = b$, $BC = a$ bo‘lsin. Pifagor teoremasidan quyidagilarga ega bo‘lamiz:


$$AK^2 + BN^2 = CK^2 + CN^2 + a^2 + b^2, \quad m^2 = KN^2 + c^2$$

$$KN = \sqrt{m^2 - c^2}$$



Javob: $KN = \sqrt{m^2 - c^2}$

4-masala. AB tomon DC ga perpendikulyar, $AB = \sqrt{2}|ED|$ va AE tomon EC tomonga teng, $\angle DEC = 85^\circ$ bo‘lsa, A burchakni toping.



$$\text{Yechish: } \sin(90 - x) = \frac{\sqrt{2}y}{2z}$$

$$\frac{y}{\sin(90^\circ - x)} = \frac{z}{\sin(5^\circ + x)}$$

$$\frac{y \cdot 2z}{\sqrt{2}y} = \frac{z}{\sin(5^\circ + x)}$$

$$\sin(5^\circ + x) = \frac{\sqrt{2}}{2}$$

$$5^\circ + x = 45^\circ$$

$$x = 40^\circ = \angle A$$

$$\text{Javob: } x = \angle A = 40^\circ$$

Xulosa qilib aytganda masalalarni yechish jarayonida o'quvchilar yangi matematik bilimlarini egallaydilar va turli xil metodikalar bilan tanishadilar, amaliy faoliyatga tayyorlana boradilar. Bunda o'quvchining taqqoslash haqida, uning tuzilishi haqida chuqur tasavvurga ega bo'lishi, misollarni turli usullar bilan yecha olishi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'.Mo'minov, T.Nishonov "MATEMATIKA OLIMPIADALARI MASALALARI" kitobi 2010yil
2. М. И. Сканави —Математикадан масалалар туплами||. Тошкент. 1983-йил.
3. М. Usmonov —Matematikadan masalalar to'plami|| Toshkent 2010-yil.
4. U.Ismoilov —Matnli masalalarning turlari va ularni yechish usullari|| —Yangi asr avlodil 2008-

TARIXSIZ KELAJAK BO‘LMAS

Qayumova Maftuna Qahhor qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika

Institutining talabasi

ANOTATSIYA

Ta'lim sohasiga yaqin yillar ichida kirib kelayotgan "triz texnologiyalari " fani asosida" tashlandiq materiallar va karton qog'oz"dan me'moriy yodgorlik obidalar maketini yasash orqali bolalarda qadimiy madaniy yodgorliklarimizga mehr-muhabbatni shakllantirishga qaratiladi.

Kalit so'zlar: texnologiya, ta'lim, tashlandiq material, maket, yodgorlik ,davlatchilik, tarixiy, obida, mustaqillik, markaz, sensor tarbiya, ijodkorlik, tarbiyalanuvchi ,mayda motorika,

THERE IS NO FUTURE WITHOUT HISTORY

ABSTRACT

It is aimed at forming children's love for our ancient cultural monuments by making models of architectural monuments from discarded materials and cardboard, which has entered the field of education in recent years.

Key words: technology, education, abandoned material, model, monument, government, historical, monument, independence, center, sensory education, creativity, student, fine motor skills,

Kirish

2017-yil 30-sentyabrda Prezidentimiz tomonidan "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Shu sababli MT sohasiga yaqin yillar ichida katta e'tibor qaratilmoqda. Buning sababi , kelajak yosh avlod qo'lidadir.Sohibqiron Amir Temur aytganlaridek: "Kuch-qudratimizga shubha qilsang, biz qurgan binolarga boq". Bu jumlaning o'zi ham ulug' davlatchilik tariximizni bizga eslatib turadi.Chunki tarixda bunday tengi yo'q loyihalarni faqat moliyaviy yuksalgan davlatlarga moliyaviy ta'minlay olgan . Tarixiy obidalarga tashrif buyurgan inson xuddi

o‘tmishga, sehrli diyorga tushib qolgandek his qiladi o‘zini va ana shu davr hayot tarzi ko‘z oldida gavidalanadi.

Tarixiy obidalar barpo etilishida ishlatilgan zarra qumdan tortib, mislsiz darajada betakror naqshlar va zarhal bezaklargacha bo‘lgan barcha unsurlar go‘yo tilga kirib ana shu davr haqida tashrif buyuruvchiga so‘zlab bergandek tuyuladi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq tarixiy obidalarga bo‘lgan e‘tiborning yuqori darajada bo‘lishi ham ularning kelajak avlod uchun nechog‘lik ahamiyatli ekanligidan nishonadir. Yoshlarni ushbu obidalarining har bir qismini mukammal o‘rganishi va qalban his etishiga imkon yaratilmoqda. Bunday obidalarni ko‘rish orqali har kim ma‘naviy ozuqa oladi, shu bilan birga ruhan tetiklashadi. Birgina Samarqand misolida olib qarasa, u yerni “Sayqali ro‘yi zamin” deb atalishi bejiz emas. Bu hududda Sherdor, Tillakori, Ulug‘bek, Bibixonim madrasalari va ko‘plab boshqa tarixiy binolar joylashgan. Ularning har biri takrorlanmas go‘zallikka ega. Shu xususiyatlar orqali Registon maydoni butun dunyo xalqlarini o‘ziga jalb etib kelmoqda. Ushbu maydonda joylashgan Tillakori madrasasi tarixiga nazar tashlasak, madrasa 1646-1660-yillar davomida qurib bitkazilgan bo‘lib, qurilish ishlariga Samarqand hokimi Bahodir Yalangto‘sh homiylik qilgan. Madrasa karvonsaroy asosi ustiga qurilgan. Dastlab “Yalangto‘shbiy kichik madrasasi” deb nomlangan. Madrasa qurilishida yana boshqa bir maskan qurishga yetadigan miqdordagi mablag‘ ishlatilgani uchun “Tillakori” deb yuritila boshlangan. Madrasa aql bovar qilmas darajada serhashamligi bilan boshqalaridan ajrab turadi. Har bir peshtoq chuqur ravoqli qilib ishlangan va o‘z navbatida bu katta mehnat va mahorat talab etgan. Qurilishda eng mohir pardozhilar, me‘morlar ishtirok etgan. Yana bir ajib tomoni xonaqoh to‘riga marmardan jimjimadar mehrob va zinapoyali minbar ishlangan. Bino ravoqida marmarga pardozi ishlari 1659-1660-yillar tugatilgani o‘yib yozilgan. Birgina pardozi ishi bunday uzoq vaqat talab qilganligi ham madrasa yuqori did bilan bezatilganining isbotidir. Tashrif buyuruvchini birinchi navbatda zarhal va ko‘zni qamashtiruvchi bezakli naqshlar o‘ziga rom etadi. Koshinlarning rangi esa takrorlanmas darajada go‘zaldir, tadqiqotlar davomida ham bunga o‘xshash rang yarata olinmadi. Baland gumbazlaridagi koshinlari feruza rangda bo‘lib, o‘ziga xos ulug‘vorlik kasb etgan. Har bir bezak takrorlanmasligi va uyg‘unligi bilan inson ko‘zini qamashtiradi. Bezak mavzularining boyligi, naqshlarning haddan tashqari xilma-xilligi va bo‘rtma yozuvlarning jozibasi boshqa hech bir binoda takrorlanmaydi. Mehrobdagi o‘yma kosachalar zarhallanib Qur‘oni Karim oyatlaridan olingan yozuvlar orqali bo‘rtma shaklda to‘ldirilgan. Madrasaning eshiklaridan tortib ravoqlarigacha alohida did va e‘tibor bilan bezatilgan. Har bir eshik murakkab naqsh va xattotlik uslubidagi yozuvlar bilan pardozlangan. Hali obida ichiga kirmasdanoq inson ko‘zi zarhal bezaklardan qamasha boshlaydi. Hovli sahni 50x50 metr bo‘lib, hammayoq noyob marmarlar bilan qoplangan. Hujralar

tobadoniga panjaralar ishlangan. Har bir hujra yoz kunlari salqin, qishda esa iliq bo'lgan. Madrasani ko'rgan insonning me'mor mahoratiga tan bermasdan iloji yo'q.

Insonni lol qoldiruvchi jihatlardan yana biri, ayrim binolarda butun boshli bir xona devor ichiga o'yib ishlangan tokchlarga qo'yilgan sham orqali isitilgan. Hatto Xorazmdagi Juma masjidida imomning so'zlari devor teshiklari orqali butun hududga tiniq holda yetib borgan. Hududlarda yerdan zax ko'tarilmasligi uchun inshoot hovlisiga tut daraxti ekilgan. Bularning bari o'sha davr me'morlarining zakovati, uzoqni ko'ra olishi va o'z kasbining fidoiysi ekanligini isbotlaydi. Turli vositalarning sinoati hanuz topilmagani esa har bir bino qurilishidagi ishlar qayta takrorlanmaganligi va kasb siridan dalolat.

Har bir hududda o'zgacha me'morchilik uslubi bor. Vodiy ham bundan mustasno emas. Har bir tarixiy obida singari Qo'qon shahrining ramzi hisoblangan Xudoyorxon o'rdasi ham maxsus jihatlari bilan boshqalaridan keskin farq qiladi. Inshoot XIX asr 2-yarmida Xudoyorxon farmoniga asosan me'mor Mir Ubaydulla rahbarligida bunyod etilgan. Koshinlarni rishtonlik mohir usta Abdulla mahorat bilan ishlagan. Bino tepalikda baland g'ishtin poydevor bilan qurilgan. O'ziga xos tomonlaridan biri u yerda 100 ga yqain katta-kichik xonalari borligidadir.

Markazda xon qarorgohi, salommxona joylashgan. Ikkinchi hovlida haram bo'lib, har birida nozik did bilan bezatilgan o'tish ayvonlari bo'lgan. Quyma ganchdan ko'p foydalanilgan. O'rda devorlari pishiqlik g'ishtdan ko'tarilgan bo'lib, ko'plab ravoqlar qoldirilgan. Obida ustalik bilan handasiy naqshlar va parchinlar bilan pardoqlangan. Har bir xona o'yima ganchkori qilinib, shifrlarga nafis va rangdor gullar ishlangan. Devorlar noyob va takrorlanmas naqshlar bilan ziynatlangan. Ayvonlar sahniga qimmatbaho marmarlar mohirlik bilan yotqizilgan. Tashrif buyurgan inson dabdaba va shohonalik og'ushida o'zini bir lahza xon deb his etadi.

Vatanimiz hududida bularga o'xshash yuzlab obidalar mavjud. Agarda yoshlarni bu qadamjolarga olib borilsa, ular naqadar buyuk yurt farzandlari va dono insonlarning avlodlari ekanligini yana bir bor anglab yetadi. Bunday obidalar nafaqat o'sha davr uchun, balki hozirgi davr uchun xizmat ko'rsatib kelmoqda. Ularning bugungi kundagi o'rni yurtimizga sayyohlarni jalb etayotgani va butun dunyoga O'zbekiston nomini tanitayotgani bilan baholanadi.

Asosiy qism

MTT larida "Takomillashtirilgan ilk qadam" Davlat dasturi asosida mashg'ulotlar va kun tartibi tuziladi. Ushbu dastur bo'yicha markazlar shakllantirilgan bo'lib 2-

markaz bo‘lmish, Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazida bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarishi orqali ham qurish –yasash ham matematika bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bola ko‘rgan narsasini yaxshiroq eslab qolishini inobat olgan holda , faqat rasmlardan foydalanmasdan ularga obyektlarning kichiraytirilgan modullari orqali ta’lim berish yanada manfaatliroqdir.

Har bir bola layoqat bilan tug‘iladi , layoqatga e’tibor qaratisa qobiliyat shakllanadi. Bolalarning qobiliyatlarini shakllantirish esa , MT sohasidagi asosiy vazifadir.

Maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad shuki , MT yoshidagi bolalarning ta’lim sifatini yaxshilash, qadimiy san’at asarlariga mehr-muhabbatni shakllantirish, me’moriy obidalarimizni avloddan-avlodga sof holda yetkazish barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir. Ushbu obidalarni ziyorat qilish yosh avlod qalbida ham g‘urur, ham iftixor tuyg‘usini uyg‘otadi. Vatanning o‘tmishidan faxrlangan inson esa o‘z oldiga ajdodlarga munosib avlod bo‘lishni maqsad qilib oladi.

Xulosa

Bolalik umrning yorqin bahoriy tongidir. Ma’lumki, MTT lar tarbiyalanuvchilarida har doim ham tabiat yodgorliklari va qadimiy qadamjolarga tashrif buyurish imkoniyati bo‘lavermaydi. Shu sababli, biz ularga ushbu maskanlarning maketi orqali badiiy tasavvurni shakllantiramiz. Bu bilan birga bolalarda ixtirochilik hissi uyg‘onadi, qo‘l- barmoq mayda motorikasi rivojlanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asari, Toshkent-2017 yil
2. Temurning harbiy mahorati, T., 1996-yil Hamidulla Dadaboyev.
3. <http://google.com>
4. <http://book.uz>
5. <http://www.ilmiy-maqola.uz>

ПРОЕКТИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ ДЛЯ МОНИТОРИНГА НАУЧНЫХ И ИННОВАЦИОННЫХ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Тургунов А.М

Ph.D. Ташкентский университет информационных технологий имени
Мухаммада ал-Хоразмий.

Абдирасулов Ж.У

Магистрант, Ташкентский университет информационных технологий имени
Мухаммада ал-Хоразмий.

ABSTRACT

Разработка системы мониторинга научной и инновационной деятельности высших учебных заведений имеет решающее значение для оценки их воздействия на общество и обеспечения эффективного использования ресурсов. В этой статье представлена структура такой системы мониторинга, включая цели, методы сбора данных и анализ результатов и входных данных исследования. В статье обозначена важность мониторинга и необходимость системного подхода к оценке исследовательской деятельности.

Keywords: инновации, развитие, наука, исследования, учебные заведения, контроль, мониторинг, данные, финансирование, публикации, патенты, сотрудничество, цитирование, анализ, инициативы, качество, коммерциализация.

В быстротечном мире сегодня инновации стали ключевым компонентом развития любой нации. Высшие учебные заведения играют критическую роль в продвижении инноваций, проводя исследования и создавая новые идеи. Однако, также важно контролировать научные и инновационные деятельности этих учреждений, чтобы убедиться, что они создают исследования, отвечающие общественным потребностям и соответствующие целям учреждения. Именно здесь вступает в игру разработка системы мониторинга.

Основная цель системы мониторинга - отслеживать прогресс научных и инновационных деятельностей и оценивать их влияние. Система должна быть спроектирована таким образом, чтобы облегчить сбор данных о различных аспектах научно-исследовательских работ, включая финансирование, публикации, патенты, сотрудничество и цитирование. Анализируя эти данные,

администраторы могут выявлять закономерности и тенденции и принимать обоснованные решения относительно будущих исследовательских инициатив. Для разработки системы мониторинга научных и инновационных деятельности учебных заведений необходимо сначала определить свои цели. Что они надеются достичь, отслеживая свои научные исследования? Цель заключается в повышении качества научных исследований, увеличении финансирования или привлечении талантливых исследователей? После установления целей учебное заведение может определить данные, которые необходимо собирать, и инструменты, которые будут необходимы для эффективного анализа этих данных.

Он должен охватывать широкий спектр данных, включая научные результаты, такие как публикации, патенты и прототипы, а также научные входы, такие как финансирование, сотрудничество и персонал. Система также должна отслеживать влияние научных результатов, включая цитирование, освещение в СМИ и коммерциализационную деятельность. Внедрение системы мониторинга также может привести к выявлению потенциальных проблем, которые могут затруднить прогресс научных и инновационных мероприятий. Например, низкий уровень коммерциализации может указывать на необходимость улучшения деятельности по передаче технологий или на установление партнерских отношений с промышленностью. Еще один важный компонент системы мониторинга - оценка влияния научных результатов. Система должна быть разработана таким образом, чтобы отслеживать влияние научных результатов в терминах их вклада в знания, влияния на принятие политических решений и социального воздействия. Разработка системы мониторинга научных и инновационных мероприятий высших учебных заведений требует ясного понимания целей системы. Цели определяют данные, которые необходимо собрать и проанализировать, чтобы удовлетворить потребности учреждения. Цели могут включать повышение качества научных исследований, привлечение талантливых исследователей, обеспечение финансирования и улучшение репутации учреждения. Система должна быть разработана таким образом, чтобы поддерживать эти цели, предоставляя соответствующие данные для принятия решений.

Сбор данных - критически важный компонент системы мониторинга. Система должна фиксировать широкий спектр данных, связанных с научно-исследовательскими работами, включая результаты исследований, такие как публикации, патенты и прототипы, и исследовательские входы, такие как финансирование, сотрудничество и персонал. Данные должны собираться с определенной периодичностью, и система должна быть способна учитывать

изменения данных со временем. Система мониторинга также должна быть разработана с учетом различных источников данных. Например, данные могут быть получены из внутренних баз данных, внешних баз данных и опросов. Внутренние базы данных могут включать институциональные репозитории, финансовые базы данных и базы данных персонала. Внешние базы данных могут включать библиометрические базы данных, патентные базы данных и базы данных финансирования. Опросы могут быть использованы для сбора данных о сотрудничестве, сетевых связях и других исследовательских деятельности. Система должна быть разработана с учетом точности и целостности данных. Это может быть достигнуто через использование стандартизированных процедур сбора данных, процессов проверки данных и техник очистки данных. Система также должна учитывать требования к безопасности данных и обеспечивать конфиденциальность данных.

Выходными данными исследований могут являться публикации, патенты, прототипы и другие конкретные результаты исследований. Эти выходные данные могут быть проанализированы с точки зрения их качества, количества и воздействия. Например, выходные данные публикаций могут быть проанализированы на основе количества публикаций, качества журналов и количества цитирований. Патенты могут быть проанализированы на основе их коммерческого потенциала и количества лицензионных соглашений. Прототипы могут быть проанализированы на основе их функциональности и потенциала для коммерциализации.

Входными данными исследований могут являться финансирование, персонал и сотрудничество. Эти входные данные могут быть проанализированы с точки зрения их эффективности в достижении целей исследований. Например, данные о финансировании могут быть проанализированы на основе полученной суммы финансирования, источников финансирования и воздействия финансирования на результаты исследований. Данные о персонале могут быть проанализированы на основе квалификации исследователей, количества исследователей и продуктивности исследователей. Данные о сотрудничестве могут быть проанализированы на основе качества и количества сотрудничества, влияния сотрудничества на результаты исследований и потенциала для будущего сотрудничества. Анализ выходных и входных данных исследований должен проводиться регулярно для отслеживания прогресса и выявления тенденций. Анализ также должен сравниваться с целями системы мониторинга, чтобы гарантировать соответствие исследовательской деятельности целям учреждения.

В общем, цели системы мониторинга определяют данные, которые необходимо собирать и анализировать. Система должна включать в себя

широкий спектр данных, связанных с исследовательской деятельностью, и приспособляться к различным источникам данных. Точность и целостность данных должны быть обеспечены стандартизированными процедурами сбора данных, процессами валидации данных и методами очистки данных. Система мониторинга также должна соответствовать требованиям безопасности и конфиденциальности данных. Разработка системы мониторинга научных и инновационных начинаний высших учебных заведений является критически важной для обеспечения того, что проводимые исследования соответствуют целям учреждения и удовлетворяют потребности общества. Собирая и анализируя данные, учреждения могут принимать информированные решения и осуществлять действия, которые приводят к развитию знаний и инноваций. Система должна быть спроектирована таким образом, чтобы охватывать широкий спектр данных и оценивать влияние результатов исследований, что позволяет выявлять потенциальные проблемы и возможности для улучшения.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Герасимова, Е. (2018). Роль высшего образования в развитии науки и инноваций. *Инновационный менеджмент*, 1(9), 29-34.
2. Короткова, Е. Н., & Мельникова, Т. А. (2019). Мониторинг научно-исследовательской деятельности высших учебных заведений. *Менеджмент в России и за рубежом*, 18(1), 57-64.
3. Кузнецова, Н. А., & Бирюкова, Е. А. (2018). Оценка эффективности и уровня инновационной деятельности в высшем образовании.
4. *Вестник Московского университета имени С. Ю. Витте. Серия 1: Экономика и управление*, (4), 95-110.
5. Маслова, О. И. (2021). Мониторинг инновационной деятельности высших учебных заведений. *Вестник Челябинского государственного университета*, 2(470), 55-63.
6. Никитина, М. В., & Симонова, Е. В. (2019). Инструменты мониторинга научно-исследовательской деятельности в высшем образовании. *Сборник научных трудов Национальной академии управления*, (1), 47-53.
7. Разумова, И. Ю., & Лаврентьева, Н. В. (2018). Мониторинг научно-исследовательской деятельности вузов. *Экономические науки*, 165(1), 94-98.

EKOLOGIK MADANIYATNING SIYOSIY, HUQUQIY VA MA'NAVIY AHAMIYATI

Kuziboyeva Muyassar Anapiyaevna

Namangan Davlat Universiteti Tarix yo'nalishi

2-kurs magistranti

E-mail: g.Kuziboyeva@muyassar.uz

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada insonlarning ekologik madaniyati juda katta siyosiy, huquqiy va manaviy ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z boradi. Insonlarning ekologik huquqlarining tan olinishi fuqarolarning nafaqat tabiat ne'matlaridan bahramand bo'lishlari, balki atrof-muhitni muhofaza qilishdan manfaatdorligini oshiradi. Insonlarni o'z huquq va manfaatlari yo'lida yanada ko'proq tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga jalb etadi.

Kalit so'zlar: iqlim, ekologiya, ishtimoiy, havfsizlik, majburiyat, strategiya, aksiyoma, qonun, qaror, zarar, texnologik taraqqiyot, sog'lom turmush, ekologik zanjir.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о большом политическом правом и духовном значении экологической культуры человека. Признание политических экологических прав людей повышает заинтересованность граждан не только в пользовании благами природы но и защите окружающей среды. Привлекает больше людей к работе по охране природы в своих правах и интересах.

Ключевые слова: климат, экология, безопасность, обязанность, стратегия, аксиома, закон, решение, ущерб, технологическое развитие, здоровый образ жизни, экологическая цепь.

ABSTRACT

This article talks about the great political, legal and spiritual importance of human ecological culture. The recognition of people's political environmental rights increases citizen's interest not only in enjoying the benefits of nature, but also in protecting the environment. Attracts more people to the work of nature protection for their own rights and interesting.

Key words: climate, ecology, business generation, security, obligation, strategy, axiom, law, decision, damage, technological development, healthy life, ecological chain.

Biz odamlar hayotini osonlashtiruvchi, qiziqarli va foydali texnologiyalar hamda texnologik taraqqiyot qurshovida yashayabmiz. Inson o'z hayotini elektr, televizor, telefon yoki internetsiz tasavvur qila olmaydi. Kundalik hayotimiz, muloqotimiz, ish faoliyatimiz hatto dam olishimiz ham texnologiyalar bilan uzviy bog'liq. Biroq ushbu yutuqlarning salbiy tomoni ham mavjud. Bunday taraqqiyot natijalari butun dunyoda ekologik muhitga be'vosita ta'sir ko'rsatadi. Toza atrof-muhitni saqlab qolish bilan bog'liq qiyinchiliklar yuzaga keladi. Inson faoliyati, shuningdek, siz bilan bizning tabiatga qarshi har qanday faoliyatimiz o'rmonlar, degizlar, hayvonlar butun sayyoramizning nobud bo'lishiga olib kelmoqda. Havo, yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi borliqdagi jami tiriklikning yashashi va ekologik zanjirda o'z vazifasini bajarishi uchun asosdir. Biroq yerdagi rivojlanish ana shu ekozanjir bog'lamlarining uzilishiga, havoning ifloslanishi va butun boshli tizimning zararlanishiga sabab bo'lmoqda. Atmosfera havosiga zavod va fabrikalar faoliyati, mashinalardan chiqadigan zaharli gaz, issiqhona gazlaridan tortib yoqilqotgan hazon ham kesilayotgan daraxt xam salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Oqibatda tuzatib bo'lmas, misli ko'rilmagan muammolar eshik qoqmoqda

Atrofimizni o'rab turgan tabiatning, mintaqamizning, yer sayyorasining kelajakdagi taqdiri siz bilan bizga, ekologik madaniyatimiz darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Insonning ekologik madaniyati juda katta siyosiy, huquqiy va ma'naviy ahamiyatga ega.

Siyosiy ahamiyati- ularni ro'yobga chiqarish orqali fuqarolar davlat ekologiya siyosatini shakllantirish hamda amalga oshirishda qatnashadi va ko'maklashadi, shu sohada boshqaruv va nazorat ishlarida ishtirok etadi, davlat organlaridan tegishli "ekologik ma'suliyatni" bajarishni talab qilishadi.

Huquqiy ahamiyati- ularni ro'yobga chiqarish bir vaqtning o'zida "ekologik" majburiyatni xam keltirib chiqaradi. Huquq va majburiyat uyg'unligi bo'lmasa, ekologik huquqlardan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlari amalga oshmay qoladi.

Ma'naviy ahamiyati- tabiat musaffoligi va ne'matlarga boyligi insonlarning barkamol bo'lishi va kuchli taraqqiy etishida zamin bo'lishi bilan izohlanadi. Qolaversa yuksak ekologik ong va madaniyat ekologik ma'naviyat asosidir.

Insonning ekologik huquqlarining tan olinishi fuqarolarning nafaqat tabiat ne'matlaridan bahramand bo'lishlari, balki atrof-muhitni muhofaza qilishdan

manfaatdorligini oshirdi. Insonlar o'z huquqlari va manfaatlari yo'lida yanada ko'proq tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga jalb etiladi.

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlasak ham, insonlarning ekologik huquqlarining e'tirof etilganligi davlatni zamonaviy davlatlar darajasiga ko'tardi, uni xalqaro obro'sini oshiradi va "tenglar ichida tenglik" salohiyatini kuchaytiradi. Insonlarning ekologik huquqlari, ayniqsa qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqi bir qator davlatlar Konstitutsiyasida aks etgan. Masalan, "Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 42-moddasida har kimning qulay atrof muhitga, uning holati to'g'risida ishonchli axborot olishga va ekologik huquqbuzarliklar natijasida uning sog'lig'iga va mulkiga yetkazilgan zararni undirib olish huquqi aks etgan[5]. Xorijiy davlatlarda va xalqaro miqyosda bunday huquqlar juda dolzarb hisoblanadi.

Ekologik huquqlar ko'proq ijtimoiy ahamiyat kasb etib, inson huquqlari doirasida e'tirof etilgan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bilan o'zaro bog'liq bo'lsa-da, mazmun-mohiyati jihatidan alohida kategoryadagi huquqlar hisoblanadi. Shu bois ular rasmiy belgilanishi, subyektlarning doirasi, ijtimoiy ahamiyati, ro'yobga chiqarilish darajasi va bir qancha jihatlari bilan boshqa huquqlardan farq qiladi. Bu huquqlarning kafolatlanishida birinchi o'rinda tabiiy holat, ya'ni atrof-muhitning sifati va miqdori ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekistonda insonning ekologik huquqlarining roli va ahamiyatiga alohida e'tibor berilayotganligini O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimovning asarlarida ham takidlab o'tilgan: "Xalqaro hamjamiyat insonning nafaqat yashash huquqini, balki to'laqonli va sog'lom turmush kechirishi uchun zarur mo'tadil atrof-muhit sharoitlariga ham bo'lgan huquqlarining muqaddasligi va daxlsizligini allaqachon e'tirof etgan".[4]

O'zbekistonda mustaqillik yillarining dastlabki paytlaridanoq insonning ekologik huquqlarini qonunlarda mustahkamlashga katta e'tibor berilgan. Bunday huquqlarning davlat tomonidan tan olinganligi barcha inson huquqlariga to'liq e'tibor berilganligini, siyosiy hokimiyat yanada insonparvar mohiyat kasb etayotganligini, atrof-muhitni muhofaza qilish ishlariga inson huquqlari nuqtayi nazaridan yondashilayotganligini bildiradi.

Shuni aytib o'tish joizki, O'zbekiston qonunlarida aynan "inson ekologik huquqlari" degan ifoda uchramaydi. Inson ekologik huquqlari boshqa huquqlarga o'xshab siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy kabi tizimlashtirilmagan. Shu boisdan ham inson ekologik huquqlarini aniqlash va mazmunini tushinish uchun bir nechta qonunlarga murojat qilish zarur.

Xususan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun insonning ekologik huquqlari aks ettirilgan eng asosiy Qonun hisoblanadi. Unda "fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqi" [2] va boshqa huquqlar to'g'risidagi qoidalar

umumiy boshlovchi tarzda berilgan. Konstitutsiya bilan bir vaqtda qabul qilingan ushbu Qonunda inson ekologik huquqlari dastlab e'tirof etilgan. Shundan so'ng boshqa qonunlarda inson ekologik huquqlari yanada rivoj topgan.

Albatta, inson huquqqa ega bo'lish bilan birga majburiyatlarga ham egadir. Majburiyatlar insonni atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, tabiiy resurslardan oqilona va to'g'ri foydalanish, boshqalarning huquqlarini buzmasligini ta'minlaydi.

Insonning ekologik majburiyatlari, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholining ekologik havfsizligini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi harakat va harakatsizlikdir. Insonlarning ekologik majburiyati deganda, atrof tabiiy muhit muhofazasi bilan bog'liq tegishli talablarni bajarish yoki muayyan harakatlardan tiyilish tushunilib, ular ekologik qarorlar yuzasidan amalga oshiriladi.

5. **Раҳматова К.И., Ибодуллаева Ю.О., Бозорова Г.С., Махкамов Т.Х., Тожибаев К.Ш.** Гербарий намуналарининг таҳлили – янги тадқиқот йўналиши: *Acer L.* туркуми мисолида. *Academic research in educational sciences. Volume 2, Issue 5, 2021. Б.268-279*
6. Саидов Н.С. Биологические и эколого-физиологические особенности древесных растений в условиях городской среды// автореферат дисс. канд. биол. наук. Душанбе, 2010. 25 с.

TARJIMA TANQIDINING HOZIRGI HOLATI

Safarboyeva Shahruza Dilmurod qizi

2-bosqich talabasi

Buxoro Davlat Universiteti

Email: shaxruzasafarboyeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Hozirgi kungi tarjimonlar, tanqid haqida tushuncha, tarjima nazariyasi va tanqidiga oid ilmiy tadqiqotlar, tanqidiy tahlil qilish;

Kalit soʻzlar: Adabiy portret, adabiy tanqidiy maqola, taqriz, bibliografiya, adabiy sharh, esse, baxs, suhbat, ochiq xat, pamflet, tarjima.

Hozirgi kunda tarjimonlar koʻpaygani quvonarli hol, biroq amalga oshirilayotgan tarjimalar sifati haqida oʻylashimiz zarur. Faqat Toshkentda emas, balki viloyatlarda ham tarjima kitoblar nashrdan chiqmoqda. Biroq bu tarjimalarni kimlar oʻqib tahrir qilmoqda, kimlar tarjima talabga javob berishiga kafolat boʻlmoqda? Bu tarjimalar faqat rus tilidagina emas, balki boshqa xorijiy tillardan oʻgirilgan. Rus tilidan oʻzbek tiliga qoyilmaqom tarjima qila biladigan usta tarjimonlar bor. Baʼzan ular ham ingliz tilidan qilingan tarjimalarga, hatto dissertatsiyalarga taqriz berishadiki, endilikda bunday ishdan tiyilish lozim. Tarjima qilingan asar tilini bilmagan kishi u haqida nima deyishi mumkin?! Har holda bir tildan agʻdarilgan asarni shu tilni bilgan mutaxassis koʻrib chiqsa foydalidir. Biror mutaxassis, tarjimon koʻrib taqriz bermagan tarjima asarni nashr etishga shoshilmaslik kerak.

Tanqid, adabiy tanqid, tanqidchilik — adabiy faoliyat turi, badiiy asarni, shuningdek, bu asarda aks ettirilgan hayot hodisalarini tahlil va talqin etish. Tanqid koʻpincha adabiyotshunoslikning bir qismi sifatida taʼriflanib keladi. Lekin tanqid adabiy faoliyatning mustaqil sohasi boʻlib, adabiyotshunoslikdan farqli oʻlaroq, asosan zamonaviy adabiy hayotda sodir boʻlayotgan jarayonlarni kuzatadi, bu jarayondagi yetakchi tamoyillarni aniqlaydi, gazeta va jurnal sahifalarida eʼlon qilingan adabiy asarlarga munosabat bildirib, ularni odatda shu davrning gʻoyaviy va estetik talablari asosida tahlil etadi.[1] Tanqid adabiy meros namunalarining teatr, kino, musiqa va tasviriy sanʼatdagi yangi talqini masalalari bilan ham qiziqib, oʻz eʼtiborini koʻpincha shu asarlarning hozirgi zamon uchun ahamiyatli tomonlariga qaratadi. Tanqidning asosiy vazifasi yozuvchi yoki adabiy asarni faqat tanqid qilish emas, balki adabiy asar yoki hodisaga haqqoniy baho berish, undagi yutuq va kamchiliklarni xolislik bilan yoritishdir.[1][2].

Tanqid badiiy ijod bilan qariyb bir vaqtda paydo bo'lgan. Yozuvchilar yangi yozgan asarlarini turli davralarda, yig'in va saroylarda o'qib berishgan, davra qatnashchilari esa shu asarlarning yutuq va kamchiliklarini qayd etib, ayni paytda ham o'quvchi (kitobxon), ham tanqidchi vazifasini bajarib kelishgan. Bu tanqid tarixining "og'zaki davri"dir. Tanqidning yozma adabiyotdagi ilk namunalarning paydo bo'lishi esa tazkirachilik maktabining shakllanishi bilan bevosita bog'liq. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ushshuaro" (1487) asari eng qad. tazkiralardan biri bo'lib, unda 9—15-asrlarda O'rta Osiyo, Afg'oniston va Eronda yashagan mashhur shoirlar haqida ma'lumot bilan birga ular ijodidan namunalari ham berilgan. Tazkirachilikning mumtoz namunalaridan biri — Navoiyning "Majolis unnafois" (1491) asarida esa 15-asrda Xurosonda yashagan jami 450 dan ortiq shoir, yozuvchi va olimlarning bilim darajasi, dunyoqarashi, xulqatvori va boshqa to'g'risida ma'lumot berilgan. Shuningdek, Nisoriy, Voze, Fazliy, Tabibiy va boshqalarning tazkiralarda muayyan yozuvchilar va ularning asarlari yuzasidan berilgan ma'lumotlar o'zbek adabiyotida tanqidning paydo bo'lishidagi muhim omillardan bo'lgan.[3].

Tanqid uzoq vaqt mobaynida "amaliy" ahamiyat kasb etib, yozuvchini maqtash, ko'kka ko'tarish yoki, aksincha, qoralash, nuqsonlarini fosh etish, uning asarini esa umumiy baholash va kitobxonga tavsiya etish bilangina kifoyalanib keldi. Adabiyotning rivojlanishi, uning oldiga jamiyat tomonidan qo'yilgan vazifalarning murakkablashishi bilan tanqid ham adabiy mehnat sohasi sifatida yangi qirralar, sifatlar kasb etdi.[1].

16—18-asrlarda Yevropa xalqlari adabiyotida estetik tafakkurning shakllanishi bilan tanqid adabiy harakatning muhim qismi sifatida ajralib chiqdi. 19-asrda Farnsiyada Sh.O. Sentbyov boshchiligidagi "biografik tanqid"ning, Rossiyada V.G.Belinskiy, N.A.Dobrolyubov, N.G.Chernishevskiy singari rus tanqidchilari maktabining shakllanishi bilan tanqidning adabiy hayotdagi ahamiyati behad oshdi, maqsad va vazifalari esa tubdan o'zgardi.

O'zbek adabiyotida zamonaviy tanqidning paydo bo'lishi 20-asrning 10yillariga to'g'ri keladi. Cho'lponning "Adabiyot nadur?" ("Sadoi Turkiston", 1914) va "Muhtaram yozuvchilarimizg'a" ("Sadoi Turkiston", 1915), M.Behbudiyning "Teatr nadur?" ("Oyna", 1914) singari maqolalarining e'lon qilinishi bilan o'zbek tanqidining tom ma'nodagi tarixi boshlandi. Yozuvchi va tankidchilar shu davrda chop etilgan adabiytanqidiy maqolalarida badiiy adabiyotning yangi tarixiymadaniy davrdagi maqsadi, vazifasi va yo'nalishini belgilab berishga harakat qildilar.[2][3].

20 yillarning o'rtalaridan tanqid Sovet mafkurasi ta'sirida adabiy hodisalarga sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondasha boshladi. Natijada o'zbek adabiyotiga katta zarar keltirgan vulgarsotsiologik tanqid maydonga keldi. Bunday tanqid vakillari sovet voqeligini qabul qilmagan Cho'lpon singari yozuvchilarga qarshi

kurash e'lon qildilar. Yozuvchi mahorati emas, mavzuning dolzarbligi, g'oyaviylik badiiy asar qimmatini belgilovchi asosiy mezonga aylandi. 1937—1938 yillardagi qatag'on to'lqini bir qadar tingan Ikkinchi jahon urushi yillarida Oybekning "Navoiy" romani, Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasi, G'afur G'ulom singari shoirlarning yangi she'riy asarlarining chop etilishi munosabati bilan tanqid yana jonlanib, adabiy hayotga badiiy estetik talablar asosida yondasha boshladi. Shu tarzda tanqid o'z tarixining turli bosqichlarida adabiy hayotga ijobiy ta'sir ko'rsatish, adabiy jarayondagi ijobiy tamoyillarning avj olishiga ko'maklashish o'rniga yozuvchining erkin ijod etish huquqini cheklab keldi. Lekin shu bilan birga o'tgan asrning 10 yillarida ham, keyin ham Cho'lpon, Oybek, Abdulla Qahhrr singari yozuvchilar, Izzat Sulton, Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov kabi tanqidchilar tanqidning to'g'ri yo'ldan borishi va adabiyot oldidagi vazifasini qalol o'tashiga yordam beradigan ibratli ishlarni amalga oshirdilar. Tanqidning adabiy portret, adabiytanqidiy maqola, taqriz, bibliografiya, adabiy sharh, esse, baxs, suhbat, ochiq xat, pamflet singari janr ko'rinishlari mavjud. Tanqidchi tanqidning bu barcha janrlaridan axloq va odob mezonlaridan chiqmagan holda foydalanishi lozim.[4].

Birinchi Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalar, "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch", "Adabiyotga e'tibor — ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" kitoblarida aytilgan fikr-mulohazalar, tavsiyalardan kelib chiqsak, bugungi adabiy jarayonda badiiy tarjimaning o'rni, tarjimashunoslik, tarjima tanqidi sohalaridagi yutuq va kamchiliklarni tahlil, talqin etish, muayyan xulosalar chiqarib olish kun tartibidagi muhim vazifalar sirasidan ekaniga iqror bo'lamiz. XX asrga qadar "tarjima" so'zi faqat tarixiy, falsafiy, adabiy va badiiy asarlar o'girmasiga nisbatan qo'llanib kelingan. Og'zaki tarjimonga nisbatan esa turkiy xalqlarda "tilmoch", nemis tilida "dolmetechen", ingliz va frantsuz tillarida "interpret" atamaları qo'llanilgan. Tarjima nazariyasi xususida aytilgan fikrlar ham shu yo'sinda umumiy ma'no kasb etgan. O'zbekistonda tarjimashunoslik ilmining rivojida Jumaniyoz Sharipov, Ninel Vladimirova, G'aybulla Salomov, Najmiddin Komilov, Quadrat Musaev kabi olimlarning xizmati katta bo'ldi. Bugungi kunga kelib o'zbek tarjima maktabi jahon tarjimashunoslik ilmida tan olindi.

Tarjima sohasi gurkirib rivojlanayotgan bugungi kunda tarjima tanqidi har jihatdan faol, hozirjavob, adabiy jarayonning eng qizg'in jabhalaridan biriga aylanishi darkor. Tarjima tanqididagi sustkashlik oqibatida bugungi kunda xorijiy tillardan o'girilayotgan ko'plab tarjima asarlar o'zining bahosini olayotgani yo'q. Kitob holida chop etilayotganlarida hatto qaysi tildan tarjima qilingani ham ba'zan ko'rsatilmaydi. Bundan shunday fikrga kelish mumkinki, aksariyat Tarjima asarlarga uning rus tiliga qilingan tarjimasi asos qilib olinadi. Nashriyot muharriri tomonidan asar tarjimasi asliyatga yoki ruscha variantiga ham qiyoslab tahrir qilinmaydi. Jahon adabiyotining

ayrim namunalari tarjimasini o‘qib mashhur adibning na uslubini, na mahoratini ko‘rasiz. Bunday tarjima asarlar o‘z vaqtida tahlil etilib, tegishli bahosini olishi lozim. Aks holda tarjimachilikni kosiblikka aylantirib olganlar safi kengayib ketaveradi.

Tarjima nazariyasi va tanqidiga oid ilmiy tadqiqotlar, qo‘llanmalar kerak, deb jon kuydirib gapirayotganimizning boisi ham shunda — tarjima tanqidchiligining hozirgi ahvoli talabga javob bermaydi. Gazeta va jurnallar, tahririyatlar taqdim etayotgan tarjima asarlar kimlarning qo‘lidan o‘tib kitobxonga yetib borayotir: ularni nashrga tayyorlagan muharrirlar o‘sha asar yozilgan xorijiy tilni biladimi yoki faqat tarjimonga bo‘lgan ishonchiga asoslanadimi? Ingliz (nemis, frantsuz) tilidan tarjima qilindi, deb bosilayotgan asarlar tarjimasini asliyatga qiyoslab nashrga tayyorlaydigan muharrirlar adabiy-badiiy nashrlarda, nashriyotlarda bormi? Malakali muharrir qalami tegmagan, qanday o‘girilgan bo‘lsa, shu zaylda chiqib ketayotgan tarjima asarlarining soni tobora ko‘payib borayotgani, albatta, tashvishlanarli hol.

Xulosa qilib aytganda, badiiy adabiyotning eng muhim xususiyati milliylik ekan, demak, badiiy tarjimada milliylikni saqlab qolish, boshqacha aytganda, uni qayta yaratish tarjima muvaffaqiyatining asosiy ko‘rsatkichi, bosh omilidir. Qolaversa, tarjima tanqidi faoliyati ko‘ngildagidek emas. Bu muammolarni hal etish uchun amalga oshirilayotgan ishlardan umidimiz katta. Xususan, tarjimashunoslik sohasiga, bevosita badiiy tarjima amaliyotiga kirib kelayotgan yoshlar, ularning Yozuvchilar uyushmasi tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani quvonarli holdir.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Ad.:Bursov B.I. 1976 yil
- 2.Kritika kak literatura. L. 1976 yil
- 3.Nazarov B., O‘zbek adabiy tanqidchiligi: g‘oyaviylik, metod, qahramon, T., 1979 yil
- 4.O‘zbek adabiy tanqidi tarixi, 1—2 jildlar, T., 1987 yil.

KELAJAK AVLOD TARBIYASIDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI

Mamitaliev Ahmadjon G'aniyevich

O'zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi
Andijondavlat pedagogika instituti Tasviriy san'at fani o'qituvchisi

Adhamova Oltinoy Rafiqjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti
"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi talabasi

Solijonova Muhtasarxon Jahongir qizi

Andijon davlat pedagogika instituti
"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola tasviriy san'at fani to'grisida keng fikr mulohazalar yuritib, tasviriy san'atning yosh avlod tarbiyasiga qay darajada tasir etish tomonlarini keng talqin etadi. shuningdek inson hayotida tasviriy san'atning o'rni qay darajada ahamiyatli ekanligi to'grisida so'z yuritib metodik tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, jamiyat, o'quvchi, yosh-avlod, san'at, tasviriy san'at, tasavvur, idrok, ijod, samaradorlik.

Biz uchun bolalarimizning ma'naviyati, bilimi, sog'ligi eng muhim masala!

SH.Mirziyoyev

Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va ta'lim sifatini oshirishdan iborat. Mamlakatimizda bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bizga ma'lumki mamlakatimizda ta'lim sohasi, davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan hamda, o'sib kelayotgan yosh avlodni ham ma'nan va jismonan sog'lom, barkamol, komil inson ruhida tarbiyalash bugungi kunda kun tartibiga aylandi desak mubolaga bo'lmaydi. Har bir yosh avlod kelajagimiz bunyodkori va ertangi kunimiz asoschisidir. Bugungi kunda yoshlarga qanday ta'lim tarbiya bersak, kelajakda ulardan shu bergan ta'lim-tarbiyamizning natijasini ko'ramiz. Yosh avlodni barkamol, yetuk, o'z vatanini sevadigan, o'z manfaatidan vatan manfaatini ustun qo'yadigan bir so'z bilan aytganda "Komil inson" qilib tarbiyalash jamiyatimizning oldiga qo'ygan eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ona vatanimizda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar ko'zni quvontiradi. Muhtaram

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning biz yoshlarga berayotgan imkoniyatlarini, islohotlar jarayoni yaqqol ko'rsatib turibdi,shu bilan birgalikda, davlatimiz siyosati har tomonlama yoshlarni qo'llab quvvatlashga qaratilayotganini ham guvohi bo'lyabmiz. Shunday davrda yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berish ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barcha o'qituvchilarning oldida turgan eng muhim vazifasidir. Uzoq tariximiz shuni ko'rsatadiki, hech bir millatning tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi o'z-o'zidan shakllanib qolmagan.Bunday ezgu fazilatlar tinimsiz mehnat, intilish, harakat, matonat asrlar davomida xalqimiz qon-qoniga singib, ibratli ko'rinish kasb etgan. Bugungidek hayot su'ratlari ko'z ilg'amas darajada shiddat bilan harakatlanayotgan zamonda chinakam ma'naviyatli,ma'rifatli va madaniyatli insongina, inson qadrini bilishi,milliy o'zligini anglashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olishi mumkin.

Hozirda ertangi kun egalari bo'lmish yosh-avlod ushbu xaqiqatlarni tushungan holda mas'uliyat bilan harakat qilmog'i o'qib-o'rganmog'i shart. Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq!" Shunday ekan har bir yoshga yahshi ta'lim-tarbiya berishni o'z oldimizga maqsad qilib olsak va bu uchun sidqi dildan harakat qilsakkina ko'zlangan maqsadimizga erishishimiz mumkin. Ushbu jarayonda yoshlarga ta'lim tarbiya bilan bir qatorda ularning qalbida san'atga va albatta asosan tasviriy san'atga nisbatan mehr tuyg'ularini uyg'otmoq darkor. Tasviriy san'at o'quv predmeti o'z xarakteriga ko'ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his-tuyg'u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o'stirishda katta rol o'ynaydi.

San'at tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarning badiiy tasvirlarda ifodalanishidir. San'at o'zida moddiy olamning umumiy holatini hamda rivojlanishini aks ettirish, odamlarga uni bildirishda muhim vosita bo'lish bilan birga, insonni siyosiy, axloqiy va badiiy jihatdan tarbiyalashning qudratli omili bo'lib xizmat qiladi. San'at voqelikni ifodalash uslubi, xarakteri, mazmuniga ko'ra, tasviriy san'at, me'morchilik, adabiyot, musiqa, sirk, teatr, kino, radio-televideniya kabi turlarga bo'linadi. San'atning ijobiy va eng muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o'laroq, voqea-hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his tuyg'u bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik badiiy obrazlarda ifodalaydi. Ma'lumki, har bir jamiyat o'zining ma'lum iqtisodiy-siyosiy holatidan kelib chiqib, san'at rivojiga muayyan darajada sharoit yaratadi. Shu boisdan har bir jamiyat san'ati o'z davri uchun xizmat qiladi. Har bir jamiyatdagi san'at erkinlik asosida vujudga kelsa, bu san'at o'zida insonparvarlik, vatanparvarlik va milliylik kabi ilg'or g'oyalarni ilgari suradi. San'at

xalqning maqsadi, orzu umidlarini aks ettiradi. San'at insoniyatning ezgu niyatlarini, ularning orzu-umidlarini to'la ifoda etadi. Shu boisdan xalqimiz o'z san'atini qanchalik ardoqlab, unga hurmat va ehtirom bildirsa, jahon xalqlari ham bugungi o'zbek san'atiga ana shunday ixlos va ehtirom bilan qaraydilar. San'at uzoq tarixga ega bo'lib, u jamiyatda mehnat faoliyatining rivojlanishi, takomillashuvi va ijtimoiy faoliyatning taraqqiyoti asosida shakllandi. U moddiy ishlab chiqarish, jamiyatning iqtisodiy tuzumi va mehnat munosabatlari hamda qurollarining takomillashuvi tufayli jamiyat ongining evolutsion taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan va rivojlangan. San'at tushunchasi keng bo'lib, u avvalo inson hissiyoti bilan bog'liqdir. Shuning uchun tasviriy san'at boshqa san'at turlari kabi kishilarning his tuyg'ulariga kuchli ta'sir o'tkaza oladi. Tasviriy san'atda turli xil voqea-hodisalar, munosabatlar, manzaralar aks etadi. Insonlar tasviriy san'at asarlarini tomosha qilib, ularda aks etgan voqea-hodisalar, holatlar, go'zalliklarga o'z munosabatlarini bildiradilar, ta'sirlanadilar. Insonlarni, tabiat ko'rinishlarini, voqea-hodisalarni, narsalarni tekis yuzalarda yoki hajmlarda turli vositalar bilan ifodalash "**Tasviriy san'at**" deyiladi.

Tasviriy san'atni o'rganish jarayonida yoshlarda ko'rish, kuzatish, idrok etish, hayoliy tasavurlarining kengayishi, tabiat go'zalliklarini ko'ra olish jihatlarini rivojlantiradi. Tasviriy san'at borliqni, atrof-muhitni bilishga o'rgatadi va hayot dunyoyimizni kengaytiradi. Tasviriy san'atning muhim xususiyatlaridan biri — inson uchun faqat borliqni, tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalar va narsalarni bildiribgina qolmay, odamlarga yangi bilim, tasavvur va tushunchalar berib, ma'naviyatini boyituvchi, ijodiy yuksalishga boshlovchi qudratli omil bo'lib xizmat qiladi. Yoki bir so'z bilan aytganda, V.G.Belinskiy ta'rificha, „San'at — obrazli tafakkurdir“.¹ Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy estetik madaniyatga doir elementlar, bilim va malakalar beruvchi omildir, chunki har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u go'zallikdan bahramand bo'lishi, undan zavqlanib dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi lozim. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan sanat asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm bilan ishlashlariga to'g'ri keladi. Tasviriy san'at fanini o'qitishdan maqsad bolalarda kuzatuvchanlikni o'stirish, borliqni ko'ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivojlantirish hisoblanadi. Ma'lumki, tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarning deyarli 90 foizidan ortig'ini ko'z orqali oladi, qolgan 10 foizini quloq, burun, og'iz va boshqa a'zolari orqali o'zlashtiradi. Bu sifatlar borliqni idrok etish mashg'ulotlarida shuningdek, naturadan tasvirlash, san'atshunoslik asoslari

¹ V.G.Belinskiy. Tanlangan asarlar. 3-tom. M. 1948-yil. 67-bet.

mas'ulotlarida alohida ahamiyatlidir... Ma'lumki ta'lim –tarbiya jarayonida boshlang'ich sinflar ta'limi alohida bosqich bo'lib, bu davr bola shaxsining eng jadal rivojlanish davri hisoblanadi. Chunki 5-6 yoshdan 10-11 yoshgacha bo'lgan davrda bola shaxsi yetuklik va o'smirlik davrida bo'lib, bola shaxsi ko'rish, kuzatish, idrok etish, tasavvur va tafakkur qilishga o'rganish jarayonidagi eng shiddatli bosqich bo'ladi. Mamlakatimizning ko'plab maktablarida quyidagi muammolarga duch kelamiz. Tasviriy san'at fanini boshlang'ich sinflarda o'z mutaxassisi o'tkazmaganligi sababli o'quvchilar tasviriy san'at fani nimani o'rgatadi, ranglar haqida, rasm chizishda nimalarga e'tibor beriladi, palitra nima, o'quv qurollarini yaxshi bilishmaydi, chiziqlar, shakllar, bo'yoqlar, asosiy ranglar, rasm chizishda ketma-ketlikda ya'ni bosqichma-bosqich chizish kerakligi haqida ma'lumotga ega bo'lmay ulg'ayishlari achinarli holat. Tasviriy san'atni umumiy ta'lim maktablarida o'qitilishining foydali ekanligi buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy tomonidan uning «Buyuk didaktika» asarida rivojlantirildi. Umumiy ta'lim tizimida rasm ishlashni takomillashtirishda fransuz olimi J.J.Russoning fikrlari diqqatga sazovordir. U o'zining «Емил или воспитание» nomli kitobida borliqni bilishda naturaga qarab rasm ishlashning ahamiyati katta ekanligini isbotlab bergan. Uning fikricha rasm chizishni ko'proq tabiat qo'ynida amaga oshirish samaralidir. Chunki, bolalar tabiat qo'ynida narsalarni haqiqiy rangi, perspektiv qisqarishlarini ko'rgazmali ravishda o'z ko'zlari bilan ko'radilar, uning qonunlarini ongli ravishda tushunib yetadilar. Yevropa pedagoglari orasida rasm chizishni umumiy ta'lim maktablarida alohida o'quv predmeti sifatida o'qitilishi va uni takomillashtirishda I.V.Gyote (Germaniya), I.G.Pestalotssi, I.Shmidt va P. Shmidt (Shvetsariya), A. Dyupyui va F. Dyupyuilar (Fransiya) katta hissa qo'shdilar. Umumiy ta'lim maktablarida rasm ishlashda natural metoddan ko'ra geometrik metodlarni afzalliklarini N.Pestalotssi, P.Shmidt va I.Shmidt kabi pedagoglar yoqlab chiqdilar. Natijada, maktablarda rasm chizishga o'rgatishda ikkita qarama-qarshi natural va geometrik metodga asoslangan ikki oqim paydo bo'idi. Naturaga asoslangan rasm chizishni ustunliklarini Ya.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.V.Gyotelar yoqlagan bo'lsalar, geometrik metodni ko'proq I.G.Pestalotssi, I.Shmidt va P.Shmidt, F.Dyupyuilar asoslashga harakat qilganlar.

Tasviriy san'at dunyoni, insonning go'zallikka bo'lgan intilishlarini teran fikrlashga undaydi. Xalqimizning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlari, mustaqil yurtimizni yanada go'zal qilishga, uni estetik jihatdan boyitishga intilishlari benihoyadir. Davlatimiz o'zi shakllanayotgan murakkab bir davrda badiiy madaniyat taqdiri uchun mas'uliyatni zimmasiga olib, tasviriy san'at sohasiga alohida e'tibor qaratdi. 1997-yilda birinchi Prezidentimiz I.Karimov farmoni bilan O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tashkil etildi. Badiiy Akademiya zimmasida O'zbekiston hududida shakllangan milliy san'atning turli maktablariga xos noyob an'analarni asrab-avaylash,

o'rganish va rivojlantirish; milliy tasviriy, amaliy, miniatyura san'ati durdonalarini ommalashtirish; zamon talabiga javob beradigan badiiy ta'lim tizimini yaratish; yuqori malakali kadrlar tayyorlash; akademik yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarni rivojlantirish vazifasi turardi. O'zbekiston Badiiy Akademiyasining samarali faoliyati natijasida mustaqillik yillarida o'z asarlari bilan yurtimizni dunyoga mashhur qilgan rassomlar nomi ulug'lanib, ularga yuksak e'tibor ko'rsatildi. O'zbekistonni boy madaniy merosga ega va yuksak badiiy yutuqlarga erishgan davlat sifatidagi mavqeini oshirish, tasviriy san'atni rivojlantirish uchun asos yaratildi. Mustaqillik davri rassomlari ijodi va asarlari tasviriy san'at kurslari mashg'ulotlarida, san'at yo'nalishidagi o'quv yurtlarida chuqurroq o'rgatiladi. Istiqloq tufayli ularning ijodi kengroq o'rganilib, darsliklarga kiritilmoqda.

Tasviriy san'at darslarining o'ziga xos, maxsus vazifalari mavjud. Ya'ni borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushunish va qadrlashga o'rgatish; estetik va badiiy didni o'stirish; bolalar badiiy fikr doirasini kengaytirish; badiiy ijodiy qobiliyat va fantaziyani rivojlantirish, tasviriy san'atning nazariy asoslari (yorug'soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya) bilan tanishtirish, rasm ishlash, haykal yasash, badiiy qurish-yasash yuzasidan elementlar malakalar hosil qilish, kuzatuvchanlik, ko'rish xotirasi, chamalash qobiliyati, fazoviy va obrazli tasavvurlarni, abstrakt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, tasviriy, amaliy me'morchilik san'at asarlarini tushungan holda o'qiy olishga o'rgatish; san'atga nisbatan qiziqish uyg'otish, uni qadrlashga, sevishtirishga o'rgatish.

Shu bilan birgalikda tasviriy san'at darslarining qo'shimcha vazifalari ham mavjud. Bular: borliqni, hayotni bilishga ko'maklashish; milliy g'urur va milliy istiqloq mafkurasini amalga oshirish, bolalarda axloqiy, mehnat, jismoniy tarbiyani amalga oshirish, bolalarni turli kasb va hunarlarga yollash.

Tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi va vazifalari haqida to'xtalganda yana shuni qayd qilish lozimki, u maktabda o'qitiladigan deyarli barcha o'quv predmetlari bilan bog'lanadi va ular yuzasidan materiallarni o'zlashtirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, u o'qish, adabiyot, geografiya, tabiatshunoslik, biologiya, tarix, matematika, mehnat darslarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at, hattoki fizika, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san'at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan

bo'lsada, u axloqiy, mexnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Har qanday o'quv predmeti ta'lim mazmunida, albatta, o'zbek xalqi yaratgan beqiyos boy, madaniy va ma'naviy merosni o'ziga asos qilib olishi lozim. Shunday ekan, o'zbek xalqining dunyoga mashhur bo'lgan me'morchilik, amaliy va tasviriy san'at asarlarini maktablarda boshqa materiallarga qaraganda kengroq va chuqurroq o'rgatilishi talab etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, tasviriy san'at inson ongiga juda tez ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadi. Yosh avlod tarbiyasida barcha fanlar qatori tasviriy san'atning ahamiyati benihoya katta. Hozirgi kunda maktablarimizning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda borliqni faqat ijodiy o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyatni shakllantirishgina emas, balki ularda go'zallik qonunlari asosida borliqni qaytadan qurish hissini tarbiyalash hamdir. Shu sababli maktablarda tasviriy san'at dars soatlarini ko'paytirish va dars samaradorligini oshirish talab etiladi. Tasviriy san'at darslarini ko'proq tashkil etish o'quvchilarda dunyoni keng va atroflicha ko'ra olishga, shuningdek ko'rish orqali olgan taasurotlari doirasini kengaytirishga, narsalar haqida aniq va to'liq tushunchaga ega bo'lishlariga yaqindan yordam beradi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, badiiy madaniyat asoslaridan hisoblangan tasviriy san'at bolalarning ko'ngil ochuvchi o'quv predmeti emas, balki bolalarda ijodkorlikni, tafakkurni fahm-farosatni o'stiruvchi, shuningdek kuzatuvchanlik va hayotni bilishga ni o'zgartirishga, ezgulikni yovuzlikdan farqlashga o'rgatuvchi o'quv predmeti deb qarash lozim. Tasviriy san'at ijtimoiy hayotda ham muhim o'rin egallaydi hamda inson tafakkuridagi nozik o'zgarishlarni ham o'zida aks ettiradi, insonlar qiyofasi va o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarini ham yoritib beradi. Sanatga insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi blimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsuli deb ham qarash mumkin. Chunki jamiyatimizdagi har bir inson qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat'iy nazar, go'zallik va nafislikni ko'ra bilishi va tushuna olishi kerak. Zero san'atga oshno qalblardan hech qachon yomonlik chiqmaydi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. B. Oripov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. "Ilm-ziyo nashriyoti" 2005-yil Toshkent.
2. R. Hasanov. Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llari. "O'qituvchi" nashriyoti 1986-yil Toshkent.
3. R. Xasanov. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. "Fan" nashriyoti 2004-yil Toshkent.
4. N. Abdullayev. San'at tarixi. 1-tom. "O'qituvchi" nashriyoti 1986-yil Toshkent
5. S. Abdirasilov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish. 1996-yil Toshkent.
6. B. N. Oripov. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. "Ilm-ziyo" nashriyoti 2013-yil. Toshkent.
7. B. N. Oripov, "Predmetlar aro bog'lanish". "O'qituvchi". 1985-yil. Toshkent.
8. R. Hasanov, "Narsani o'ziga qarab rasm chizish". T. "O'qituvchi" 1969-yil. Toshkent.
9. N. Saidaxmedov, "Yangi pedagogik texnologiyalar". T. "Moliya". 2003-yil. toshkent.
10. S. F. Abdirasilov, Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. 2012-yil. Toshkent.

O‘ZBEK BADIY MATNLARINING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA EKZOTIZMLARNING BERILISHI

Xoliqova Zahro Arol qizi

Qarshi davlat universiteti magistranti

Zakhrokhlikova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada ekzotizm tushunchasi izohlangan va ekzotizmlar guruhlangan, ularga misollar topilgan. Ekzotizmlar kimlar tomonidan o‘rganilganligi, kimlar o‘z tadqiqotlarida ularni tahlil qilgani sanab o‘tilgan. Maqolada qiyosiy, tavsifiy metodlardan foydalanilgan. Tarjima jarayonida vujudga keladigan muammolar sanab o‘tilgan va ularga yechimlar misollar orqali berilgan. Maqola oxirida xulosa berilgan.

Kalit so‘zlar: Ekzotizm, milliy urf-odatlar, lug‘at boyligi, tarjima jarayoni, kolorit, izoh

TRANSLATION OF EXOTICISMS IN THE TRANSLATION OF UZBEK ARTISTIC TEXTS INTO ENGLISH

ABSTRACT

In the article, the concept of exoticism was explained and exoticism was grouped, examples were found out. It is listed who studied exoticism, who analyzed their studies. Comparative, descriptive method were used in the article. The problems that arise in the translation process are listed the solution to them is given by examples. At the end of the article, the conclusion is given.

Key words: Exoticism, national customs and traditions, translating process, kolorit

KIRISH

Ekzotizm ma’lim bir xalqning, mamlakatning milliy, madaniy hayotini o‘zida aks ettiruvchi va tarjimada ekvivalenti mavjud bo‘lmagan so‘zdir. Masalan, o‘zbek tilidagi ekzotizmlar: adras, atlas, Navro‘z, sumalak, tandir, palov... Yoki boshqa tillardagi kiyim-kechak nomlari: kemano, burqa, salla, chodra, pul birliklari: so‘m, rubl, dollar, siyosiy tashkilot muassasa nomlari: reyxstag, senat, kortes, shamollar nomlari: tornado, garmsel musiqa asboblari nomlari: rubob, fleyta, agogo...

Ekzotizmlarning o‘ziga xos-xususiyatlari:

- muayyan, mamlakat, millatga bevosita bog‘liq;
- hech qanday sinonimi yo‘q;

- mahalliy rangni, koloritni ko'rsatadi

Tilshunoslikda ekzotizmlar, ekzotik leksika terminlari ostida boshqa xalqlar hayotini tasvirlashga, o'zga xalq va madaniyatga daxldor bo'lgan voqeliklarni ifodalashga xizmat qiluvchi so'zlarning qo'llanishi A.E.Supruning 1958-yilda e'lon qilgan. "Ekzoticheskaya leksika" nomli maqolasida ilmiy asoslab berildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ekzotizm so'zi yunoncha exotikos "begona, g'ayrioddiy, tashqarida" degan ma'nolarni anglatadi. Bu atama dastlab 1992-yilda G.L.Zelinin tomonidan batafsil tavsiflangan, ekzotizm so'zi adabiy tanqid ma'nosida qo'llanilgan. Tilshunoslikda esa 1937-yil L.A.Bulaxovskiy tomonidan ishlatilgan. Kavkaz tillaridagi so'zlarni tavsiflovchi asarlarida "ekzotik lug'at" atamasini ishlatgan.¹ Ammo ekzotizm tushunchasiga izoh berilmagan. Keyinchalik B.N. Pavlov ekzotizmni "badiiy matnlarda rus bo'lmagan har qanday xalqning ma'naviy hayoti va turmush tarzining milliy xususiyatlarini ifodalash vositasi sifatida qo'llaniladigan begona so'zlar" deb ta'rif beradi. Ekzotizm atamasi A.A.Bragina tomonidan mintaqaviy jihatdan lug'atni o'rganishga bag'ishlangan monografiyasida faol qo'llaniladi. U ma'lum bir mamlakat, ma'lum bir xalqning hayoti, madaniyati bilan aniq bog'liq bo'lib, matnga milliy, mahalliy rang beradigan, o'zlashtirilgan, ekvivalenti bo'lmagan xorijiy so'zlarni ekzotizm deb ataydi².

NATIJALAR

Har bir xalqning madaniy hayotiga oid bo'lgan, boshqa millatda mavjud bo'lmagan leksik qatlami mavjud. Bu so'zlar xalqlarning hayoti, turmush tarzi va urf-odatlariga bog'liq bo'ladi. Masalan: do'ppi, chopon, o'choq, tandir, adras, atlas, sumalak, shinni, baxmal kabilar.

O'zbek milliy-madaniy hayotiga oid ekzotizmlarning inglizcha tarjimada berilishi:

Chilmahram tog'ining etaklaridagi ko'kalamzorlarda ham yuzlab chodirlar va o'tovlar paydo bo'ldi. (Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar) - *In the greenery on the slopes of mount Chilmahram, too, hundreds of utovs and tents.* Tarjimon dasturlarda o'tovni grass deb tarjima qilingan. Ammo bu xato, chunki o't, maysa bilan o'tovni farqi bor.

¹ Ванина, В. В. Экзотизмы немецкого происхождения в русском языке XX века Текст.: автореф. дис. . канд. филол. наук / В. В. Ванина. Барнаул, 2001. - 19 с

² Аникина, Л. В. Использование этнографизмов в произведениях Ю. Рытхэу Текст. / Л.В. Аникина // Русский язык в школе. 1982. - № 3. - С. 92.

Fotima yenglariga chiroyli qizil kashtalar tikilgan, ukraincha oq shoyi kofta, qora yubka kiygan edi.(P.Tursun. O‘qituvchi.)- *Fotima had a beautiful red kashtas on her sleeves, Ukrainian wore a white silk blouse, black skirt.* Tarjimon dasturlarda kashta so‘zi embroidery deb tarjima qilingan, embroidery bu bezalغان degani, ammo bezalغان bilan kashta so‘zini farqi bor. Bezashda ip bilan emas boshqa narsa bilan ham bezalishi mumkin

MUHOKAMA

O‘quvchi nafaqat milliy adabiyot asarlaridan balki, xorijiy adabiyotlardan tarjimalar bilan ham shug‘ullanadi. Faqat u tarjimalar orqali boshqa xalqlar adabiyoti haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Badiiy tarjima – adabiy-badiiy asar mazmunini boshqa til orqali tarjima qilish. Tarjimon tillarni bilishi, qiyosiy grammatika va uslub masalalarini tushunishi kerak.

XULOSA

Tarjima jarayonida bir necha muammolar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, ekzotizmlar qanday tarjima qilinadi? Qanday tarjima qilinsa so‘zdagi milliy kolorit yo‘qolmaydi? Bu kabi ko‘plab muammolarga yechim topish, ularga e‘tibor berib tarjima qilish asarning haqiqiy mazmunini ochib beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Аникина, Л. В. Использование этнографизмов в произведениях Ю. Рытхэу Текст. / Л.В. Аникина // Русский язык в школе.С.(92).
- 2.Ванина, В. (2001). Экзотизмы немецкого происхождения в русском языке XX века Текст.: автореф. дис. . канд. филол. наук .(19 с).
3. Кальвова, О. И.(1986) Функционирование экзотизмов в русских текстах Текст.: автореф. дис. . канд. филол. наук / О. И. Кальвова. — Куйбышев: Куйбышевский государственный университет. (19 с).

IMPORTANCE OF THE TERMINOLOGICAL USE OF ENGLISH IN INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES

Yuldasheva Fazilatxon

A student of Kokand Pedagogical Institute.

Inomovafazilatxon@gmail.com

ANNOTATION

The problem of studying the borrowings of ICT terms into our language, especially modern ICT terms has an international impact. English plays a great role in the assimilation of international ICT terms into many languages, including our language. It plays a huge role in the dissemination of international terms, as the main intermediary language. Based on etymology, lexical material from international borrowings and the rapid development of information technologies, make possible to study and analyze the importance of the terminological potential of the English language in the field of ICT and emphasizes the importance of studying modern trends in the emergence and implementation of new ICT terms in the scientific-technical field and the information space.

Key words: ICT, blending, neologisms, compounding, abbreviations

Technology is always a good place to look for lexical change. The Internet, for example, has given rise to a lot of neologisms (new words or expressions or existing words used in new ways). There are a lot of new words and expressions that have become common, including the tech-friendly terms like mouse potato (someone who spends lots of time in front of a computer), ringtone (the ever-popular sound of an incoming cell phone call) and laptop (small computer that we can keep on the lap). We use them every day and don't even think about them. For many Internet users, the word `google` is a noun - the name of a popular online search engine.

One of the big questions always with a language is: 'how do new words come into being?' We're all fascinated to see how new vocabulary comes into the language. But where does it come from? And how many words are truly new? Since brand-new words - words which have never been seen before in any shape or form - account for less than 1% of neologisms, it's perhaps surprising that most of the words that are new entrants

to the latest editions of Oxford's ELT dictionaries are actually recognizable as having existed in some form already. For example, only in December 2007, it was reported that facebook the verb and F a c e b o o k, the trademarked noun referring to the popular social networking site, had been added to the latest edition of the Collins English Dictionary. The formation of new words is not a random process. There are several distinct patterns and paths by which new words come into the language, falling into 8 major categories or methods of word formation that in turn are subdivided and illustrated with examples of computer terminology.

Compounding - joining two or more existing words together to make one word. The term c o u c h s u r f i n g (and related forms couch surf, couch surfer) meaning travelling on a budget, using a broad network of contacts in order to get overnight accommodation for free first appeared in 2004 with the launch of website www.CouchSurfing.org, the brainchild of American web consultant, Casey Fenton. Although the capitalized variants CouchSurfing and CouchSurfer are registered trademarks of the website, the lower case variants, either as open or closed compounds, are now regularly used. And also in education teachers use www.create.cahoot.it play interactive games with students. The name of the site was originated from the aim of the online site. Teachers create quiz-questions beforehand every lesson in order to make the lesson more interesting.

Abbreviations: Acronyms or Initialisms Acronyms and initialisms are both abbreviations made from the first letters of a group of words, the former are said as a single word while the latter are spelt out. There is a tendency in the present world to use abbreviations as self-dependent words and replacement of expressions by another more simple and understandable combination of words and letters. Acronyms An acronym w y s i w y g (meaning 'what you see is what you get') in this case it's not spelt as it sounds.

Initialisms are widely spread among ICT terms. Starting from WWW World Wide Web s or pages that users can access on the also known as the web, WWW or W3- refers to all the public websites or pages that users can access on their local computers

and other devices through the Internet. These pages and documents are interconnected by means of hyperlinks that users click on for information. Some words aren't really acronyms, but are just shortened versions that are quicker and easier to say, such as 'hi-tech' for high technology. As for, w i- f i - wireless fidelity - sometimes it is written with a hyphen, sometimes not. It is an implementation of IEEE wireless communication standard 802.11. Technically, it's standard ensuring that equipment works on a wireless network. It's an analogy with 'h i- f i', for high fidelity, that used to be common for recording some years ago. It's an interesting usage because it shows the return of a word that everybody thought had gone completely out of date - 'wireless'. It's used now for all sorts of applications - TV remotes can be talked about as wireless, if you control your garage door, it's a wireless control, mobile phones are sometimes referred to as wireless and GPS, satellite things in your car. Has a lot of associated terminology, of course, wi-fi is just one word of many that has come into usage in the last few years talking about the way in which we cope with the Internet. Have a look at F A Qs, you've seen them a thousand times on computer screens (they are computer text files containing a list of questions and answers, especially basic stuff on newsgroups where you want to find a quick reply). Basically URL means Uniform Resource Locator which is Web address from 1994. In the means of Internet terms HTTP is formed from Hyper Text Transfer Protocol. The Primary Applicability: Application layer. Today people use Internet from various IP addresses: IP or Internet Protocol is also an Internet Layer. LAN Local area network is a Link and other layers. As for a hardware PC is A personal Computer (host). 8

Conversion - using a word from one part of speech in another part of speech. Although S M S is an English abbreviation, the more common word in everyday use is text. This is a new word that has undergone a further change, by acquiring a new part of speech. So the noun t e x t has taken on a specific new meaning relating to mobile phones, and then has also become a verb. This is a very common phenomenon in language change when words acquire new functions, sometimes without even changing their spelling, that's why practically each described computer term undergo this way.

Blending - mixing words together, using parts of them These words that already exist in the language also team up in new ways to describe new inventions: Emoticon = emotion + icon (a visual character or sign which indicates emotion e.g. :) Ezine = electronic + magazine (a magazine that only exists on the Internet) Hacktivist = hack + activist (a person who changes or manipulates information on the Internet in order to convey a political message) Screenager = screen + teenager (a young person who spends a lot of time using a computer) Spyware = spy + software (a type of computer programme to get information from someone else's computer system illegally) Webcam = camera + World Wide Web (a video camera that transmits over the Internet).

Affixation - adding suffixes or prefixes to existing words. Prefixes New technical terms are often a rather pleasing combination of ancient and modern. Prefixes like multi- or nano- that come from Latin or Greek, are combined with new words. The word byte was a truly new word made up in the 1960s, but since then it has been combined with Greek prefixes like giga- and kilo- or tera- (meaning 'monster' represents a factor of 10¹²). The use of a single letter prefix with a hyphen is unusual, but not for computing such prefixes as e- and i- gave a birth to a vast majority of widely used set expressions. i.

The term e-books as an abbreviation for electronic books takes inspiration from the use of the e- prefix as in e-mail, e-commerce, e-learning, etc. The term iPod is a trademarked brand of MP3 player designed and marketed by Apple Computers. The use of the letter i originated with one of the company's other products, the iMac, a brand of personal computer shipped with everything necessary for connection to the Web (where i stood for Internet). However, the use of the prefix i had such a positive impact on brand recognition that the company adopted it more widely (e.g. iTunes) and associated it with other concepts such as 'individual' and 'independence'.

The importance of Internet grows rapidly in all fields of human life, including not only research and education but also marketing and trade as well as entertainment and

hobbies. This implies that it becomes more and more important to know how to use Internet services and, as a part of this, to read and write English.

Of course, the majority of mankind cannot use the Internet nowadays or in the near future, since they live in countries which lack the necessary economical and technological infrastructure. But the Internet causes polarization in developed countries, too: people are divided into Internet users and Internet illiterates, and as the use of the Internet grows and often replaces traditional methods of communication, the illiterates may find themselves in an awkward position.

In general, it is easy to learn to use Internet services. The worst problems of Internet illiteracy are, in addition to lack of economical resources of course, wrong attitudes. Older people are usually not accustomed to live in a world of continuous and rapid change, and they may not realize the importance of the Internet or the easiness of learning to use it.

REFERENCES

1. Latha B. M. Blending ICT into language learning and teaching //International Journal of English and Literature (IJEL). – 2014. – Т. 4. – №. 2. – С. 1-8.
2. Gulnora, Israilova. "EVALUATIVE VOCABULARY AND MEANS ITS MANIFESTATIONS." *Gospodarka i Innowacje*. 32 (2023): 168-173.
3. Adilovna, Hasanova Dilfuza. "Lexical Meaning Interpretation." *International Journal on Integrated Education* 3.12: 219-220
4. Хасанова, Дилфуза Одиловна. "Заимствованные лексические единицы как база словообразования." *Филологические науки. Вопросы теории и практики* 3 (2010): 164-166.
5. Amidieevna, A. S. "Language and Culture as a Basis for Development of Competence." *Middle European Scientific Bulletin* 22 (2022): 58-60.
6. Alimsaidova S. A. Comparison of spatial constructions in the Russian and Uzbek languages in the formation of sociolinguistic competence //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 7. – С. 204-214.
7. Mukhammadjon Solijonov. Linguistic and extralinguistic factors forming the conceptual field of parables. *International journal of social science & interdisciplinary research* (2022): Pp. 414-417.
8. Solijonov Mukhammadjon. Basics of linguocultural analysis of literary text. *International Journal of Early Childhood Special Education*. Vol 14, Issue 07 2022. – Pp. 2197-2201.

9. Mukhammadjon Solijonov and Kholiqova Lutfiya. Linguistics in the anthropocentric paradigm methodological foundations of science. *International journal of social science & interdisciplinary research* (2022): 174-177.
10. Tillahodshajeva, F. (2023). Schiller in Uzbekistan. International scientific conference "Innovative trends in science, practice and education", 2(1). Pp. 51-55.
11. Tilyakhodzhaeva Fazilya. Required English linguistic knowledge for teaching math in English. *The American Journal of Applied sciences* 5.01 (2023): 1-4.
12. Тиляходжаева Фазиля. Проблемы использования машинного перевода в вузах Узбекистана. *Актуальные проблемы филологии*. 2016.
13. Tillahodshajeva, F. (2023). Schiller in Uzbekistan. International scientific conference "Innovative trends in science, practice and education", 2(1). Pp. 51-55.
14. Tilyakhodzhaeva Fazilya. Required English linguistic knowledge for teaching math in English. *The American Journal of Applied sciences* 5.01 (2023): 1-4.
15. Ubaydullaeva Madina. Linguistic Creativity In The Language System And Discourse. *Journal of Positive School Psychology* 6.11 (2022): Pp. 3121-3127.
16. Madina Ubaydullaeva. Interlevel parametrization of linguistic creativity. *International journal of social science & interdisciplinary research* (2022): Pp. 410-413.
17. Убайдуллаева Мадина. Проблемы перевода юридических терминов с английского на русский язык. *Переводоведение: проблемы, решения и перспективы* 1 (2022): Pp. 87-90.
18. Yuldasheva D. Functional nature of conceptual occurrence of subject category in English. *International journal of social science & interdisciplinary research* (2022): Pp. 398-401
19. Madina Xasanova. "Kasbiy terminologik lugʻat boyligini oʻrgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning oʻrni" *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, vol. 1, no. 3, 2021, pp. 195-198.
20. Jamaliddinova, Dilnoza Mirkhojiddinovna. "THE IMPORTANCE OF USING INTERACTIVE TECHNIQUES AND INDEPENDENT WORK IN TEACHING THE TOPIC "ORGANIZED FRAGMENTS" IN PRIMARY SCHOOL NATIVE LANGUAGE LESSONS." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 1270-1279.
21. Shakhlo, Saliyeva. "INTERACTIVE METHODS AND ACTIVITIES IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 *Impact factor: 7.429* 11.12 (2022): 418-421

ZIRADOSHLAR (APIACEAE) OILASI VAKILLARINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Xudoyberdiyeva Xusnora Numonjon qizi

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika
universiteti biologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ziradoshlar oilasiga mansub bo‘lgan bir nechta o‘simliklarning dorivorlik xususiyatlari haqida qisqacha ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Ziradoshlar oilasi vakillarining tarqaladigan hududlarini bilib olish mumkin .

Kalit so‘zlar: aktinomorf, kallakcha, reduksiya, soyabon, pistacha, alkaloid, daucus carota, pimpinella anisum, ferula, carum carvi.


Tabiatimizdagi ko‘p o‘simliklar oziq-ovqatga sifatida ishlatilishi bilan qolmay dorivorlik xususiyatini ham namoyon qiladi. Olimlar tomonidan har bir o‘simlikning o‘ziga xos bo‘lgan dorivorligi o‘rganib chiqilgan. Ziradoshlar oilasining ba‘zi turlarida ham shifobaxshlik bor.

Ziradoshlar (Soyabondoshlar) oilasi — Apiaceae (Umhelliferae). Bu oila 300 taga yaqin turkumga mansub 3000 dan ortiq turni o‘z ichiga oladi. Ular butun Yer yuzi bo‘ylab keng tarqalgan. O‘rta Osiyoda oilaning 97 turkumga mansub 422 ta turi , yurtimizda 69 ta turkumga oid 198 ta turi o‘sadi. Hayotiy shakliga ko‘ra ziradoshlar oilasida bir va ko‘p yillik o‘simliklar ustunlik qiladi, ba‘zan yarim buta va butalar ham uchraydi. Barglari turli darajada qirqilgan, butunlari ham mavjud. Ko‘pchilik turlarida (kavrak) bargining asosida qini (novi) bo‘ladi. To‘pguli oddiy yoki murakkab bo‘ladi . Soyabon, kallakcha turi uchraydi. Gullarining rangi juda ham xilma-xil, gulqo‘rg‘oni murakkab, gulkosachabarglari reduksiyalangan 5 tadan, mayda, gultojibarglari 5 ta, tutashmagan. Changchisi 5 ta, urug‘chisi 2 ta, tugunchasi ostki tuguncha. Mevasi — pistacha. Gul formulasi: $Ca_5-0 Co_5 A_5 G(2)$. Oila soyabonguldoshlar deb nomlangan, chunki bu oilaga kiruvchi o‘simliklarning to‘pgullari murakkab soyabondan iborat. Barglari, asosan, murakkab, yon jinsli, aktinomorf, gulqo‘rg‘oni ikki doira hosil qilib o‘rnashgan. Gul bargchasiz, barg bandi kengayib, nov hosil qiladi hamda poyani o‘rab turadi. Oila vakillari efir moylariga boy hisoblanadi. Bu oilaga zira (Buniurn), qora zira (Carum carvi), kashnich (Coriandrum sativum), sabzi (Daucus), ukrop (Anethum), petrushka (Petroselinum sativum), kovrak (Ferula), arpabodiyon (Pimpinella anisum) kiradi. Turkum vakillari alkaloid, smola, asalli, sabzavot ekinlari, efir moyli o‘simliklar sifatida ahamiyatga egadir.[4]

Dorivor o‘simliklar tabiatimizda juda keng tarqalgan. Ulardan turli kasalliklarga qarshi kurashishda foydalanamiz. Ziradoshlar oilasi vakillari ham qadimdan o‘zining dorivorlik xususiyatlari bilan tanilib kelgan.

- the material and technical base of physical education and sports was strengthened;

- training and retraining of personnel in the field of physical education and sports was launched according to the national education program.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining —Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida gi Qonuni. Toshkent, 5 sentabr 2015 yil. 174 – son Xalq so‘zi gazetasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida PF-5368-son farmoni. 2018-yil 5-mart.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining — O‘zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF 5924 -son farmoni 2020-yil 24 yanvar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining — Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida PQ 3031-son qarori. 2017-yil 3-iyun.
5. D.K.Karimov “Complex-combined method of health training for middle age cyclists”. American journal of social and humanitarian research. USA.09.09.2022. p 18-20.
6. D.K.Karimov “Organizational and pedagogical conditions for the effective implementation of complex-combined methods of lessons in health physical culture”. American journal of social and humanitarian research. USA.09.09.2022. p 97-100.
7. D.K.Karimov, A.Karimov “Importance of effective tactical systems at football”. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 7 No. 12, 2019. ISSN 2056-585. 248-250 b.
8. Karimov A., Ernazarova Sh. “General physical training of handball players “Warsaw, Poland 2020.
9. A.Karimov “Tactical preparation of the handball goalkeeper” "Issues of the development of physical education and mass sport in the life of our people during the period of socio-economic changes in the renovating Uzbekistan" 2022 year 26-27 may.
10. D.K.Karimov, A.Yu.Atajanov “Futbol o‘yinidagi samarali taktik tizimlarni ahamiyati”. Ilmiy maqola. Educational Research in Universal Sciences. 2023 yil.
11. O‘.L.Matnazarov, D.K.Karimov “The body of football players reacts to climate conditions”. Tezis. POLISH SCIENCE JOURNAL. 2020 yil.

УДК 556.5:627.141.1

СЕЛ СУВ ОМБОРЛАРИНИ ЛОЙИХАЛАШ ВА ҚУРИШДА СЕЛ ОҚИМЛАРИНИНИНГ ЗИЧЛИГИ ВА СЕЛНИНГ ҚАТТИҚ ОҚИЗИҚЛАР БИЛАН ТЎЙИНИШ КОФФИЦЕНТИНИ АНИҚЛАШ

ТАҚУ т.ф.д. профессори, **Файзиев Хомитхон**

ТАҚУ магистрант **Раимқулов Эргаш**

АННОТАЦИЯ

Тақдим этилаётган мақолада Ўзбекистон Республикасининг, жумладан Фарғона водийсининг тоғ олди ва адир сойларида сел омборларини лойиҳалашдаги гидрологик ҳисобларда сел оқимларининг параметрларини аниқлаш натижалари келтирилган. Сел оқимининг зичлиги ва уни ҳисоблаш тенгламаси, селнинг қаттиқ оқизиқлар билан тўйиниш коффициенти ва уни ҳисоблаш масалалари баён этилган.

Калит сўзлар: сел, сел оқими, туб чўкиндилар, сел оқими зичлиги, тўйиниш коэффициенти, селхона селхона сув омбори, лёссимон грунт; суглинок; супесь; зилзилавий ҳудуд; намлик; оптимал намлик; вибрация; виброкаток; грунтнинг пластиклик сони; зичлик; динамик куч

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье рассматриваются вопросы определения некоторых параметров селевых потоков при проектировании селохранилищ в саях и реках предгорьях Узбекистана, в частности адырах Ферганской долине. Изложена плотность селевого потока и уравнения их расчетов, коэффициента селеносности от твердой фазы селевого потока и методы их расчётов.

Ключевые слова: лёссовый грунт; суглинок; супесь; сейсмическая зона; влажность; оптимальная влажность; вибрация; число пластичности грунта; плотность; динамическая сила.

ABSTRACT

This scientific article discusses the issues of determining some parameters of mudflows in the design of village storage facilities in the sai and rivers in the foothills of Uzbekistan, in particular the adyrs of the Ferghana Valley. The density of the

mudflow and the equations for their calculations, the coefficient of selenium from the solid phase of the mudflow and methods for their calculations are stated.

Keywords: loess soil; loam; sandy loam; seismic zone; humidity; optimal humidity; vibration; number of soil plasticity; density; dynamic force.

Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини ривожланишда янги босқич кузатилмоқда. Ҳозирда аграр хўжаликда янги ерларни, шу жумладан тоғ олди адир минтақаларни ўзлаштириш ишларини олиб борилиши бунга мисол бўла олади. Бу эса ўз вақтида ушбу ерларни, аҳоли яшайдиган пунктларни ҳавфли сел оқимларидан ҳимоя этишни талаб этади.

Сел ҳодисалари ва сел ташқинларини ҳосил бўлишидаги гидрометеорологик шарт – шароитлар, сел оқимлари кўрсаткичларининг миқдорий қийматларини аниқлаш, селлар прогнози ва селлардан ҳимоялаш каби тадқиқоти ишлари селлар гидрологиясининг асоси ҳисобланади. Селларнинг тадқиқоти халқ хўжалиги объектларини селлардан ҳимоялаш усулларини ишлаб чиқишда, селомборлар, сел ўтказувчи ва сел оқимини бошқарувчи муҳандислик иншоотларини лойиҳалашда ҳам амалий, ҳам назарий аҳамият касб этади.

Сел кузатиладиган дарёларда селдан ҳимояланиш мақсадида сел омборларини лойиҳалаш ва қуришда сел оқимининг аниқ миқдорий қийматларини билишлик талаб этилади. Борпо этиладиган иншоотнинг тури, ўлчами ва қолаверса унинг иқдисодий самарадорлиги, сел оқимининг ҳисобланган асосий миқдорий қийматларига боғлиқ бўлади.

Қатор муаллифлар Д.Л.Соколовский [10], Ю.Б.Виноградов [3], С.М.Флейшманом [15], И.И. Херхелидзе [16], Р.О.Тер-Миносян [12], Р.Т. Вафин [2], С.Х. Туляганов [13,14] ва бошқалар томонидан сел оқимини миқдорий қийматларини аниқлаш учун ўнга яқин ўтиш коэффициентлари, эмпирик ва назарий тенгламалар келтирилган. Таҳлиллар, ушбу тадқиқотларни ҳудудийлигини, олинган тенгламалар фақат шу регион учун қўлланишлигини ва бошқа минтақаларда ҳисоблашлар олиб боришда қўшимча изланишлар талаб этилишини кўрсатди.

Сел оқимининг зичлиги ва уни ҳисоблаш тенгламаси. Ҳажм оғирлиги билан белгиланувчи сел оқимининг зичлиги (ρ_c), сел оқимини иншоотга статик ва динамик таъсирини ўрганишда, ҳамда бошқа лойиҳалаш ишларидаги ҳисоблашларда зарур ҳисобланади. Ҳозирги кунда адабиётларда сел оқимини аниқлашда бевосита ва аналитик усуллари мавжуд бўлиб, шу билан бу йўналишлар юқорида қайд этганимиздек қўшимча оғир меҳнатли дала ўлчаш ишларини талаб этади [11,15].


Сел оқимининг зичлигини аналитик кўришиши қуйидаги ифодадага эга:

$$\rho_c = \rho_{в+} S_c (\rho_T - \rho_{в}), \quad (1)$$

бу ердар $\rho_{в+}$ сувнинг зичлиги; ρ_T - селнинг қаттиқ оқизикларининг зичлиги; S_c — сел оқимидаги қаттиқ материалларнинг концентрация ҳажми.

Бу тенгламадаги S_c миқдори қўйидагича аниқланади:

$$S_c = W_T / W_c. \quad (2)$$



1- расм. Фарғона водийсининг тоғ олди ва адир минтақаларининг сел ҳавзаларининг майдони (F) билан селнинг қаттиқ ҳажмининг концентрация коэффициентининг (S_c) боғланиши

Таҳлиллар, селдаги қаттиқ оқимнинг концентрация коэффициенти S_c ҳам сел ҳавзасининг майдони билан етарлича боғланганлигини кўрсатди (1-расм).

Ушбу боғланишнинг ифодаси ($r = 0,61$) қўйидаги кўринишни ҳосил қилади:

$$S_c = - 0,01 \ln(F) + 0,22. \quad (3)$$

(7)- ифодага (9) - қўйсақ сел оқимининг зичлигини ҳисоблаш тенграмасини келтириб чиқарамиз:

$$\rho_c = \rho_{в+} [-0,01 \ln(F) + 0,22] (\rho_T - \rho_{в}). \quad (4)$$

(6)- ифода билан ҳисобланган ва ўлчанган миқдорларнинг таққослашлар натижалари Е.К.Рыбкова [18] томонида келтирилган ($\rho_c = 1,09 \div 1,12 \text{ т\м}^3$) қийматларига мослигини кўрсатди.

Селнинг қаттиқ оқизиклар билан тўйиниш коэффиценти ва уни ҳисоблаш. Сел тошқинини ҳажмини аниқлашлар асосан ёмғир сувларидан ҳосил бўлган тошқинлар ҳажмининг ҳисобий миқдорларини, селнинг қаттиқ оқизиклар билан тўйиниш коэффицентига кўпайтириш орқали ҳисоблашларга асосланган. Бундай боғланишлар қуйидаги кўринишга эга:

$$W_{\text{сел}} = \psi W_{\text{сув}}, \quad (5)$$

бу ерда $W_{\text{сел}}$ - сел тошқинини умумий ҳажми, ψ – селнинг қаттиқ оқизиклар билан тўйиниш коэффиценти, $W_{\text{сув}}$ - селнинг суяқ ҳажми.

Селнинг қаттиқ оқизиклар билан тўйиниш коэффицентини ҳисоблашда И.И.Херхулидзе [16] томонидан қуйидаги боғланиш келтирилган:

$$\psi = \frac{1+\beta}{1+GK\beta}, \quad (6)$$

ифодада β – сел оқимидаги қаттиқ ҳажмини суяқ ҳажимга нисбати, G - грунтни келтирилган ғоваклиги, K – грунтларни сувга тўйиниш коэффиценти.

Тер-Миносаян [12] ушбу коэффицентни селларнинг ётқизикларининг ва оқимининг зичлиги орқали ҳисоблашни таклиф этган:

$$\psi = \frac{\rho_{\text{кт}} - 1}{\rho_{\text{кт}} + GK - \rho_{\text{с}}(1 + GK)} \quad (7)$$

бу ерда $\rho_{\text{кт}}$ - сел ётқизикларини зичлиги, $\rho_{\text{с}}$ - сел оқимининг зичлиги, GK – мос равишда грунтни келтирилган ғоваклиги ва – грунтларни сувга тўйиниш коэффиценти.


Ушбу коэффицент Фарғона водийиси учун Г.А.Мавлонов ва С.М.Қосимов [7] маълумотлари бўйича- 0,28, Арманистон учун- 0,39 [19] ва Грузия учун [16]- 0,50 тенг.

Селнинг қаттиқ оқизиклар билан тўйиниш коэффиценти Ўзбекистоннинг тоғолди ҳудудлари учун иншоотларни лойиҳалашдаги ҳисоблашларида $\psi = 1,30$ деб қабул қилиш амалиётга киритилган. Шу билан бирга С.Х.Тўляганов томонидан Андижон адирларида олиб борган ўлчаш ишлари натижасижа бу миқдор 1,29 дан 1,51 гача кузатилганлиги қайд этилган.


Ушбу коэффицентни Ўзбекистон республикасининг тоғолди ва адирлар минтақаларининг сел ҳавзалари учун содда ва шу билан бирга аниқ миқдорларини аниқлаш мақсадида, бу коэффицентига боғлиқ бўлган асосий омиллар орқали уларнинг математик усуллари ишлаб чиқишда, ҳавзанинг морфометрик кўрсаткичлари ва метеорологик элементлар қийматлари билан боғланишлари таҳлил қилинди.

Изланишлар шуни кўрсатдики, ушбу коэффицент ҳавзага ёққан ёмғирнинг жадаллиги


(2 -расм) ва ҳавзанинг қиялиги билан аналитик боғланмагаллиги (3 - расм) ва шу билан бирга ҳавзанинг майдони билан етарлича (боғланишлар коэффициент корреляцияси $r=0,62$) , боғланганликни кўрсатди (4-расм).



2-расм. Селларнинг қаттиқ оқизиклар коэффициентлари билан ёмғир жадалликлари боғланиши



3-расм. Селларнинг қаттиқ оқизиқлар тўйиниш коэффициенти билан ҳавзанинг қиялиги орасидаги боғланиши.



4-расм. Селларнинг қаттиқ оқизиқлар тўйиниш коэффициенти (ψ) билан ҳавза майдонининг (F) боғланиши

Математик ифодаси қуйидаги кўринишга эга:

$$\psi = 0,045\ln(F) + 1,395. \quad (8)$$

Келтирилган (8) тенгламани Фарғона водийсининг адир минтақаларининг сел ҳавзаларидаги селларнинг қаттиқ оқимини тўйиниш коэффициентларини ҳисоблашларда фойдаланиш тавсия этилади.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ: (REFERENCES)

1. Бакиев М.Р., Қодирова М.-Г.А. Селга қарши гидротехника иншоотлари. Дарслик, 2008 – 240 б
2. Вафин Р.Г. Исследования твердого стока селевых паводков Северной части Ферганской долины: Автореф.дис. канд.техн.наук. – Ташкент. 1978. – 28с.
3. Виноградов Ю.Б. Классификация селевых явлений. Селевые потоки. Сборник № 11.-М., 1980. С.46-51.
4. Гогошидзе М.С. Селевые явления и борьба с ними. – Тбилиси, 1970. – 385с.
5. Инструкция по определению расчётных характеристик дождевых селей: ВСН 03-76.-Л.:Гидрометеиздат, 1976. – 28с.

6. Исмагилов Х.А. Селевые потоки, русловые процессы, противоселевые и противопаводковые мероприятия в Средней Азии. Монография. Труды САНИИРИ. Ташкент. 2006.

7. Мавлянов Г.А., Касимов С.М. и др. Физико – химические, инженерно-геологические и сейсмические свойства лессовых пород Узбекистана. – Ташкент.: ФАН, 1978. – 255с.

8. Махкамов Б.Р., Туляганов А.Х., Мамедова К.З. Значение и расчет коэффициента селеносности в предгорных малых реках Ферганской долины // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2020. № 6 (75).

9. Мамедов, Д. Г. О. Основные факторы, влияющие на формирование селей, и их использование в разработке методики расчета наибольших расходов воды и взвешенных наносов, а также их изменчивости (в пределах Большого Кавказа Азербайджанской Республики) [№3 \(2013\): Географический вестник](#). с.67-77.

10. Соколовский Д.Л. Речной сток. – Л.: Гидрометеиздат, 1968. – 538с.

11. Степанов Б.С. К определению плотности селевых потоков. Селевые потоки. – М., 1977. Сб.№2. – с.79-83.

12. Тер-Миносян Р.О. Селевой паводок в бассейне р.Памбек-Дебед и определение объёмов селевых отложений. Эрозионные и селевые процессы и определение объёмов и борьба с ними. М., 1973, Вып.2, с 130-134

13. Туляганов А.Х, Салимова Б.Д. Автомобиль йўлларига сув ўтказувчи иншоотларни лойиҳалашда сув ва сел тошқинларининг тавсифларини ҳисоблаш. Тошкент, “Iqtisod–Moliya”, 2016.–156 б.

14. Тўлаганов А.Х., Тўлаганов С.Х. Селлар гидрологияси ва автомобиль йўлларини селлардан ҳимоялаш. Тошкент, “Iqtisod–Moliya”, 2014. - 96 б.

15. Флейшман С.М. Сели.-Л.: Гидрометеиздат, 1978. – 312с.

16. Херхелидзе И.И. Определение максимальных расходов объёмов твёрдого стока горных потоков. Гидротехника и мелиорация. М., 1954. №4. – с.43-50.

17. Шахидов А.Ф. Расчет максимальных расходов дождевых паводков.– Ташкент. 1995.-125 с.

18. Рыбкова Е.К. Исследование селевых потоков в предгорьях северной части Ферганской долины. Селевые потоки и меры борьбы с ними. – Москва: Изд.АН СССР., 1957. – с.190-199.

19. Цовян М.В. Ливневые селевые паводки на территории Арм.ССР и методика расчёта их основных параметров. Селевые потоки и горные русловые процессы. Сборник докладов на X Всесоюзной селевой конференции. – Ереван: Изд.АНАрм.ССР, 1968. – с257-271.

IMPROVING STUDENTS' READING COMPREHENSION THROUGH GRAMMAR -TRANSLATION METHOD

Abrueva Malika Zafarovna,

Teacher of the Department of English Integrated Course,
Institute of Foreign Languages, Samarkand, Uzbekistan

abruyevamali01@gmail.com

ABSTRACT

Reading is considered as an important part of language skill. It became vital in the process of learning a language. However, many researches showed that many learners have difficulties with this skill. This article is mainly aimed to identify the effect of reading comprehension improved through grammar translation method. A number of researches showed that there was significant improvement of the students' skill in reading comprehension through learning it with the help of grammar-translation method in which it was found out that the level improved from insufficient to good. This article shows how the usage of grammar-translation method can help to improve students' reading skill through some researches that were done in this field.

Keywords: grammar translation method, reading comprehension skill, literary passage

Introduction

Reading is considered as one of the crucial language skills that should be taught by the educators because through reading students are able to extend their knowledge, to get more information in certain fields and broaden their horizon. Pollard claims that reading is a good source of learning language. English teachers should teach reading intensively as it is one of the most important language skills.

Reading has many benefits for learners, because it has a positive effect on learners' vocabulary, spelling and even on their writing skill. The students' ability to understand a reading text depends on many factors such as learners' knowledge and ability, knowledge of a teacher, and physiological factors as attention, motivation, and interest of learners. As we know teaching reading has been done since elementary school. Indeed, many learners still find reading skill difficult to master especially in comprehending and answering the questions that related to the text.

Reading helps students appreciate foreign language literature. Richards states that grammatical competence refers to the knowledge we have of a language that

accounts for our ability to produce sentences in a language. It is believed that with the help of the study of the grammar of target language, learners will increase their knowledge about the target language grammar and it will positively effect on their speaking and writing skills in target language.

Reading is a fluent process of readers combining information from a text or their own background knowledge to build meaning. The goal of reading is comprehension. If students cannot understand the text that is given, then they cannot find the information that is in the text. Therefore, reading comprehension is necessary to support students' success in reading comprehension.

In fact, many linguists agree on the opinion that reading comprehension is a complex activity where the readers can get knowledge from the text both of information or message and new vocabularies. In addition, in order to understand text or a passage the readers need to find out the meaning or the correlation between the sentences that establish in the whole text. They can retell again the information that they have read depend on their knowledge, culture and background.

Larsen-Freeman gives general techniques that are closely connected with the grammar-translation method for the better comprehension of reading such as: translation of a literary passage by translating target language into source language, understanding the reading questions (finding information in a passage, making inferences and referring to personal experience), antonyms and synonyms (identifying antonyms and synonyms for words), cognates studying spelling of words, sound patterns similarities and differences between the native language and the language that is being learned, deductive approach to learning a language, fill in the blanks (completing the gaps in sentences with new words or particular grammar item), memorization (memorizing the lists of vocabulary, grammatical rules and grammatical paradigms), applying words in sentences (learners make up their own sentence in order to show that they know the meaning and usage of new words) and composition (learners write about a topic using the target language).

Many learners have difficulties in reading comprehension despite the fact that teaching reading has been developing for a long period of time. And as one of the methods that helps to solve this problem is grammar-translation method. It is known that the application of grammar translation method is needed to help teachers and students in teaching and learning reading comprehension. One of the experiences of this method is translating sentences.

The grammar-translation method is considered as old method of teaching a foreign language and had been used by numerous language teachers and it had variety of names. Once it was called the

Classical Method since that time it was first used in the teaching of the classical language, Latin and Greek. In the past this method was used with the goal of helping students read and appreciate foreign language literature. It was also hoped that through the study of the grammar of the target language, students would become more familiar with the grammar of their native language and that this familiarity would help them speak and read their native language better.

This method derived from traditional approaches to teaching grammar of Greek and Latin languages. In this approach the grammar rules of a language was being taught and was put into practice by translating sentences from a language that was being learned into the native language of learners. In this way students developed their ability to read literary texts.

According to the research that was carried in SMP Widya Suara Sukwati School in Bali it was concluded that students' ability in reading comprehension through grammar translation method was improved significantly. As a result of this research the students became more interested and more active in involving themselves in the classroom activities and improved their reading skill.

Another research was conducted among the students of 11th grade at one of the schools in Uzbekistan. The reason why the teacher decided to apply this method is because of some reasons such as the students' ability in reading comprehension was very low. The students had great difficulties to understand the reading text and answering the questions related to the text. Identifying the problems of 11th grade students, the English teacher decided to apply grammar-translation method, as method is known as classical method and proved its effectiveness in improving students reading skill. The results of this research showed that students' reading comprehension increased significantly and they also developed an interest to reading.

According to Timothy Shanahan, who is Distinguished Professor Emeritus of urban education at the University of Illinois at Chicago: "There is a lot of evidence showing the importance of grammar in reading comprehension. Studies over the years have shown a clear relationship between syntactic or grammatical sophistication and reading comprehension; that is, as students learn to employ more complex sentences in their oral and written language, their ability to make sense of what they read increases, too."

Conclusion

It is important for struggling readers to work on the grammar rules of the language that they learn, as knowing all of the aspects of grammar greatly helps to comprehend a reading text. Researches given in this article proved that the application of grammar-translation method in the process of teaching and learning a foreign language greatly improve the reading comprehension of learners and increase their interest to learning a

language as knowing grammar rules make easier to comprehend reading texts. Thus, for teachers whose learners struggle with comprehending texts it is advisable to conduct their lessons with the application of grammar-translation method.

REFERENCES

1. Brown, H. D. (2004). *Language Assessment Principles and Classroom Practices*. New York: Wesley Longman, Inc.
2. Harmer, J. (2007). *How to Teach English*. London: Cambridge University Press.
3. Larsen-Freeman, D. (2000). *Techniques and Principles in Language Teaching (Second Edition)*. New York: Oxford University Press.
4. Linse, C. T. (2005). *Practical English Language Teaching: Young Learners*. New York: the McGraw-Hill Companies, Inc.
5. McNamara, D.S. (2007). *Reading Comprehension Strategies*. USA: Lawrence Erlbaum Associates, Inc.
6. Pollard, L. (2008). *Guide to Teaching English*. London: Lucy Pollard.
7. Richards, J. C. & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching (Second Edition)*. New York: Cambridge University Press.

ELEKTR ENERGIYA SAPASIN ELEKTR ENERGIYA ISIRAPINA TÁSIRIN ÚYRENIW HÁM HARAKTARISTIKALAW

Paxratdinov Asamatdin Djoldasbaevich¹,

Abdiramanova Zamira Uzakbaevna¹

Nókis kánshilik institutı

ANNOTATSIIYA

Usı maqala elektr energiyası sapa kórsetkishlerin elektr energiyası ısırapına tásiri, texnikalıq, texnologiyalıq hám kommerciyalıq ısırapları haqqında hám de olardı bir birine baylanıslığı, kelip shıǵıw sebepleri hám olardı kemeytiriw usılları haqqında maǵlıwmatlar keltirilgen.

Gilt sózler: Texnikalıq ısırap, texnologiyalıq ısırap, kommerciyalıq ısırap, simmetriyalıq emes, sinusoidallıq emes, teris izbe-izlik, nol izbe-izlik.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о влиянии показателей качества электроэнергии на потери электроэнергии, технические, технологические и коммерческие потери, а также их взаимозависимость, причины и пути их снижения.

ANNOTATION

This article provides information on the impact of power quality indicators on power losses, technical, technological and commercial losses, as well as their interdependence, causes and ways to reduce them.

Kernew hám shastotaniń aǵıwı, kernew hám toklardıń sinusoidallıq emes hámde simetriyalıq emes sıyaqlı elektr energiyası sapa kórsetkishleri elektr tarmaqlarınıń quwat hám elektr energiyası ısıraplarına tásir etedi.

Ámeliyatda ısıraplardı ΔW texnikalıq, texnologiyalıq hám kommerciyalıq ısırapları menen esaplanadı.


Esaplarda ısıraplar, tarmaqqa jetkezip beriletuǵın elektr energiyası hám tarmaqtan shıǵarılǵan hám de tutınıwshı tárepinen tólengen elektr energiyası ortasındaǵı parq retinde anıqlanadı.

Texnikalıq ısırapı ΔW_t , podstansiyaning óz mútajlik tutınıwı $\Delta W_{\text{ózm}}$, sebepli ısıraplar hám ólshew ásbapları qátelerinen $W_{\text{ólshaq}}$ kelip shıǵatuǵın texnologiyalıq ısıraplardı payda etedi, sebebi olar tarmaqlar arqalı elektr energiyasını uzatıw

procesiniñ texnologiyalıq mütájlikleri jáne onı qabıllaw hám de tutınıwshılardı uzatıwda ólshew ásbapları járdeminde esapqa alıw menen belgilenedi.

Kommerciyalıq ısırapı $\Delta W_k = \Delta W - \Delta W_t - \Delta W_{\text{ózm}} - W_{\text{ólshaq}}$ ға teń bolıp, "insan faktori" tásiriniñ nátiyjesi esaplanadı, elektr energiyasın urlaw, tutınıw qilingan energiyani tólewin tolıq yamasa yarımın tólemeslik hám basqalar menen baylanıslı ısıraplardı óz ishine aladı.

Texnologiyalıq ısıraplarda elektr úskeneleri hám ólshew qurallarınıñ jumıs rejimlerinde nominal yamasa normalastırılğan ağıwlar sebepli qosımsha komponentler shártli túrde anıqlanıwı múmkin. Bul ısıraplarğa alıp keletuğın faktorlardan biri bul elektr energiyasınıñ sapası bolıp tabıladı. Sinusoidallıq emes hám simmetriyalıq bolmağan rejimlerde qosımsha texnologiyalıq ısıraplardı ólshewdiñ mánisi hám principlerini túsiniw ushın sistemadağı quwat balansın esapqa alıw gerek. 1 - súwretde sapanı buzıwshi hám "tınısh" júklemelerdi óz ishine alğan elektr sistemasınıñ ápiwayılastırılğan sxemasın kórsetilgen. Bul sxemağa muwapıq, sapanı buzıwshi júklemeni ma'nisin retlew múmkinshilikli ayırıqshalıqlarğa iye júkleme retinde kórip shıǵıw gerek. Ol tuwrı izbe-izliktiñ tiykarǵı shastotasında elektr energiyasın tutınıw qilip, onıñ bir bólegin sapanı buzıwshi energiyasına (teris hám nol izbe-izliklerdiñ garmonikalarına) aylantıradı hám onı tarmaqqa qaytarıp uzatadı, bul bolsa qosımsha ısıraplarğa alıp keledi.



1-súwret. Sapanı buzıwshi júkleme bolǵanda aktiv quwatlardıñ baǵdarlar sxeması.

Z_{sis}, Z_{Y1}, Z_{Y2} - energiya sistemasındaǵı tınısh hámde sapanı buzıwshi júklemelerdi uqsas túrdegi qarsılıqları; $P_{as.T}, P_{as.Y1}, P_{as.Y2}$ - energiya sistemasınıñ tınısh hám sapanı buzıwshi júklemelerin tiykarǵı shastotadağı tuwrı izbe-izlik quwatlarınıñ uqsas mánisleri; $P_{sbuz.C}, P_{sbuz.Y1}, P_{sbuz.Y2}$ - sapanı buzıwshi tutınıwshılardı uqsas haldağı aktiv quwatları, elektr energiyası sisteması elementlerinde sapanı buzıwshi elementlerdi jumıs rejimlerin retlew ısıraptı kemeytiwge alıp keledi.

Quwat qurawshıları tok hám kernewlerdi joqarı garmonikasın hám simmetrikalıq qurawshıları menen anıqlanadı :

Tórt ótkizgishli sistema ushın (faza tokları hám kernewleri)

$$P_1 = 3U_1I_1 \cos \varphi_1, P_2 = 3U_2I_2 \cos \varphi_2, P_0 = 3U_0I_0 \cos \varphi_0 ;$$

$$P_{n\Sigma} = \sum_{ABC} \sum_{n=2} 3U_nI_n \cos \varphi_n$$

Úsh ótkizgishli sistemalar ushın (liniya tokı hám kernewleri)

$$P_1 = \sqrt{3}U_1I_1 \cos \varphi_1, P_2 = \sqrt{3}U_2I_2 \cos \varphi_2 ;$$

$$P_{n\Sigma} = \sum_{n=2} \sqrt{3}U_nI_n \cos \varphi_n$$

Ísıraplardı esaplaw hám analiz qılıw simmetriyalıq bolmağan qurawshılardıń garmonikalıq yamasa izbe-izliginiń sáykes keletuǵın shastotasında ámelge asırıladı. Quwattıń aktiv quraytuǵın elektr energiyasınıń basqa energiya túrlerine aylanıwın xarakteristikalaydı hám úsh fazalı sistemada sinusoidallıq emes hám simmetriyalıq bolmağan toklar hám kernewler ushın tómendegilerge teń:

$$P_{\Sigma} = P_1 + P_{n\Sigma} + P_2 + P_0$$

Shama menen oylayıq, joqarı garmonikalıqlar energiyası teris hámde nol izbe-izlilikde hesh qanday paydalı jumıs atqarmaydı. Keyin sinusoidallıq emes, simmetrikalıq bolmağan toklar hám kernewlerge iye bolǵan elektr tutınıwshılar yamasa elektr sistemasınıń bir bólegi ushın qosımsha quwat ısırapları, sapanı buzıwshi quwatlardı jıyındısına teń hám ol tómendegi ańlatpa menen anıqlanadı:

$$\Delta P_{qos} = P_{n\Sigma} + P_2 + P_0$$

Qarsılıǵı r bolǵan sistemadaǵı aktiv quwat ısırapı ΔP_n qollanılatuǵın kernew ma'nisine baylanıslı.

$$\Delta P_n = \frac{P^2 + Q^2}{U^2} r$$

Bul jerde R hám Q - tarmaq elementiniń uzatılıp atırǵan aktiv hám reaktiv quwat.

Salt islew jaǵdayındaǵı quwat ΔP_x aktiv ótkizgishlikke iye bolǵan elementindegi ótkizgishlik g arqalı tómendegi ańlatpadan tabıladı.

$$\Delta P_x \approx U_v^2 g$$

Bul jerde U_v - tarmaq elementiniń kernewi (liniya kompensatsiyalaytuǵın qurılma hám basqalar) yamasa joqarı tárepdegi kernew (transformatordıń).

Aqırǵı eki ańlatpadan kelip shıǵadı júkleme sebepli payda bolatuǵın ısıraplardı kemeytiw ushın kernew ma'nisin asırıw ekinshi jaǵdayda bolsa salt jumıs jaǵdaydaǵı júklemeni ma'nisin kemeytiw kerekligini kóriwimiz múmkin.

Arnawlı bir elektr energetika sisteması ushın minimal ısıraplarǵa sáykes keletuǵın optimal kernew mánisleri onıń barlıq kernew klassları tarmaqlarınıń dúzilisi hám jumıs

rejimlerine baylanisli. 110 kV kernewli tarmoqlarda júkleme ısrapları, salt jumıs rejimi ısrapları hám ıqlımlıq ısraplar jıyındısı menen salıstırılğanda birinshi ısrap joqarılaw, 6 - 35 kV li kernewli tarmaqtağı salt jumıs rejimi ısrapı hám ıqlımlıq ısraplar, júkleme ısrapalarına qarağanda joqarılaw bolıp tabıladı. Sonday etip, elektr energetikası sistemasınıń tarmoqlarında kernewdi retlew boyınsha ilajlardı islep shıǵıw, olardağı ısraplardı quramın esapqa alğan halda ámelge asırılıwı kerek.

Sinusoidallıq emes 5% ten kem bolğan tarmaqtağı qosımsha texnikalıq ısraplar áhmiyetsiz hám KU koefficiyentiniń 7-15% ge shekem kóteriliwi menen joqarı garmonikadan ısraplar 10 -12% ga jetiwi múmkin. Elektrlastırılğan temir jol transportı tarmoqlarında joqarı garmonikadan aktiv quwattıń qosımsha ısrap dárejesi tiykarǵı shastotadağı ısraplardıń 10 -15% ge shekem bolıwı múmkin. Elektr támiynatı sistemasında elementlerdegi joqarı garmonikadan eń joqarı mánistegi ısraplar rezonans rejimlerinde júz beredi.

Kernew simetriyalıq emes elektr tarmaǵınıń barlıq elementlerinde quwat hám elektr energiyası ısrapınıń asıwına alıp keledi, bul bolsa teris hám nol izbe-izlik toklarınıń aǵımı menen baylanisli. Sonday etip sapa kórsetkishleri tómen bolğan elektr energiyasın uzatılıwı bólistiriw hám tutınıw etiw qosımsha elektr energiyasın ısrapın keltirip shıǵarıwın esapqa alıw kerek.

Juwmaqlap aytqanda 6-10 kV lı elektr tarmoqlarda kernew ısrapları 5% ten joqarı bolmawı, eger ısrap asıp ketetin bolsa kondensacion batareyalardı tańlaw kerek boladı.

PAYDALANILĞAN ÁDEBIYATLAR

1. Афанасенко, А. С. Оценка влияния потребителей и энергоснаб-жающей организации на искажение напряжения в точке общего присоединения / А. С. Афанасенко, Д. С. Федосов // Вестник Иркутского государственного технического университета. – 2011. – № 11(58). – С. 190-193.
2. Железко Ю. С. Потери электроэнергии. Реактивная мощность. Качество электроэнергии: Руководство для практических расчётов. – М.: ЭНАС, 2009. – 456 с
3. Железко Ю. С. Новые нормативные документы по условиям потребления реактивной мощности // Энергетик. 2009. № 1. С. 41–43.
4. Воротницкий В. Э. Норматив потерь электроэнергии в электрических сетях // Новости электротехники. 2003. № 6. С. 50–53.
5. Железко Ю. С. Нормирование технологических потерь электроэнергии в сетях. Новая методология расчета // Новости электротехники. 2003. № 5 (23). С. 23–27.
6. Грачёва Е. И. Анализ потерь электроэнергии систем цехового электроснабжения / Е. И. Грачёва, Н. А. Копытова // Проблемы энергетики. 2011. № 9 -10. С. 78–85.

AMIR TEMUR HARBIY SALOHİYATDA JAHONGA MASHHUR SARKARDA

Nurmov Olimjon Basharatovich

O‘zbekiston milliy universiteti harbiy
Tayyorgarlik o‘quv markazi katta o‘qituvchisi

АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada O‘zbek xalqi - tarixiy ildizlari deyarli uch ming yillikka borib taqaluvchi davlatchilik an‘analariga ega bo‘lgan xalkdir. Mamlakatimiz zaminidan nafaqat ulug‘ alloma zotlar, balki jahon ijtimoiy-siyosiy hayoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan sarkarda, hukmdor, davlat arboblari yosh avlodni ma‘naviy tarbiya hamda yangicha dunyoqarash asosida kamol toptirish, hozirgi taraqqiyot bosqichida nafaqat yoshlar, balki jamiyatimizning barcha a‘zolari orasida vatanparvarlik, ona yurtga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini yanada mustaxkamlash muhim masala ekanligi yoritilgan.

Таянч иборалар: Тарих цивилизация, салтанат, Амир Темур, Марказиё Осиё, Movarounnahr, Маънавият, тарбия, ватанпарварлик, садоқат, миллий ғоя, бурч, муҳаббат, ҳурмат, иймон-эътиқод, таффақкур.

АМИР ТЕМУР ВСЕМИРНО ИЗВЕСТЕН В ВОЕННОМ ВЛАСТИ В АРМИИ

АННОТАЦИЯ

В этой статье узбекский народ - это народ, исторические корни которого уходят почти в три тысячелетия с традициями государственности. Не только выдающиеся ученые, но и полководцы, правители, государственные деятели, внесшие огромный вклад в развитие мировой общественно-политической жизни, внесли большой вклад в духовное воспитание и воспитание подрастающего поколения на основе нового мировоззрения, дальнейшее укрепление чувства патриотизма, любви и преданности родному краю не только среди молодежи, но и среди всех членов нашего общества на современном этапе развития что освещено.

Ключевые слова: История, цивилизация, царство, Амир Темур, Средняя Азия, Movarounnahr, Духовность, образование, патриотизм, верность, национальная идея, долг, любовь, уважение, вера, мышление.

Tarixdan ma'lumki, sivilizatsiyalar katta saltanat xududlarida, iqtisodiy va mintaqaviy barqarorlik humk surgan, uzoqni ko'ra oladigan, xalq farovonligi yo'lida jiddu jahd ko'rsatgan, ilm-fan homiysi bo'lgan davlat rahbarlari davrida yaratilgan. Barchamizga ma'lumki, Sharq va G'arb savdo yo'llari chorrahasida joylashgan, asrlar davomida o'troq ziroatkor va ko'chmanchi chorvador aholi o'rtasida mutanosiblik va mushtaraklik mavjud bo'lgan, qator bosqinlarni boshidan kechirganligiga qaramasdan o'zligini, vatanparvarligini saqlab qolgan, kulay jo'g'rofiy maskan sifatida ko'plab dinlar, madaniyatlarga joy bergan, jasur va bag'rikeng, ikkinchi tomondan zahmatkash va mehnatsevar aholisiga ega bo'lgan o'zbek zamini bashariyat tamadduniga katta hissa qo'shgan hududlardan biri bo'lib hisoblangan. Mazkur ko'hna zamindan jahon ilm-fani, madaniyati rivojiga bekiyos hissa ko'shgan qator alloma, olim, ulamolar yetishib chiqqan.

O'rta asrlar Sharq tarixida aynan ushbu hudud aksariyat davlatlarga beshik sifatida geosiyosiy maydonda muhim mavqega ega bo'lib kelgan. Zero Movarounnahr zamini bir vaqtning o'zida musulmon sharqida ham ma'naviymadaniy, ikkinchi tomondan siyosiy va iqtisodiy markazlardan biri rolini xam o'taganligini jahon ilm axti hakli tarzda e'tirof etadi.

O'zbek xalqi - tarixiy ildizlari deyarli uch ming yillikka borib taqaluvchi davlatchilik an'alariga ega bo'lgan xalkdir. Mamlakatimiz zaminidan nafaqat ulug'alloma zotlar, balki jahon ijtimoiy-siyosiy hayoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan sarkarda, xukmdor, davlat arboblari ham yetishib chiqqan. Shubhasiz, ular orasida peshkadamlik millatimiz faxri va g'ururi bo'lmish Sohibkiron Amir Temurga tegishlidir.

Amir Temurning yoshligi haqida ma'lumotlar kam uchrasa-da, ayrim manbalarga qaraganda, u yoshligida xat-savod chiqarib, o'z davrining tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, me'morchilik, tarix hamda xarb ilmlarini o'rgangan. Amir Temur bilan suhbatlashish sharafiga muyassar bo'lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldun jahongir turk, arab, fors xalqlari tarixini, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning murakkab jihatlarigacha yaxshi o'zlashtirganini ta'kidlagani ham bejiz emas.

Tarix zar varoqlariga nazar tashlasak Amir Temur siyosat maydoniga kirib kelgan paytda, Movarounnahr mo'g'ullar istibdodi ostida bo'lib, Chingizxon va Botuxon bosib o'tgan shahar va qishloqlar vayronaga aylangan edi. Suv inshootlari buzib tashlangan yoki ishga yaroqsiz holga keltirilgan, Chingizxon Movarounnahrni o'zining ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonga suyurg'ol sifatida in'om qilgan edi.

Amir Temur bobomizning xarb ilmini, o'zining ilk harbiy faoliyatini qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan; ularning o'zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko'rsatgan, janglarda chiniqqan, harbiy mahoratini oshirgan. Dong'i butun Qashqadaryo vohasiga yoyilgan. Amir Temurning aqlu

zakovati, shijoati va shuhrati uni Movarounnahrning nufuzli amirlaridan amir Xizr Yasovuriy va amir Qazag'on bilan yaqinlashtirdi. Xondamirning yozishicha, otasi Amir Tarag'oy Amir Temurni avval 1355 yilda amir Joku barlosning qizi Nurmushk og'oga, so'ngra o'sha yili Qazag'onning nabirasi va amir husaynning singlisi O'ljoy Turkon og'oga uylantiradi. Keyingi nikoh tufayli Amir Temur bilan Balx hokimi amir Husayn o'rtasida ittifoq yuzaga kelib, ular birgalikda mo'g'ullarga qarshi kurashadilar.

XIV asrning ikkinchi yarmi XV asr Vatanimiz tarixida voqealarga nihoyatda boy tarixiy ijtimoiy saboq davri hisoblanadi, chunki bu davrda mo'g'ullar hukmronligi va feodal tarqoqlik tugatilib, bosqinchilarning vayronagarchiliklari va bir yarim asrlik zulmlari oqibatida iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy turg'unlik holatiga tushib qolgan mamlakatimiz o'z mustaqilligini qayta tiklashga kirishdi. Bu mintaqada Amir Temur (1336-1405 yillar) boshchiligida yagona tug' ostida markazlashgan, kuchli va mustaqil davlat tashkil topdi. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan bu tarixiy jarayonda shubhasiz Sohibqiron Amir Temurning xizmatlari buyukdir.

Bu aqlli va bilimli inson o'z davlatining kuch-qudratini oshirish va mustahkamlash uchun birinchi navbatda harbiy va eng muhim iqtisodiy islohotlar o'tkazdi. Bu islohotlar zaminida avvalgi davr donishmandlarining aql-idroki, g'oyalari mujassam edi, ayniqsa, taraqqiyot uchun yagona davlat, o'zaro totuvlik, ishbilarmonlarga qulay mulkiy va huquqiy sharoit yaratishga, ayniqsa savdo-sotiqni rivojlantirishga alohida e'tibor berildi.

Amir Temurning hayoti va faoliyatida ikki davr yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi davri (1360-1385) Movarounnahrni mo'g'ul xonligidan ozod qilib, yagona markazlashgan davlat tuzish, o'zaro urushlarga barham berish. Ikkinchi davri (1386-1405) esa ikki yillik, uch yillik, besh yillik, deb ataluvchi boshqa mamlakatlarga yurishlari bilan xarakterlanadi.

1360-yillardan boshlab Amir Temur Movarounnahrdagi ichki nizo, urushlarda ishtirok eta boshladi va Mo'g'uliston hukmdori Tug'luq Temurxon, uning o'g'li Ilyosxo'jaga qarshi kurashlardan so'ng, Amir Husayn ustidan g'alaba qozongach, 1370 yilda Movarounnahr taxtining haqiqiy sohibi bo'ldi va Samarqandni hokimiyat poytaxti etib belgiladi.

Amir Temur taxtga o'tirgach, Chig'atoy ulusining barcha yerlariga o'zini voris deb bildi va Sirdaryoning quyi havzasidagi yerlarni, Toshkent viloyatini, Farg'ona vodiysini, Xorazmni o'z hukmronligi ostiga kiritdi. Natijada, Movarounnahr va Xurosonda yirik markazlashgan davlat vujudga keddi. Sohibkiron so'nggi yillarda Eron, Iroq, Zakavkaze mamlakatlari, Hindiston, Oltin O'rda va Turkiya bilan bo'lgan janglarda g'olib chiqib, saltanat hududini sharqda Xitoy devoriga qadar, g'arbda O'rta yer dengiziga, janubda esa Hindiston chegaralariga qadar kengaytirdi.

Amir Temur faoliyatida muayyan siyosiy yo‘l mayda feodal hukmronligini tugatish, muhim xalqaro karvon yo‘llarida ustunlik qilib turgan Oltin O‘rda, Eron va boshqa mamlakatlarning raqobatini yengib, Movarounnahrning siyosiy-iqtisodiy quvvatini ta‘minlay oladigan markazlashgan davlat tashkil etish edi. Amir Temur avvalambor mamlakatda davlat tizimini mustahkamlash, boshqarishdagi tartib-intizom, qonunchilikni kuchaytirish, savdo-sotiq, hunarmandchilikni kengaytirishga imkoniyat yaratish, soliqlarni tartibga solish, mamlakat himoyasini ta‘minlash yo‘lida qo‘shining qudratini oshirish kabilarga katta e‘tibor berdi.

Amir Temurning har bir harbiy yurishiga turtki bo‘larlik sabab bor edi. Bu sabablar-o‘z davlatining chegaralarini mustahkamlash, tashqi dushmanlardan himoyalanih, karvon yo‘llarini turli yo‘lto‘sarlardan tozalash, xiyonatchi, sotqin, aldanchilarni jazolash, bo‘ysunmaganlarni itoat ettirish, o‘zining siyosiy ta‘sirini kengaytirish kabilardan iborat bo‘lganligini tarixiy manbalardan bilib olish mumkin. Masalan, Amir Temurning To‘xtamishxonga qarshi yurishini olsak, Temur To‘xtamishxonga ko‘p iltifotlar, yordamlar ko‘rsatib, 1379 yilda Urusxonni yengib, Oq O‘rda taxtiga To‘xtamishxonni o‘tqazgan edi. Ammo To‘xtamishxon Amir Temurning umidlarini puchga chiqardi.

U Movarounnaxrga bir necha bor talonchilik niyatida bostirib kirganidan so‘ng, Temurda ham unga qarshi kurashish majburiyati vujudga keddi va 1395 yil 15 aprelda qunduzchada Amir Temur bilan To‘xtamishxon o‘rtasida hal qiluvchi hayot-mamot jangi boshlandi. Jang faqat To‘xtamishxonning taqdirini hal qilib qo‘yaqolmay, balki butun Oltin O‘rda taqdirini ham hal qildi.

Tarix Temur zimmasiga Oltin O‘rdadek qudratli mo‘g‘ul imperiyasining asosini yemirishdek ulkan vazifani qo‘ygan ekan, Sohibqiron bu vazifani ham buyuk jasorat bilan ado etib, Rus knyazliklari va Sharqiy Ovro‘po xalqlarini mo‘g‘ullar asoratidan xalos bo‘lishlariga yo‘l ochib berdi. Yirik rus olimi A. Yu. Yakubovskiy: Temurning To‘xtamish ustidan qozongan bu g‘alabasi nafaqat Markaziy Osiyo va Sharqiy Ovro‘po, balki Rusiya uchun ham katta ahamiyatga molik bo‘ldi, deb yozdi.

Temur davlatni boshqarishga katta e‘tibor berib, yangi davlat tizimi bo‘yicha Devoni buzrugdan tashqari, har bir viloyatda Devon deb ataluvchi boshqarma tuzib, bu boshqarmalar soliq yig‘ish, tartib saqlash, ijtimoiy binolar bozorlar, hammomlar, yo‘llar, sug‘orish tarmoqlariga qarab turish va aholining xulqiy-axloqiy harakatlarini nazorat ostiga olish kabi ishlar bilan shug‘ullangan. Har bir Devonda kirim va chiqimlarni hisobga olish, qayd etish turk-o‘zbek va fors-tojik tillarida olib borilgan.

Temur tarixchilar tasviricha, O‘rta asrning atoqli davlat va xarbiy arboblardan bo‘lib, Ovro‘po olimlari o‘z asarlarida uning salbiy tomonlari bilan birga muhim fazilatlarini ham ta‘kidlab o‘tganlar. Nemis olimi F. Shlosser o‘zining Jahon tarixi (III-tom) asarida: Baxtiyor jangchi, jahongir, uzoq Sharqda qonunshunos bo‘lish bilan

birga o'zida, Osiyoda kam uchraydigan taktik va strategik bilimlarni ifodaladil, deb yozsa, atoqli nemis olimi va tarixshunosi M. Veber: Temur o'z dushmanlariga nisbatan juda berahm edi, lekin sarkardalik, davlatni boshqarish va qonunchilik sohasida buyuk talantga ega edil, deb ta'riflaydi. Shuningdek, Tuzuki Timur tuzuklarida ham Temurning jamiyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qarashi, birlashgan qudratli feodal davlatning siyosiy va axloqiy qoidalari haqida gap boradi.

Temur tuzuklarida davlat tizimi, davlatdagi turli lavozimlarning vazifasi, undagi turli toifalar va ularga munosabat, davlatni boshqarishga asos bo'lgan qoidalar, qo'shinlarning tuzilishi, tartibi, uni boshqarish, ta'minlash, rag'batlantirish, qo'shin turlarining tutgan o'rni va o'zaro munosabati kabi masalalar bayon etiladi. Davlat ishlarini har doim islom va shariat hukmlari asosida olib borilganligi bir necha bor ta'kidlanadi. Saltanatim martabasini, deb ta'kidlaydi Amir Temur, qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki, saltanatim ishlariga aralashib, ziyon yetkazishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdil. Bundan tashqari, asarda jamiyat ishlaridagi odamlarning 12 toifaga bo'linishi, saltanatni boshqarishda 12 qoidaga amal qilinganligi, saltanat 4 qat'iy qoidaga asoslanishi kabi masalalar ham tartib bilan bayon etilgan.

Amir Temur harbiy salohiyatda jahonga mashhur sarkarda va o'z zamonasining eng qudratli hukmdori bo'lishi bilan birga, uning harbiy nazariyasi va amaliy harbiy san'ati, taktika va strategiyasi, armiya tarkibining tuzilishi o'z davrining nodir mo'jizasi edi. Uning harbiy mahorati turli yo'nalishlarda askariy qismlarni qayta tashkil etishda, dushmanga hujum kilihda turli-tuman usullardan foydalanishda, hujumdan oldin dushman joylashgan yerlarni obdon o'rganib chiqishda, ham lashkarboshi qo'mondonlikda namoyon bo'ldi.

Temur tuzuklarini inglizchadan fransuz tiliga tarjima qilib, 1787 yilda nashr etgan fransuz olimi Lyangle Temur haqida shunday yozadi: Temur xon (Temur) siyosiy va harbiy taktika haqida risola yozgan va o'z avlodlariga juda dono tizim qoldirgan. Biz buni tasavvur ham qilmagan edik va uning urushlarini bosqinchilik va talon-taroj qilish deb baholab kelgan edik. Deyarli yengib bo'lmaydigan ikki to'siq - bizdagi taassub hamda tarixiy nohaqlik Temurni bilishimizga va to'g'ri baholashimizga xalaqit berib keldi.

Amir Temur o'zini mohir diplomat sifatida ham namoyon qilaolgan. Uning Vizantiya, Venesiya, Genuya, Ispaniya, Fransiya, Angliya, boshqacha aytganda, o'sha vaqtda ko'proq ma'lum va mashhur bo'lgan Ovro'po davlatlari bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatish va uni musahkamlash sohasidagi faoliyatini fransuz va ingliz qirollarining unga yozgan maktublari bilan dalillash mumkin.

Manbalarda sohibqiron Amir Temur yorqin xislatlarga ega ekanligi, xotirasi o'tkir, shijoatli va qat'iyatli, birso'zli, zo'r ruhiy qudrat egasi, salobatli inson sifatida ta'riflanadi.

Sobiq sovetlar mafkurasi, proletar dunyoqarashi hukmronlik qilgan sharoitda Temur faoliyatiga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lindi, o‘sha davr adabiyotlarida har doim qoralanib kelindi. Lekin mafkuraviy to‘siq, taqiqlashlarga qaramay ayrim ilmiy asarlarda Temur haqida ba’zi to‘g‘ri fikrlar ham bildirildi.

Bu jihatdan O‘zbekistonda 1968 yili akademik I. M. Mo‘minovning Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli risolasining nashr etilishi muhim voqea bo‘ldi. Risola Temur shaxsiga biryoqlamali qarashlarga qarshi yozilgan ilmiy asar sifatidagi dastlabki urinish edi. Lekin bu qadam Moskvadagi yuqori idoralar va matbuot organlari tomonidan qoralandi va asar muallifi benihoya aziyatlar cheqdi.

Xotima o‘rnida quyidagi jumlagga e‘tibor qaratsak: Amir Temur bobomizning XIV asrdayoq Kuch - adolatda shiorini davlat siyosati mavqei darajasiga olib chiqdi va umri davomida bu shiorni o‘ziga dasturul amal deb bildi. Bu axloqiy-ma‘naviy mezon hamma davrlar uchun e‘tiborli bo‘lib, hozirgi kunga kadar insoniyat hayotida dolzarb ahamiyat asb etib kelmokda. U harbiy san‘at, soliq siyosati, raiyatga munosabatda, o‘z davlat boshqaruvi tizimida, ko‘l ostidagilarga munosabatda ham ushbu tamoyilga qat‘iy amal qildi. Amir Temur o‘z hukmronligi davrida mutaassiblik, ayirmachilik, mazhabchilik ko‘rinishlariga yo‘l bermadi. Osoyishtalik, tinchlik xotirjamlik, xavfsizlik borasida ahamiyatga molik ishlarni amalga oshirdi. Bu xususda Sohibkiron, ...saltanatimning u chetidan bu chetigacha biror bolakay boshida bir savat tilla ko‘tarib o‘tadigan bo‘lsa, bir donasiga ham zarar yetmaydigan tartib-intizom o‘rnatdim, deya qayd qilgan edi. Barcha sohalarga birdek e‘tibor, ijtimoiy adolat tamoyili, yuksak vatanparvarlik, tadbirkorlikning rivojlanishidan manfaatdorlik, umuman obod turmush konsepsiyasi Amir Temur siyosatining natijasi sifatida ikkinchi Renessansga asos bo‘lib xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR

1. Odilov A.A. Amir Temur tuzuklari – davlat boshqaruvi asosi-T.: «Fan va tenologiya», 2016.
2. Nurmatova N. Amir Temur o‘gitlarining barkamol avlodni shakllantirishdagi o‘rni-T.: «Texno tasvir», 2019.
3. O‘ljaeva Sh.M. Amir Temur va temuriylar davrida buyuk ipak yo‘li.-T.: «Tamaddum», 2020.

YENGIL SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI OPTIMAL TASHKIL ETISHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING ROLI

Eshonqulov Javohir Sobirovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti izlanuvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada yengil sanoat ishlab chiqarish tizimida nazorat faoliyati shaklining, uni optimal tashkil etish darajasining, usul va texnologiyalar to'g'ri tanlovining mahsulot ishlab chiqarish tizimining sifatiga ta'siri tahlil qilingan. Umumiy holda sanoat korxonalarini faoliyatini optimallashtirish masalasini yechishda ekonometrik modellashtirishning roli va zaruriyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: yengil sanoat, boshqarish tizimi, ekonometrik model, klaster, ishlab chiqarish.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется влияние формы контрольной деятельности в производственной системе легкой промышленности, уровня ее оптимальной организации, правильного выбора методов и технологий на качество производственной системы продукции. В целом разъясняется роль и необходимость эконометрического моделирования в решении вопроса оптимизации деятельности промышленных предприятий.

Ключевые слова: легкая промышленность, система управления, эконометрическая модель, кластер, производство.

ABSTRACT

The article analyzes the influence of the form of control activity in the production system of light industry, the level of its optimal organization, the correct choice of methods and technologies on the quality of the production system of products. In general, the role and necessity of econometric modeling in solving the issue of optimizing the activities of industrial enterprises is explained.

Key words: light industry, management system, econometric model, cluster, production.

Yengil sanoat tarmog'i og'ir sanoatga qaraganda odatda kichikroq hajmdagi va kamroq kapital qo'yilmalarni talab qiladigan iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish orqali

zamonaviy iqtisodiyotda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yengil sanoat tarmog'ining asosiy ahamiyati quyidagi sohalarda yotadi:

Ish bilan ta'minlash: Yengil sanoat ko'plab odamlarni, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ish bilan ta'minlaydi. To'qimachilik, tikuvchilik, poyabzal ishlab chiqarish kabi yengil sanoatning ko'pgina tarmoqlari ko'p mehnat talab qiladi va katta miqdordagi qo'l mehnatini talab qiladi, bu esa turli darajadagi ta'lim va malakaga ega bo'lgan odamlarni ish bilan ta'minlaydi [1].

Iqtisodiy o'sish: Yengil sanoat tarmoqlari mahalliy iste'mol va eksport uchun tovarlar bilan ta'minlash orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ko'pincha turmush darajasi va ixtiyoriy daromadning o'sishi bilan bog'liq bo'lib, yengil sanoat tarmoqlarini rivojlantirish rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yordam beradi.

Innovatsiyalar: Yengil sanoat, ko'pincha, iste'molchilar ehtiyojlarini qondiradigan yangi mahsulotlarni loyihalash va ishlab chiqarish uchun innovatsiya va ijodkorlikka tayanadi. Buning uchun ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritish talab etiladi, bu esa texnologik taraqqiyotga va yangi biznes imkoniyatlariga olib kelishi mumkin.

Mintaqaviy rivojlanish: Yengil sanoat tarmoqlari qishloq va chekka hududlarda iqtisodiy faollikni yaratish orqali hududlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Bu mintaqaviy tafovutlarni kamaytirishga va shahar markazlaridan tashqarida ish o'rinlarini ta'minlashga yordam beradi.

Тесную логико - смысловую зависимость с учетом их интонаций и коммуникативной зависимости называют **структурой диалога**.

В основу обучения диалога должно быть положено двуединство - интуитивно-ответные реплики:

Вопрос – ответ/Вопрос – конкретный вопрос/Сообщение и вызванный им вопрос/Сообщение и вызванное им сообщение/Сообщение и вызванный им реплика – подхват, продолжающий мысль/Побуждение-сообщение/Побуждение-вопрос

Итак, вернемся к теме говорения... Как говорила Н.А.Зимняя: «Целью обучения в средней школе следует считать не язык, что уместно при филологическом образовании в специальном ВУЗе, и не речь как «способ формирования и формулирования мысли», и даже не просто речевую деятельность – говорение, чтение, аудирование или письмо, а указанные виды

речевой деятельности как средства общения.” Применительно к говорению это означает, что оно совместно с паралингвистикой (мимика, жесты) и праксемикой (движение, позы) служит средством осуществления устной формы общения. Такая цель требует и соответствующего метода ее достижения. Для говорения им является коммуникативно-деятельностный подход.

Сказанное определяет важнейшее исходное положение: обучать говорению, не обучая общению, не создавая условий речевого общения, нельзя.

Коммуникативно-деятельностный подход в обучении русскому языку лег в основу коммуникативной теории обучения, рассматривающей языковую компетенцию в условиях социального взаимодействия. Особенность коммуникативно-деятельностного подхода заключается в сходстве процесса обучения с реальным процессом общения: процесс обучения моделирует процесс коммуникации, сохраняя при этом адекватность .

Доминирующей идеей коммуникативно-деятельностного подхода является коммуникативная направленность всех видов речевой деятельности – говорения, аудиторования, чтения и письма. Владение русским языком как средством общения предполагает создание таких условий, при которых усвоение языкового материала осуществлялось бы естественным путем, в процессе общения, курс носил бы целенаправленный характер, обеспечивающий достижение учебных целей. Содержание предмета «русский язык» включает учебную информацию об аспектах языка (фонетике, лексике, грамматике, стилистике), которая составляет основу формирования и развития навыков и умений, связанных с овладением четырьмя видами речевой деятельности, обусловленными конкретной ситуацией общения. Обучение русскому языку как средству общения предполагает получение студентами комплекса лингвистических знаний и приобретение коммуникативных навыков и умений. Лингвистический компонент содержания обучения включает в себя строго отобранный языковой и речевой материал, фонетический материал, лексический минимум, грамматическую справку, образцы речевых высказываний различной протяженности, ситуативно и тематически обусловленные. Такой прием нарушает традиционную очередность развертывания языка.

Отказ от комплексного изучения аспектов языка (фонетики, лексики, грамматики) не приводит к овладению правилами и лексикой при решении коммуникативно-деятельностных задач.

При обучении русскому языку формируется учебно - познавательная деятельность, в ходе которой усваивается язык и закладываются механизмы

речевой деятельности, деятельности по общению.

Для чего же необходим коммуникативно-деятельностный подход обучения?

Коммуникативно-деятельностный подход предполагает адекватность сообщаемых знаний, задачу усвоения языка как систему речевых средств, точнее учебную модель этой системы, которая призвана заместить реальную.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Барышников Н. В. Параметры обучения межкультурной коммуникации в средней школе // – 2002.
2. Богородицкая В.Н., Хрусталева Л.В. English VIII
3. Дистанционное обучение/Под ред. Е.С. Полат. – М., 1998.
4. Елухина Н. В. Роль дискурса в межкультурной коммуникации и методика формирования дискурсивной компетенции: [развитие речи на уроках иностр. яз.] // . – 2002.
5. Зимняя И.А. Педагогическая психология. 2-е изд., дополн. – М., 1999.

UZUNLIKKA SAKROVCHILARNI CHIDAMLILIK SIFATINI RIVOJLANTIRISH ME'ZONLARI

Farrux Muxiddinovich Karimov

O'zDJTSU Katta o'qituvchisi

ANNOTASIYA

Ushbu maqola uzunlikka sakrashga ixtisoslashgan uzunlikka sakrovchilar tayyorgarligida chidamlilik sifatini nazorat olib borish uchun eng samarali va axborotli test va mezonlarni aniqlashga bag'ishlangan. tadqiqotda uzunlikka sakrovchi uzunlikka sakrovchilar chidamliligini aniqlash uchun samarali uslubiyatlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: uzunlikka sakrash, chidamlilik, testlar, uzunlikka sakrovchilar tayyorgarligi.

ABSTRACT

This article is devoted to determining the most effective and informative tests and criteria for quality control of endurance in the training of long jumpers. The study presents effective methods for determining the endurance of long jumpers.

Keywords: long jump, endurance, tests, training of long jumpers.

KIRISH

Chidamlilik muammolarini ilmiy ishlanmalarida sezilarli qo'zg'alishlar sodir bo'layotganligiga qaramay, hozirgi kunda uzunlikka sakrovchilar ustidan pedagogik va tibbiy-biologik nazorat o'rnatish amaliyotida ushbu jismoniy sifatni rivojlanish darajasini nazorati uchun ancha axborotli mezonlar va tashhis uslublarini tanlovida yagona uslubiy ko'rsatma mavjud emas. Qo'llanilayotgan pedagogik va tibbiyshifokorlik nazorat uslublarining ko'pchiligi chidamlilikni rivojlantirish va uni foydalanilayotgan mashg'ulot vositalari va uslublari ta'sirida o'zgarishi to'g'risida aniq miqdoriy axborot olish imkoniyatini ta'minlay olmaydi.

Chidamlilikning rivojlanish darajasini aniqlashda aniq va to'g'ri ishlab chiqilgan natijalariga erishish uchun uzunlikka sakrashchilar mashg'ulotlarida tadqiqotlar o'tkazishda yuklama parametrlarini qat'iy belgilangan qiymatlaridan foydalanish zarur. Amaliyotda qo'llaniladigan testlash tadbirlari standart mashg'ulotlar jarayonida uzunlikka sakrovchilarning bioenergetik imkoniyatlarining tanlangan bahosini ta'minlashi va ushbu imkoniyatlarni alohida sport turlari bo'yicha musobaqalarning maxsus sharoitlarida amalda qo'llanilish darajisini miqdoriy baholay olishi kerak. Buning uchun chidamlilikni baholash uchun to'g'ri testlarni aniqlash va ancha

axborotli ko'rsatkichlarni belgilash hamda kuchi, sig'imi, aerob va anaerob metabolik jarayonlarning samaradorlik mezonlari bo'yicha chidamlilikni alohida tarkibiy qismlarini aniq baholashni ta'minlab bera olishi mumkin bo'lgan testlash tadbirlari nazoratini loyihalashga nisbatan asosiy yondoshuvni aniqlab olish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning maqsadi uzunlikka sakrovchilar chidamliligini baholash va nazorati uchun test va yuklamalarning ilmiy asoslangan talablarni belgilash.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan parametrlarning har birini miqdoriy baholash uchun muayyan testlash shartlariga rioya qilish lozim. Uzunlikka sakrovchilar chidamliligini kompleks baholashga mo'ljallangan test dasturlari qo'llaniladigan test mashqlarining tavsifi va bioenergiya imkoniyatlari yoki tanlangan sport turi bo'yicha musobaqa sharoitlarida ularni uzunlikka sakrovchilar tomonidan amalga oshirilish darajasini o'rnatish maqsadiga ega ekanligidan kelib chiqib, ularni bajarilish shartlari bo'yicha farqlanadi. Bioenergetik imkoniyatlarning (anaerob va aerob imkoniyatlar) rivojlanish darajasini aniqlash uchun organizmning testlanayotgan vazifasi yoki xususiyatini maksimal darajada yuklantirishga imkon beruvchi ma'lum turdagi mashqlardan foydalanishni talab qiladi. Ushbu mashqlar barcha uzunlikka sakrovchilar uchun bir hil bo'lishi va testlanuvchi vazifa yoki sifatni to'liq ochib berilishini ta'minlashi kerak.

Uzunlikka sakrovchilar uchun maxsus mashqlarining bajarilish texnikasi, musobaqa bellashuvlarini olib borish taktikasi va sportchining psixologik tayyorgarligiga bog'liq bo'lgan sport mahsuldorligini baholash uchun mo'ljallangan testlar, qoida bo'yicha, ushbu sport turining aniq sharoitlarida imkoniyatlarni amalda qo'llanilish darajasini aniqlab beradi.

Aerob va anaerob ishchanlik qobiliyatlarini baholash tizimini birlashtirishga bo'lgan ko'p sonli urinishlarga qaramay, hozirgi kunda uzunlikka sakrovchilarning asosiy aerob va anaerob chidamlilik parametrlarini baholashga yo'naltirilgan standart laboratoriya tadbirlari ishlab chiqilmagan va ko'p sonli mustaxassislar tomonidan qabul qilinmagan.

Chidamlilikni baholash bo'yicha mavjud bo'lgan turli hil tavsiyalar e'tibordan chetda qolishi, ko'pincha taklif qilinayotgan sinovlar, testlar nazariyasiga muvofiq qat'iy ilmiy tekshiruvlardan (ishochlilik, amal qilish muddati, ob'yektivligi va boshqalar tekshiruvi) o'tkazilmasligi bilan bog'liq.

Uzunlikka sakrovchilarda erishilgan jismoniy tayyorgarlik darajasi ustidan uzluksiz nazorat o'tkazish uchun ma'lum fiziologik mezonlarga javob bera oladigan testlar majmuasini tanlab olish va sinovdan o'tkazish zarur. Bundan tashqari, taklif qilinayotgan testlash tadbirlari ham ishonchliligi va amal qilish muddatiga ko'ra, ham taqdimotliligiga ko'ra asoslangan bo'lishi kerak, chunki ushbu testlar o'rganilayotgan

sifatni ochib berishi va ularni amaliy sharoitlarda qo'llash imkoniyatlari mavjudligini bilish lozim. Uzunlikka sakrovchilarning ma'lum guruhi uchun laboratoriya testlarini yuqori ishonchliligi va takroran ishlab chiqariluvchanligi bitta sessiyadan ortiq o'tkazilgan sinovlarda o'rnatilishi, ularni amaliyotda keng qo'llash uchun tavsiya qilishga imkon beradi. Natijalarni yuqori ishlab chiqaruvchanligi tanlangan fiziologik vazifalar yoki ishchanlik qobiliyatlariniga nisbatan uning kuchli axborotliligini aniqlab beradi.

Uzunlikka sakrovchilar ustidan pedagogik nazorat o'rnatish amaliyotida, muvofiq testlardan foydalanish va ergometrik va metabolik o'lchamlarni o'tkazish yo'li bilan chiqarilgan ancha axborotli mezonlarni ochib berish asosida chidamlilikning rivojlanish darajasini baholash mumkin.

Standart mashg'ulotlar va maxsus testlarda qayd qilinishi mumkin bo'lgan aerob va anaerob ishchanlik ko'rsatkichlari, uzunlikka sakrovchilarning maxsus chidamlilik sifatini rivojlanish darajasini baholovchi eng muhim mezonlar hisoblanadi. Ko'pincha maksimal kislarod iste'moli, anaerob almashinuv ostonasi, maksimal kislarod qarzi va qonda to'plangan sut kislotasini aniqlashdan foydalaniladi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, uzunlikka sakrovchilarni aerob va anaerob chidamlilik ko'rsatkichlarida ko'p yillik maxsus mashg'ulotlar va ularning sport tayyorgarligiga yo'naltirilgan shakllari ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi.

Mashg'ulot jarayoni samadorligi ko'p jihatdan tayyorgarlik nazoratini to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Jismoniy sifatlarni rivojlanish darajasi ustidan muntazam amalga oshirib boriladigan nazorat qo'llanilayotgan mashg'ulot vosita va uslublari samaradorligi to'g'risida muhokama qilishga imkon beradi, tayyorgarlikni kuchli va sust (kuchsiz) tomonlarini ochib berishga yordam beradi, bu o'z navbatida, mashg'ulot jarayonini rejalashtirishni yengillashtiradi.

Mashg'ulot jarayonida uzunlikka sakrovchilarning chidamlilik ko'rsatkichlari o'zgarishini faqat bajarilgan yuklamalar hajmi va tayyorgarlikni alohida bosqichlarida turli yo'nalishdagi vositalarni taqsimlanishi to'g'risida aniq miqdoriy tasavvurlar asosida kuzatib borish mumkin. Yaqin kunlarga qo'llaniladigan yuklamalar hajmi to'g'risida aniq ma'lumotlarni kamligi ko'pgina sport turlarida zamonaviy uslubiy ko'rsatmalarni rivojlanishiga sezilarli darajada to'sqinlik qilgan. Bunga mashg'ulot yuklamalarini hisobga olish va nazorat qilishning yagona birlashtirilgan tizimi yo'qligi ham katta darajada yordam bergan.

Mashg'ulot testlarini o'tkazishdagi asosiy shartlar, tanlangan test mashqlarini soddaligi va yengilligida, uzunlikka sakrash sport turi talablariga muvofiq standartlashtirilgan bayonnomalar va ma'lum jihozlarni qo'llash bilan tashqi muhitni doimiy sharoitlariga rioya qilishdan iborat.

Asosiy shart sifatida aerob va anaerob chidamlilikni har tomonlama baholash shundan kelib chiqadiki, qo'llaniladigan testlash tadbirlari ushbu sport turi mashg'ulotlarida barcha amalda qo'llaniladigan organizmning aerob va anaerob bioenergetik qobiliyatlarini tanlangan bahosini ta'minlab bera olishi kerak. Organizmning ushbu funksional xususiyatlaridan har biri uchta parametrlar bo'yicha baholanishi kerak: kuchi, sig'imi va samaradorligi.

XULOSA

1. Uzunlikka sakrovchilarda chidamlilikni namoyon bo'lishi juda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Chidamlilikni ushbu o'ziga hosligi turli kuchlanishli va maksimal davomiylik bilan mashqlarda uzunlikka sakrovchilarning aerob va anaerob qobiliyatlarini namoyon bo'lish tavsifiga asoslangan.

2. Mashg'ulot jarayonida chidamlilik ko'rsatkichlari o'zgarishini muntazam kuzatib borish qo'llanilayotgan mashg'ulot vositalari samaradorligini baholash va shug'ullantirilgan chidamlilik ko'rsatkichining o'sib borishi, turli ta'sirga ega yuklamalarni bajarilgan hajmi bilan qiyoslanadigan maqsadli vazifalarni o'rganib chiqish asosida mashg'ulot tuzilishining optimal variantini aniqlashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов, Ф. М., Ганибоев, И. Д., Хўжамкелдиев, Ф. С., & Зияев, Ф. Ч. (2021). БОШЛАНГИЧ ИХТИСОСЛИК ГУРУҲИДАГИ УЗУНЛИККА САКРОВЧИ ҚИЗЛАРНИНГ ДЕПСИНИШ КУЧИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. *CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS)*, 1(4), 119-125.

2. Ziyayev, F. C., Xo'jamkeldiyev, G. S., G'aniboyev, I. D., & Karimov, F. M. (2021). O'RTA MASOFAGA YUGURUVCHI YENGIL ATLETIKACHILARNI MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGI SAMRADORLIGINI OSHIRISH. *CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS)*, 1(4), 78-90

3. Ортиқов, М., Солиев, И. Р., Каримов, Ф. М., Султонов, У. И., & Умматов, Н. Р. (2021). БИАТЛОНЧИЛАРНИ МУСОБАҚАЛАРГА ТАЙЁРЛАШДА МАШҒУЛОТ ЮКЛАМАЛАРИ ВОСИТАЛАРИНИНГ ОПТИМАЛАШТИРИШ. *CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS)*, 1(4), 156-163.

4. Abdullaev, M. J., Karimov, F. M., & Juraeva, Z. O. (2022). PHYSICAL PREPARATION DYNAMICS OF YOUNG ATHLETES. *Central Asian Research*

Journal For Interdisciplinary Studies, 2(6), 446-458. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-6-446-458>

5. Солиев, И. Р., Смурыгина, Л. В., Олимов, М. С., Расулова, Т. Р., Иванова-Тюрина, В. В., & Каримов, Ф. М. (2021). УРТА МАСОФАГА ЮГУРУВЧИЛАРНИ МУСОБАКДЛАРГА ТАЙЁРЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS)*, 1(2), 100-109.

6. G__aniboev, I. D., Ziyayev, F. C., Xujamkeldiyev, G. S., & Karimov, F. M. (2021). YENGIL ATLETIKA SPORT TURINI RIVOJLANTIRISHDA UMUMIY O`RTA T`ALIM MAKTABLARINING JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA YENGIL ATLETIKA TURLARINI O`RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI. *CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS)*, 1(3), 348-355

7. Xo`jamkeldiyev, G. S., G`aniboyev, I. D., Ziyayev, F. C., & Karimov, F. M. (2021). KICHIK RAZRYADLI O`RTA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNING MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIGI. *CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS)*, 1(3), 270-274.

QOG‘OZNING O‘ZBEKISTONGA KIRIB KELISHI VA SAMARQAND QOG‘OZI

Axmadaliyeva Nilufar Qobuljon qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, Magistratura
bo‘limi Xattotlik va miniatyura mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada asosiy yozuv ashyosi hisiblangan qog‘oz hamda uning tarkibi, qog‘ozning yaratilish tarixi, qanday tayyorlanganligi, qog‘ozni O‘zbekistonga kirib kelishi, mashhur Samarqand qog‘ozini, uni yaralish tarixi va tayyorlash bosqichlari hamda bugungi kunda Samarqand qog‘ozini qayta tiklash bo‘yicha olib borilayotgan chora tadbirlar, hozirda biz foydalanadigan qog‘oz turlari haqida

Kalit so‘zlar: pishiq, tekkis, engil, yupqa, yengil, o‘simlik sellulozasi, po‘stlog‘, egiluvchan, Elakda suzib olish, yumshoq, sirt silliq, yog‘ochni qayta ishlash, tola, yog‘och, paxta yoki qog‘oz.

Bugungi kunda barchamiz birdek murojaat qilib kelayotgan asosiy yozuv ashyosi albatta bu qog‘ozdir. Qog‘oz insoniyat tarixida yaratilgan buyuk kashfiyotlardan biri bo‘lib, haligacha asosiy yozuv ashyosi sifatida o‘z o‘rnini saqlab kelmoqda. Qog‘oz qachon va qay tarzda kimlar tomonidan yaratilgan? Kabi qator savollarga maqola davomida qisqacha ma‘lumotga ega bo‘lishingiz mumkin.


Qog‘oz – asosan o‘simlik tolalaridan tayyorlangan yupqa material bo‘lib turli xil daraxt yog‘ochi va bir yillik o‘simlik sellulozasi hamda yog‘och massasidan ishlanadi. Bundan tashqari yog‘och, paxta, yoki qog‘ozni qayta ishlash yo‘li bilan olinadi.



Qog‘ozning afzalligi: yupqa, yengil, egiluvchan, pishiq, yuzasi tekkis, ikki tarafdan foydalaniladi, yozish va chizish uchun qulay. Qog‘ozning kamchiligi: suv shimadi va tez yonadi.

Qog‘oz yaralish tarixi. Qog‘ozning kelib chiqish tarixi haqida bir nechta talqinlar mavjud bo‘lib matbuotda keng tarqalgan ma‘lumot bo‘yicha dastlab qog‘oz qadimgi Xitoyda eramizning 105-yilda Xo imperatorining maslaxatchisi Tsay Lun tomonidan kashf qilinadi. U baliqchilik to‘rlaridan qog‘ozni yangi turini tayyorlab ko‘rdi. Sifati bo‘yicha u boshqa yozuv ashyolaridan qolishmas edi, tannarxi bo‘yicha esa ancha

arzon edi. Bu muhim ixtiro nafaqat Xitoy, balki butun insoniyat uchun kata ahamiyatga ega edi. Tarixda birinchi bor odamlar yozish uchun sifatli va arzon materialga ega bo'ldilar. Shu sababli ham Tsay Lunning ismi, insoniyatning buyuk ixtirochilari qatorida yodga olinadi.



Xitoyliklar qog'oz tayyorlashning yanada yangi izlanishlar olib borishdi. Tajribalar orqali qog'ozni endilikda daraxr po'stlog'i, qamish yoki boshqa tolali o'simliklardan olish usullari o'ylab topildi. Keyinchalik Xitoyliklar qog'oz tayyorlashni san'at darajasida o'zlashtirdilar. Asrlar davomida ular qog'oz tayyorlash texnikasini o'z odatlariga ko'ra boshqa xalqlardan sir saqlashdi. Vaqt o'tishi bilan bu sir qo'shni Koreya va Yaponiya davlatlariga tarqaladi. 751-yili Markaziy Osiyo xududida Arab va Xitoy qo'shini o'rtasida «Talas jangi» bilan mashxur bo'lgan urush bo'lib o'tadi. Bu jangda Arablar g'olib kelishadi. Asir tushgan xitoylik askarlar arablarga yurtlarida tayyorlanadigan qog'oz namunalarini ko'rsatib, hayotlarini saqlab qolish evaziga uni tayyorlash bo'yicha o'z xizmatlarini taklif qilishadi. Shu voqea sabab arablar tomonidan Samarqandda birinchi qog'oz tayyorlash ustaxonasi tashkil qilinadi.

Tezlik bilan kengayib, rivojlanib borayotgan arab xalifaligida qog'ozga talab katta edi. Ular qog'oz tayyorlash ishlarini yengillashtirishda bir nechta yangiliklar kiritdilar. VIII asr oxirlariga kelib Bag'dod shahri qog'ozni ko'p ishlab chiqarish, sotish bo'yicha asosiy markazlardan biriga aylanadi.

IX asrda arablarga qarashli Shimoliy Afrika yerlarida qog'oz tayyorlana boshlaydi. X asrga kelib qog'oz yozuv ashyosi sifatida papirusning o'rnini to'liq egallaydi. Shu tariqa qog'oz Yevropa davlatlariga keng tarqaladi.

Samarqand qog'ozi O'n bir asrdan ko'proq vaqt davomida mashxur bo'lgan Samarqand qog'ozining qachondan boshlab tayyorlanganligi xaqida turli manbalarda turli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Ammo ma'lumotlarning qaysi biri xaqiqat

ekanligini aniqlashning iloji bo'lmada, shunisi ayonki samarqandlik hunarmandlar V-VIII asrlar davomida sifatli qog'oz tayyorlashni bilishgan.

Sharq olamida Samarqand qog'ozlari Misr qog'ozlari kabi keng omma tomonidan foydalanilgan. Bunga ayniqsa IX-X asrlarga kelib, ko'pgina fors va arab tilidagi asarlar va qadimiy qo'lyozmalar aynan Samarqand qog'oziga yozilishi yaqqol misol bo'la oladi.



Samarqandda tayyorlangan qog'oz rangi och novvotrang, pishiq, yupqa, satxida siyoxning tekkis yurishi, siyoxni oz shimishi kabi qator ustun jixatlari bilan boshqa yerlarda tayyorlangan qog'ozlardan ajralib turgan. Samarqand qog'ozlari «Ipak yo'li» orqali Yevropa mamlakatlariga eksport qilingan.

Ma'lumotlarga qaraganda, XVIII asr boshlarida Samarqand atrofida 42 ta qog'oz tayyorlash ustaxonasi mavjud bo'lgan. Mahalliy urushlar natijasida Buxoro, Toshkent, Qo'qon shaharlarida ham qog'oz tayyorlovchi ustaxonalari shakllantirilgan.

Samarqand qog'ozlari haqida shox va shoir Zahiriddin Muxammad Bobur o'zining mashhur «Boburnoma» kitobida shunday ta'rif bergan: «Dunyodagi eng yaxshi qog'oz Samarqandning Siyob suvi atrofidagi Konigilida tayyorlanadi».

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng Samarqand qog'ozini tiklash maqsadida Samarqand shahriga yaqin Konigil manzilida Zarif Muxtorov oilasi tut daraxtining tolalaridan qog'oz tayyorlash ustaxonasini tashkil qilishdi. Bu ustaxona a'zolari mashhur Samarqand qog'ozini tayyorlash usulini tiklash yo'lida ko'p mehnat qilmoqdalar. Shu qatorda Kamollid Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti o'qituvchilari ham tinim bilmay izlanish olib bormoqdalar. Jumladan ustozlarim Mirxamid Sobirov va Behzod Xadjimetovlar bu borada katta izlanishlar olib bormoqda va biz talabalarga bu haqida o'rgatib qiziqtirib kelmoqdalar. Qog'oz nimalardan va qay tarzda tayyorlanadi? Degan bir qator savollarimizga nafaqat nazariy balki amaliy tarzda ham ko'rsatib berdilar. Bu jarayonda biz talabalar ham bevosita qatnashib o'z qog'ozlarimizni tayyorlab ko'rdik va bu biz uchun juda qiziqarli bo'ldi.

Quyda etiboringizga Samarqand qog‘ozini tayyorlash bosqichlarini qisqacha keltirib o‘taman.

Samarqand qog‘ozini tayyorlash bosqichlari.

1. Tut daraxti novdasining po‘stlog‘ini pichoq bilan shilish;
2. Po‘stloq qismidagi shilimshiq qismini ajratish;
3. Tolali po‘stloqni ivitish;
4. Tolali po‘stloqni qozonda qaynatish;
5. Kaltaklab tolalarni ajratish va maydalash;
6. Suvda ivitib bo‘tqa holiga keltirish;
7. Elakda suzib olish;
8. Xosil bo‘lgan qog‘ozni elakda ajratib olish va soyada quritish;
9. Qog‘oz sirtini silliq tosh bilan ishqalab tekislash.

Ma‘lumotlarga qaraganda bugungi kunda qog‘ozni 600 dan ortiq turi mavjud. Ular ichida eng ko‘p ishlatilib kelinayotgan qog‘oz turlari quydagilardan iborat:

1. Konselyariya qog‘ozlari yani yozuv uchun ishlatiladigan qog‘ozlar;
2. Vatman qog‘ozini tasvir ishlash uchun qalin va mustaxkam hisoblanadi;
3. Torshon qog‘ozini esa asosan suvli bo‘yoqlarda rangli rasm ishlash uchun ishlatiladi;
4. Melovannaya qog‘ozini yaltiroq, sifati yuqori, pishiq qog‘oz bo‘lib asosan jurnal, katalog, buklet kabi yorqin rangli reklama bosma nashrlar uchun ishlatiladi;
5. Kalka bu qog‘oz turi shaffof bo‘lib tasvirdan nusxa olish uchun foydalaniladi;
6. Nusxa olish (kopirka) qog‘ozini yupqa bo‘lib uni bir tomoniga maxsus bo‘yoq qoplangan bo‘ladi va yozuv hamda tasvir nusxasini qoldirish uchun chiqariladi;
7. O‘ram qog‘ozini bu qog‘oz turidan asosan savdoda maxsulotlarni o‘rash uchun foydalaniladi;
8. Gazeta qog‘ozini esa asosan matbuot uchun;
9. Salfetka qog‘ozini bu qog‘oz turi xo‘jalik qog‘ozini hisoblanadi;
10. Foto qog‘ozini asosan fotosuratlar chiqarish uchun ishlatiladi.

1



5

2




6

3



7

4



8



9



10



Bugungi kunda texnika rivojlanayotgan davrda hayotimizni, qo‘limizdagi telefon, kompyuter va boshqa gadjetlarsiz tasavvur qilish qiyin. Ular bilan yozish, chizish, muloqot qilish qulay, hamda muammolar ham onson va tez xal bo‘ladi, xatto dunyoning istalgan nuqtasida istalgan odamingiz bilan muloqot qilishingizning imkoni bor, ularning imkoniyatlari cheksiz bo‘lishi bilan bir qatorda insoniyatning buyuk kashfiyoti bo‘lmish qog‘ozning ham o‘rni beqiyos deb o‘ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sabirov M.M. Xadjimetov B.B. “Mutaxassislik bo‘yicha materialshunoslik” O‘quv qo‘llanma. T.; “Info Capital Group”, 2018.
2. Sabirov M.M. “Kitobat san’ati” O‘quv qo‘llanma. T.; “Info Capital Group”, 2018.
3. Sabirov M.M. “Miniatyura kompozitsiyasi” O‘quv qo‘llanma. T.; “Info Capital Group”, 2018.
4. meros.uz
5. gazeta.uz
6. zarnews.uz

ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ ДОЛЖНОСТНОГО КОНТРОЛЯ

Ниёзов С.Р.,

подполковник резерва, преподаватель цикла продовольственного
обеспечения кафедры материального обеспечения
Академии Вооруженных Сил Республики Узбекистан

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрыты неэффективности работы по контролю со стороны командиров и заместителей, начальников служб, родов войск по занимаемой ими должности или как его ещё называют должностной контроль.

Ключевые слова: должность, контроль, положение, сроки, обязательство, расчёт, проверка, организация, деятельность, формально, осуществлять, материальные средства, законодательные акты, инструкции, анализ, обобщения, просчеты, хищения, махинация, формальность, справедливость, авторитет, обогащение, дисциплинарная взыскания, материальная ответственность, самостоятельности, инициатива, деловитость, подлинный хозяин, ликвидация, дробность, растранивание, завуалировать, скрыть.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada harbiy qism komnadirlari, ularning o‘rinbosarlari, qo‘shin turlari va xizmat boshliqlarining lavozim majburiyatlarida belgilangan nazoratlari bo‘yicha, boshqacha qilib aytganda lavozim nazoratlarining samarasizligi bo‘yicha tahliliy xulosalar, takliflar haqida so‘z yuritilgan. Mavjud tartibga ko‘ra, lavozim nazorati bo‘yicha belgilangan talablar ularni tasdiqlanishigacha, to‘liq kuchga kirgunicha tekshiruvlarning hajmi va muddati, davriyligi sharoitlari ila harbiy qismlar xo‘jalik faoliyatlarini amalga oshirish bilan hamnafas, aniq belgilanmaganligi sababli yuzaki bajarilishi uchun mahkum etilgan.

Kalit so‘zlar: lavozim, nazorat, vaziyat, muddat, majburiyat, hisob, tekshiruv, tashkillashtirish, faoliyat, yuzaki, amalga oshirish, moddiy vositalar, qonunlar majmui, yo‘riqnoma, tahlil, umumiy xulosalash, hisobda yanglishish, o‘g‘rilik, firibgarlik, rasmiyatchilik, haqqoniyat, obro‘-e‘tibor, boyitish, intizomiy ta‘zir, moddiy javobgarlik, mastaqillik, tashabbus, ishbilarmonlik, haqiqiy xo‘jayin, tugatish, parokandalik, isrof qilmoq, faktlarni pardalamoq, bekitish.

ABSTRAKT

The given article presents the ineffectiveness of the commanders', their deputies, as well as chiefs of services and branches control in their positions, or as it is also called official control. Even before their approval and their entry into force, the current regulations on official control were already doomed to formal implementation, since the scope and timing of inspections did not fit with reality and actual implementation of economic activities in a military unit.

Key words: position, control, regulations, term, obligation, calculation, verification, organization, activity, formally, carry out, material means, legislative acts, instructions, analysis, generalizations, theft, fraud, formality, justice, authority, enrichment, disciplinary action, liability, independence, initiative, efficiency, real owner, liquidate, fragmentation, squandering, veil, hide.

Не год и не два, а с 1988 года в разных должностях служб тыла Вооружённых Сил ломая голову над тем, почему неэффективно работа по контролю со стороны командиров и заместителей, начальников служб, родов войск по занимаемой ими должности или как его ещё называют должностной контроль? [1,2,3]

Перелистываю Устав внутренней службы, приказ Министра обороны № 500 от 2013 года Положение о войсковом хозяйстве в ВС, где имеющиеся строки поведают мне о том, что должностные лица батальонов и бригад обязаны в строго определённые сроки проверить наличие и качественное состояние материальных средств. Также эти положения дополняют ряд приказы и директивы. [4,5,6]

В период прохождения службы в должностях анализировал, как, допустим, заместители командира бригад, батальонов по тылу на практике осуществляет непреклонную обязательность многочисленных положений по должностному контролю.

В Уставе чёрно по белому записано, что эту работу ему полагается проводить не реже одного раза в три месяца. Что же, можно произвести несложный расчёт. На проверку продовольственной службы потребуется как минимум 6-8 дней; служба горюче-смазочных материалов с учётом замера топливных баков машин подразделений и ёмкостях склада 5-6 дней; вещевой службы, с проверкой взводных хозяйств и пересчётом имущества складов – все 10-15 дней. На контроль квартирно-эксплуатационной службы надо выделить ещё 15-16 дней. Добавим пару дней на противопожарное состояние зданий, сооружениях и объектов тыла военного городка и неделю на изучение данных,

подготовку соответствующих документов по результатам проверки. В итоге даже без контроля медицинского обеспечения и торгово-бытового обслуживания получается 45-56 дней, или 54-62% всего квартального времени. А если учесть, что заместитель командира бригады по тылу как и все нормальные люди имеют выходные дни, то наберётся 75-80%. Короткая передышка (25-20% оставшего времени) – и опять все заново. А когда заниматься текущей организаторской деятельностью. [4,5]

Естественно, в таких условиях заместителю командира бригады по тылу, невозможно сочетать напряжённую повседневную деятельность с углублённой проверкой состояния дел в подчинённых ему службах.

Надо иметь в виду и то, что скажем, современные мотострелковые, горнострелковые, артиллерийские бригады по оснащению различными имуществом, горючим, другими материальными средствами не тот наверняка был в своё время полки пехотные. Однако существующее положение о контроле видимо разрабатывались без учёта перемен изменения в военном деле. В их основу был положен один параметр – глобальный охват: надо, мол, несмотря ни на что проверить и то и это. Но такой глобальный взгляд скользнул мимо должностного лица, коему эти положения предписывались. И получилось явное несоответствие – желание, как говорится не совпало с возможностями. По-другому если сказать, существующие ныне положения по должностному контролю ещё до их утверждения, до вступления в силу были уже обречены на формальное выполнение, поскольку объём и сроки проверок не стыковались с действительностью, с реальным осуществлением хозяйственной деятельностью. Как можно тут объять необъятное? [4,5]

Есть и другая сторона вопроса. Процитируем дословно: заместитель командира бригады по тылу обязан «проверять не реже одного раза в три месяца наличие и состояние материальных средств на складах и в подразделениях бригады». Но при этом, ни сказано, какое количество материальных средств подлежит такому ежеквартальной проверке: 100% или на выдержку, может быть наиболее дорогостоящих. Объём как видим, не конкретизирован. А где нет конкретности, опять – так и неизбежный формализм, поверхностный подход к делу. [4,5]

Некоторые командиры и начальники заметит: мол, заместители их по тылу, прежде всего организаторы. Он может организовывать и контроль. К примеру, даже с помощью внутрипроверочной комиссии. Но не будем забывать, что расчёт на внутрипроверочную комиссию тоже требует подсчёта. Легко представить, какое количество командиров подразделений, начальников служб (они, как правило, и входят в внутрипроверочную комиссию) ежеквартально

будут оторваны от исполнения основных функциональных обязанностей, текущих деятельностей. Можно даже предвидеть, как такой отрыв скажется на качестве боевой и духовно-просветительской подготовке частей и подразделений.

Время реформ и становления Вооружённых Сил вызывает к пересмотру ряда законодательных актов, всевозможных инструкций. Думаю, в какой-то мере это коснётся и некоторых уставных положений, в частности по должностному контролю. [1,2,3]

Сама жизнь подсказывает, что контроль по занимаемой должности необходимо переложить на плечи тех начальников служб, которые непосредственно отвечают за деятельность той или иной службы. Функцию контроля, разумеется, должны быть реальными как по объёму, так и по срокам, и конкретными.

Исходя из анализа и обобщения результатов ряда документальных ревизий, проверок хозяйственной деятельности подчинённых служб, проведённых в период прохождения службы с 1988-2004 гг., такой контроль может по усмотрению командира осуществляться как с привлечением, так и без привлечения внутрипроверочной комиссии. Думается, начальником продовольственной службы, и службы горюче-смазочных материалов следует осуществлять должностной контроль за материальными средствами текущего учёта не реже одного раза в квартал. За остальными – не реже одного раза в полугодие.

Что же касается начальника вещевого службы, то сроки проверок им наличия и состояния имущества во взводных хозяйствах и на складах целесообразно приблизить к срокам призыва молодого пополнения и увольнения личного состава в резерв, т.е. проводить контроль за материальными средствами текущего учёта не реже одного раза в полугодие, за остальными – не реже одного раза в год, также как периодичность составления отчётов по службе согласно табеля срочных донесений.

Ежемесячно необходимо проверять лишь наличие бланков строгого учёта и правильность расходования материальных и денежных средств по службе, документального их оформления, т.е. осуществлять предварительный контроль.

Материалы проверок каждый начальник службы представлял бы на рассмотрение и утверждение заместителю командира бригады по тылу. Такой порядок вполне логичен. Ведь как руководитель, организатор, непосредственно отвечающий за состояние тыла, он первым получал бы информацию от подчинённых начальников служб. Конечно, при рассмотрении материалов проверок заместитель командира по тылу больше внимания уделял бы

недостаткам и в случае необходимости мог сам перепроверить данные, вызвавшие малейшие сомнения. [4]

Утверждая материалы проверок, проведённых начальниками служб, заместитель командира по тылу берёт на себя повышенную ответственность за дело. И для принятия решения подаёт рапорт командиру. [4]

А пока у нас должностной контроль, можно сказать, не поддается никакому контролю. Ведь если строго следовать букве существующих положений то в каждой части должностные лица ничем иным не должны, заниматься, кроме как непрерывным пересчётом и перевешиванием материальных средств. Судите сами: начальник продовольственной службы и начальник службы горюче-смазочных материалов обязаны заниматься этим ежемесячно, начальник вещевого склада – не реже одного раза в два месяца. Затем раз в квартал перепроверяет своих подчинённых начальников служб заместитель командира бригады по тылу и т.д. И получается должностной контроль вечным и бесконечным. [4,5]

Возложив ответственность на начальников служб за контроль на подчинённых им объектах в реальные сроки и реальным объёмом, мы тем самым поднимем их авторитет. И сами проверки станут неформальными, а реальными, поскольку начальника службы появиться больше времени на действительный контроль за наличием и состоянием вверенных ему материальных средств. Возрастёт и его личная заинтересованность в том, чтобы досконально знать существо дела на своих объектах.

Можно заметить, мол, если начальники службы реже станут проверять склады, то недобросовестные, а иногда и нечистые на руку материально-ответственные лица чаще будут допускать просчёты, а то и хищения. На мой взгляд, подобные явления при реальном, а не формальном контроле сразу же обнаружатся. И виновный силою приказа возместит причинённый им ущерб. Материальная ответственность здесь должна быть неотвратимой, справедливой.

К сожалению, при существующей системе должностного контроля все синяки и шишки нередко достаются не ловкачу и хапуге, а начальнику службы. До сих пор приходится наблюдать безответственные картины в войсках, когда скажем, недобропорядочный начальник склада ворует, его хватают за руку, уличают в махинациях, взыскивают за причинённый ущерб. Но при этом не забывают отчитать в приказе и начальника службы. И порой это на служебных совещаниях подаётся так, будто только он и повинен в том, что его подчинённый оказался вором. Спрашивается, где же справедливость? Подобные меры наносят не заживающие моральные раны, уничтожают авторитет должностного лица в коллективе. Как после такого начальнику службы поправлять и вести дальше

дело, когда на него со всех сторон тычут пальцем: вот где истинный виновник утрат и хищений?

Человек опытный, с крепкими нервами, конечно, одолеет невзгоды и то до поры времён, а молодой начальник службы? Если и было после училища какие-то надежды на успех, то после принятых мер у него опустятся руки. Он вовсе утратит интерес к работе, службе. Не по этой ли причине и подают рапорт молодые начальники служб с просьбой либо перевести на другую должность, либо вообще уволить из армии.

Мы не вправе допускать такого, когда государства истратила на подготовку и становления данного офицера определённую сумму, чтобы глубоко порядочный начальник службы был публично изруган за непорядочность подотчётного ему материально-ответственного лица. [1,2]

Правда, мне могут возразить: дескать, начальник службы обязан воспитывать подчинённых. Но давайте опять-таки реально смотреть на вещи. Большинство начальников служб молодые офицеры в возрасте – до 25 лет, а их подчинённые начальники складов и хранилищ, как правило, в полтора-два раза старше. Так кому и кого тут воспитывать? Если человек склонен к обогащению за счёт государства, его надо не воспитывать, а немедленно отстранять от материальных ценностей с соответствующей и обязательной записью в личном деле.

Существующий ныне порядок должностного контроля порождает у многих начальников служб боязнь: а вдруг выявятся недостача и утраты, опять дисциплинарное взыскания объявят, а то и к материальной ответственности привлекут. И вместо того чтобы выявлять упущения на подчинённых объектах, иные начальники стараются их завуалировать, скрыть. А умышленно скрытая вина во сто крат опаснее явной.

Надо сделать всё для того, чтобы начальник службы почувствовал себя действительно начальником, подлинным хозяином в своей службе. И предлагаемый вариант упорядочения должностного контроля способствовал бы этому. Он предусматривает ликвидацию пагубной в нашем деле дробности контроля, устраняет пустое растранивание рабочего времени, способствует развитию самостоятельности, инициативы и деловитости, без чего реформа в

работе органов Материально-технического обеспечения в Вооружённых Силах невозможно.

ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ИСТОЧНИКИ

1. «Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа докторинаси тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг Қонуни //www.lex.uz – Дата обращения: 12.07.2022.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Ватанпарвар. 23 декабрь 2023 йил.
3. Мирзиёев, Ш.М. “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ҳар бир раҳбарнинг асосий вазифаси бўлиши керак”./ Ш.М. Мирзиёев – Т.: “Ўзбекистон”, НМИУ. 2017. Б.13 – 14.
4. Устав Внутренней службы Вооруженных Сил Республики Узбекистан Т.: 1996. С.33 – 54.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирликларининг “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ҳарбий хизматчиларининг озиқ-овқат таъминоти тўғрисидаги НИЗОМ” ҳақидаги Қарори. 5 май 2021 йил.
6. Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирининг “ЎР Мудофаа вазирлиги қўшинларининг Қўшинлар хўжалиги тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ва амалга киритиш” бўйича Буйруғи. 20 август 2021 йил.

Э. Ғ. ҒОЗИЕВНИНГ ШАХС ОНТОГЕНЕЗИДА КОГНИТИВ ЖАРАЁНЛАРНИ ХАРАКАТЛАНТИРУВЧИ МЕХАНИЗМ НАЗАРИЯСИ

Мадаминова Дилрабо

“Педагогика ва психология” йўналиши, 201-гуруҳ магистранти

Низомий номидаги Тошкент Давлат
Педагогика Университети психология
кафедраси п.ф.н. доц в.б. **Л.С.Турсунов**

АННОТАЦИЯ

Э.Ғ.Ғозиевнинг шахс онтогенезида когнитив жараёнларни харакатлантирувчи механизм назарияси ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: Шахс онтогенези, когнитив ёндашув, когнитив жараёнлар, шартсиз рефлекслар, шартли рефлекслар, регуляция, билим, кўникма, малака ва одатлар.

АННОТАЦИЯ

Э.Ғ.Обсуждается теория Газиева о механизме активации когнитивных процессов в онтогенезе человека.

Ключевые слова: Онтогенез личности, когнитивный подход, познавательные процессы, безусловные рефлексы, условные рефлексы, регуляция, знания, навыки, умения и навыки.

Шахс онтогенезига когнитив ёндашув ўтган асрнинг иккинчи ярмида юзага келган бўлиб, аксари мазкур соҳада изланувчилар асосий эътиборни шахснинг ўзлигини англашда билиш жараёнларини ролига қаратганликларини кўришимиз мумкин. Узоқ ва яқин чет эл психологлари томонидан олиб борилган тадқиқотларда шахс онтогенезида когнитив жараёнларни харакатлантирувчи механизмлари ҳақида маълумотлар нисбатан кам ёки учрамайди десак ҳам хато бўлмайди. Мазкур соҳада тадқиқот олиб боришга интиланган мутахассислар ўз фаолиятларини буткул ё қисман, олий нерв фаолияти ёки психофизиологик асосларга урғу бериш орқали тушунтиришга ҳаракат қилганликларини гувоҳи бўламиз.

Ўзбек руҳиятшунослик фанининг забардаст олими Э. Ғ. Ғозиевни асарларини ўқиган шахс бир жиҳатга эътиборли бўлиши лозим матнда

“бизнингча” ёки “бизнинг” деган ибора ишлатилган бўлса демак мазкур фикр устоз томонларидан фанга киритилган янгилик ҳисобланади.

“Инсон онтогенезида билиш жараёнларини вужудга келтирувчи ва уларни амалга оширувчи, функционал ҳолатни яратувчи, уни ҳаракатлантирувчи куч сифатида ҳукм сурувчи манбалар, негизлар, механизмлар, бизнингча қуйидагилардан иборат:

1. Туғма инстинктлар.
2. Шартсиз рефлекслар.
3. Шартли рефлекслар.
4. Идеомотор ҳаракатлар.
5. Предметли ҳаракатлар.
6. Тақлид ёки имитация.
7. Тажриба – машқ.
8. Билим, кўникма, малака ва одатлар.
9. Функциялар.
10. Регуляция.” [1, б.201]

Юқорида келтирилган фикрдан кўриниб турибдики билиш жараёнлари ўз – ўзидан юзага келиб қолмайди аксинча уни ўзига ҳос механизми мавжуд, фақат унинг асосида билиш жараёнлари ўз фаолиятларини фаол намоеън эта оладилар. Билиш жараёнлари ишлаб кетиш учун албатта туғма инстинктлар мавжуд бўлиши лозим бўлади, акс ҳолда физоанотомик ҳаракатларни ўзи автоматик тарзда ишлаб бирор - бир аниқ натижага интилиш кузатилмас эди. Натижада шартли ва шартсиз рефлекслар амалга ошиши мумкин бўлмасди. Мазкур назариянинг моҳиятига эътибор қаратилса, келтирилган ҳар бир жараён ўзидан кейингисига йўл очиб бериши билан бир қаторда у билан чамбарчас боғланган ҳолатда ўз фаол фаолиятини давом эттиради.

Онтогенез тараққиётида идеомотор ҳаракатлар предметли ҳаракатлар билан чамбарчас боғланган бўлиб боланинг дастлабки йўналган ҳаракатларига замин яратиб бериш билан қаторда ўз ҳаракатларини назорат қилишга имкон очиб беради.

Хуллас назарияда илгари сурилган ҳар бир ҳолат билиш жараёнларини вужудга келтирувчи ва уларни амалга оширувчи, функционал ҳолатни яратувчи, уни ҳаракатлантирувчи куч сифатида ҳукм сурувчи манбалар, негизлар, механизмлари эканлигини бола психикасини онтогенези моҳияти ва қонуниятлари билан таниш мутахассислар учун англаш қийин эмас.

Э.Ғ.Ғозиев шахс онтогенези когнитив жараёнларни ҳаракатлантирувчи куч боланинг ривожланиш қонунияти хомилалик – эмбрионлик давридан бошланишига алоҳида урғу бериб: “Биз (Э.Ғозиев) яратган комил инсон концепцияси ўзига хослиги билан ажралиб туради. Бизнинг таъкидлашимизча хомилалик — эмбрионал давр босқичи бўлғуси шахс учун муҳим аҳамият касб этиб, жисмоний баркамолликнинг, нерв системаси, бош мия катта ярим шарлари, ҳиссий билиш, тана аъзолари пайдо бўлишининг ва ўсишининг манбаи вазифасини бажаради”. [2, б.49]

Шахс ривожланишнинг когнитив жараёнлар билан узвий боғлиқлик қонуниятини ҳисобга олиб ёндошадиган бўлсак, таълим-тарбияни ҳомилалик давридан бошланиши яъни онанинг ҳалол ҳаромга қатъий амал қилган ҳолда озикланиши, фаолиятини онг остида тўғри йўналтира олиши ва ҳомиласига эшиттириб ижобий - ибратли ҳикояларни ўқиб бериши орқали таъсир эта олиш қонуниятидан келиб чиқиб, устоз “ ҳомилалик - эмбрионал давр босқичи бўлғуси шахс учун муҳим аҳамият касб этади” деган иборани ишлатаётганликларига шубҳа йўқ. Мазкур ҳолат дунёга машҳур кўплаб шарқ мутафаккирларини ҳаёт тарзларида учратишимиз мумкин.

Бола дунёга келганидан сўнг уни онтогенезида когнитив жараёнларни ҳаракатлантирувчи механизмларни кетма – кет ривожланишига эътибор қаратиш мақсадга мувофиқдир. Баъзан бир босқични босиб ўтмасдан кейинги босқичга ўтишга ундаш ижобий натижаларга олиб келмайди. Шунини унутмаслик лозимки тажрибани ўзлаштирмасдан, машқларни амалга ошириб бўлмайди, ҳар икки фаолиятни эгалламасдан билим ва малакани эгаллаш мумкин эмас.

Юқоридаги фикрлардан кўриниб турибдики Э. Ғ. Ғозиевнинг шахс онтогенезида когнитив жараёнларни ҳаракатлантирувчи механизм назарияси исбот талаб этишга зарурат мавжуд эмас.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Э. Ғ. Ғозиев. “Психология методологияси”.Т., “НОШИР” 2013й [1, б.201]
2. Э. Ғ. Ғозиев. “ Онтогенез психологияси”.Т., “НОШИР” 2010й [2, б.49]

ЎСМИРЛИК ДАВРИДА КОГНИТИВ ЖАРАЁНЛАРНИ ШАКЛЛАНИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР

Мадаминова Дилрабо

Низомий номидаги Тошкент Давлат
Педагогика Унверситети II – курс магистранти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада ўсмирлик даврида когнитив жараёнларни шаклланишига таъсир этувчи психологик омилларнинг ўрни ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: ёш давлари, мавқе, когнитив, билиш жараёнлари, тафаккур, идрок, хаёл, характер.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается роль психологических факторов, влияющих на формирование познавательных процессов в подростковом возрасте.

Ключевые слова: возрастные периоды, позиция, познавательные, познавательные процессы, мышление, восприятие, воображение, характер.

Ўсмирлик даври шахс онтогенезининг шундай босқичи, унда шахс ўз келажагига асосий пойдеворини фикран кўйиш билан бир қаторда имкониятларини намоён этади.

Мазкур даврни профессор Э .Ғ. Ғозиев қуйидагича таърифлайдилар: “Ўсмирлик ёшида болаликдан катталиқ ҳолатига кўчиш жараёни содир бўлади. Ўсмирда психик жараёнлар кескин ўзгариши билан ақлий фаолиятида ҳам бурилишлар сезилади. Шунинг учун шахслараро муносабатда катталар билан ўсмирларнинг муомаласида қатъий ўзгаришлар вужудга келади. Бу ўзгаришлар жараёнида қийинчиликлар туғилади”. [1, б.177]

Ўсмирлик даврининг психофизиологик ўзгаришларига эътибор бериб кузатадиган бўлсак Э. Ғ. Ғозиевнинг илмий таърифи нақадар тўғри эканлигини гувоҳи бўламиз. Мазкур даврдаги ёшга оид танглик ҳолати билиш жараёнларига қандай салбий таъсир этиш ҳамда улардаги ўзгаришлар ўсмир хулқида намоён бўлишини кўришимиз мумкин.

Ўсмир хулқидаги ўзгаришларнинг Э.Ғ.Ғозиев фикрларича “Ўсмирда шахсий нуқтаи назарнинг вужудга келиши сабабли у катталарнинг, ўқитувчининг қайғуриши, қийинчиликка қарамай, ўзининг фикрини ўтқозишга

ҳаракат қилади. Унинг ўз кадр-қиммати ҳақидаги тасаввури, нарс ва ҳодисаларга муносабати оқилоналикдан узоқлаша бошлайди, у айрим маълумотларни тушунтириб беришни ёқтирмайдиган бўлиб қолади. Серзардалик кундалик хатти-ҳаракатнинг ажралмас қисмига айланади.” [1, б.177]

Устоз таъкидлаганларидек нуқтаи назарни юзага келиши ва серзардалик кундалик хатти-ҳаракатнинг ажралмас қисмига айланиши бевосита ва билвосита ўсмирнинг “мен” лигига бўлган ишончини образли бўртиб кетиши ҳамда билиш жараёнларига нисбатан ишончсизлигини ортиб кетиши табиий ҳол ҳисобланади. Айнан мана шу ҳолат ўсмирлардаги тафаккурни махсулдорлигига тўсқинлик қилиш билан бир қаторда идрокнинг яхлит изланувчанлигига имкон бермайди. Натижада ўсмир дастлабки нуқтаи назарида қатъий туриб олади. Агар унга катталар томонида йўл – йўриқ кўрсатилиб, камчиликлари исботлаб берилса ҳам серзардалик билан ўз фикрини химоя қилади.

Ўсмирлик даврида когнитив жараёнларни шаклланишига таъсир этувчи психологик омиллардан даслабкиси юқорида таъкидлаб ўтилган ёшга оид танглик ҳолати бўлса, иккинчиси уни қуршаб турган ижтимоий муҳит ҳисобланади. Аксар ҳолларда катталар томонидан назоратни кучайиб кетиши ва насиҳатни хаддан ташқари кўпайиб кетишидир.

Катталар томонидан ўсмирнинг фақат салбий ҳатти - ҳаракатларига урғу берилиши ҳамда ўсмир тасаввурига сиғмайдиган маслаҳатларни бериш ўсмир руҳиятида норозиликни юзага келтиради. Бундай вақтларда “Ўзимни фикрим тўғри” деган фикр ўсмир бош миясида доминантлик бўлиши табиий ҳол ҳисобланади. Доминантлик эса ўз навбати бошқа жараёнларнинг фаол фаолиятига тўсқинлик қилиш психологияни кўп тармоқларида ўз исботини топган. Ана шу давр вакилларида ижтимоий муҳитда ўз ўрнига эга бўлишга интилиш юқорилиги натижасида, турли статусларга мослашиш бир мунча қийинчиликларни юзага келтириб, когнитив жараёнларни фаоллигига йўл қўймайди. Шу сабабли ўсмирлик даврида кутилмаган (спонтан) ҳаракат тез – тез кўзга ташланиб туради.

Когнитив жараёнларнинг шаклланишига таъсир этилаётган омиллар бир вақтнинг ўзида ҳам ижобий ҳам салбий таъсир этиш қонунияти мавжуд бўлиб, ташқи ва ички таъсирларнинг ўзига хослиги бевосита ўсмирнинг ҳолати ҳамда қандай қабул қилишига боғлиқ ҳисобланади. Ушбу ҳолат ўсмир психологиясида ўзи билан ўзини чиқиша олмаслик зиддиятларни келтириб чиқаради ва ўсмирнинг когнитив жараёнларига саълбий таъсир этади. Мазкур ҳолатни бартараф этиш, ўзига хос мураккабликни юзага келтиради.

Э. Ғ. Ғозиев таъбирлари билан изоҳланган қуйидагича “Ўсмирнинг психик ўсишини ҳаракатга келтирувчи куч – унинг фаолиятини вужудга келтирганлиги эҳтиёжлар билан уларни қондириш имкониятлари ўртасидаги қарама-қаршиликлар тизимининг намоён бўлишидир. Мана шу диалектик қарама-қаршиликлар ортиб бораётган жисмоний, ақлий ҳамда ахлоқий имкониятлар билан барқарорлашган стереотипга айланган ташқи оламни акс эттиришнинг шакллари ўртасида содир бўлади. Вужудга келган зиддиятлар ва қарама-қаршиликларни, психологик камолотни таъминлаш, фаолият турларини мураккаблаштириш орқали ўсмир шахсида янги психологик фазилатларни таркиб топтириш билан аста-секин йўқотиш мумкин”. [1, б.178]

Юқоридаги фикрдан ҳам кўриниб турибдики ўсмирлик даврида онгли фаолиятини тўғри йўналтириш орқали вужудга келган эҳтиёжларни онгли равишда қондиришга ундаш ва уни асосида когнитив жараёнларни мустақил ривожланишига шароит яратиш мақсадга мувофиқдир.

Ўсмирлик даври шахс ривожланишининг энг мураккаб босқичларидан бири бўлиб у қанчали муваффақиятли ва сермазмун ўтса ўсмирни когнитив жараёнларини муваффақиятли ривожланишига таъсир этиш билан бир қаторда жамиятда ўз мавқеига (статус) эга бўлиши гарови хисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Э.Ғ.Ғозиев. “Онтогенез психологияси”. Т. “Ношир”, 2010й. [1,2,3 б. 177,178]

TEATR RASSOMI BOLTABOY IBRAGIMOV IJODI

Orinov Axmadjon

Kamoliddin Behzod nomidagi, milliy rassomlik va dizayin instituti
Tasviriy san'at fakulteti, Teatr bezagi rangtasviri
kafedrasida dotsenti

Yo'ldosheva Hilola Yunus qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi, milliy rassomlik va dizayin instituti
Tasviriy san'at fakulteti, Rangtasvir (teatr bezagi) ta'lim yo'nalishi
4-bosqich talababasi

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda sog‘liqni saqlash sanoati avvalgidek emas. Bu asosan texnologiya va har kuni joriy etilayotgan ko‘plab innovatsion raqamli yechimlar bilan bog‘liq. Tibbiyot olami duch kelgan bir qancha muammolar uchun ko‘plab texnologik yechimlar taklif qilindi va bular tibbiyot sanoatini sezilarli darajada o‘zgartirdi va yaxshiladi. Tibbiyot olamiga katta ta‘sir ko‘rsatgan ma‘lumotlar to‘plash, davolash, tadqiqotlar va eshitish asboblari kabi tibbiy asboblarning sohasida ko‘plab yutuqlar bo‘ldi. Bugungi kunda texnologiya tufayli turli xil kasalliklarni yaxshiroq va qulayroq davolash, bemorlarga yaxshiroq va samaraliroq yordam berish, sog‘liqni saqlash va kasalliklarni nazorat qilish yaxshilandi. Ushbu maqolada texnologiya tibbiyot olamini o‘zgartirgan turli xil usullar haqida batafsil ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Axborot texnologiyalari, 3D print, tibbiyot, sun‘iy intellekt, katta hajmli ma‘lumotlar, diagnostika, tibbiy xizmatlar, shifoxona, texnologiya.

ANNOTATION

The healthcare industry today is not what it used to be. This is largely due to technology and the many innovative digital solutions being introduced every day. Many technological solutions have been proposed for several problems faced by the medical world and these have significantly changed and improved the medical industry. There have been many advances in data collection, treatment, research, and medical devices such as hearing aids that have greatly impacted the medical world. Today, thanks to technology, better and more convenient treatment of various diseases, better and more efficient patient care, improved health and disease control. This article details the various ways technology has changed the world of medicine.

Keywords: Information technologies, 3D printing, medicine, artificial intelligence, big data, diagnostics, medical services, hospital, technology.

Sog‘liqni saqlash sohasi eng muhim sohalardan biri bo‘lib, uni rivojlantirish ko‘plab, hatto ba‘zida kam uchraydigan kasalliklarni davolashga yordam beradi. Asosan tibbiyot sohasidagi texnologik yutuqlar tufayli insoniyatni chuqurroq tushunish imkonini berdi. Texnologiya inson tanasi haqida ko‘proq ma‘lumot berib, katta rol

o'ynaydi. Biroq, yaxshi va sog'lom kelajakka yo'lni to'xtatadigan boshqa narsalarni hisobga olmasdan taraqqiyot bo'lmaydi. Boshqalar qatorida sog'liqni saqlash xarajatlarining oshishi, tengsizlikning kuchayishi va iqlim o'zgarishi bor. Tibbiy dasturlarda texnologiyaning mavjudligi bemorlar va tibbiyot xodimlari uchun yanada barqaror muhitda yashash va hatto ilgari davolab bo'lmaydigan kasalliklarga qarshi kurashish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Sun'iy intellekt (AI), mashinani o'rganish, virtual parvarishlash, tibbiy narsalar Interneti va 5G kabi texnologiyalar tibbiyot muassasalarini yaxshilaydigan bir nechta misollardir.

3D bosib chiqarish - Bugungi kunda 3D bosib chiqarish texnologiyasi yordamida suyaklar va ayrim ichki organlarni ko'paytirish mumkin. Keyinchalik bu sun'iy organlar va suyaklar kasal yoki muammoli joylarni almashtirish uchun bemorning tanasiga kiritilishi mumkin. Jarrohlar, shuningdek, bemorlarning tanasida nima sodir bo'layotganini yaxshiroq tushunish uchun 3D bosib chiqarish texnologiyasidan foydalanadilar. 3D model yordamida jarrohga muammoni chuqurroq ko'rib chiqish va bemorga haqiqiy operatsiyani amalga oshirishdan oldin amalga oshirilishi mumkin bo'lgan turli xil echimlarni yoki mumkin bo'lgan operatsiyalarni simulyatsiya qilish sezilarli darajada osonlashadi. Xuddi shunday, 3D bosib chiqarish protezlashda inqilob qildi. 3D printer bilan moslashtirilgan protez qo'l yoki oyoqni olish sezilarli darajada arzon. Endi har yili tashqariga chiqib, yangi protez qo'l o'rnatish o'rniga, masalan, o'sib ulg'ayganida turli modellarga muhtoj bo'lgan bola uchun protez qo'llarni buyurtma qilish mumkin. Bundan tashqari, 3D bosib chiqarish sanoatida amalga oshirilayotgan ulkan ishlanmalar tufayli ushbu texnologiya bilan bog'liq xarajatlar kundan-kunga kamayib bormoqda.

Katta ma'lumotlar hozir juda katta shartnoma. Tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasida ma'lumotlar hamma narsadir. Mavjud juda ko'p ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular tahlil qilinganda umuman sog'liqni saqlash sohasi holati haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Masalan, bemorning davolanish tarixini o'rganish orqali shifokorlar aniqroq tashxis qo'yishlari va yaxshiroq davolash usullarini taklif qilishlari mumkin.

Masofaviy monitoring - Bugungi kunda shifokorlar va hamshiralar bemorlarning real vaqt rejimida ma'lumotlarini yozib olish va ularning kasallik tarixini bir zumda yangilash uchun qo'l qurilmalaridan foydalanadilar. Bu aniqroq va samaraliroq tashxis qo'yish va davolash imkonini beradi. Bemorning muhim ma'lumotlari va laboratoriya natijalarini markazlashtirish sog'liqni saqlash sifatini chindan ham yaxshiladi. Ba'zi bemorlar uchun harakatlanish juda qiyin. Kasalxonaga takroriy tashriflar ham ularning moliyaviy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masofaviy monitoring texnologiyasi yordamida bemorlar o'z uylarida qulay sharoitda shifokorga bemalol kirishlari va maslahat olishlari mumkin. Bu ko'p vaqt va pulni tejaydi. Shifokor

ma'lum bir masalani masofadan turib kuzatishi mumkin, masalan, qon bosimi darajasini aniqlash va shu bilan kasalxonaga borish zaruriyatini bartaraf etish. Ushbu texnologiya, ayniqsa, yurak stimulyatori bilan og'rigan bemorlar uchun juda foydali bo'ldi.

Texnologiya tibbiy tajribalarni o'tkazish usulini tubdan o'zgartirdi. Yillar o'rniga, tajribalar endi oylar yoki haftalar davom etadi. Buning sababi shundaki, endi butunlay inson ko'ngillilariga ishonish o'rniga, insonning ma'lum bir doriga bo'lgan reaksiyalarini simulyatsiya qilish mumkin. Inson versiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan shimpanze adenovirusi kabi innovatsiyalar tajriba tezligini inqilob qildi. Ebola epidemiyasi tajribalarni sezilarli darajada tezlashtirish mumkinligini isbotladi. Dunyo bo'ylab avj olish qo'rquvi va tezda oldini olish zarurati tufayli tadqiqotchilar qutidan tashqarida o'ylashdi va rekord vaqt ichida Ebola vaktsinasini yaratishga olib keladigan innovatsion echimlarni taklif qilishdi.

Mobil ilovalar - Bugungi kunda innovatsion ilovalar yordamida shaxsiy salomatlikni kuzatish mumkin. Siz kaloriyalaringizni hisoblashingiz, uyqu rejimini kuzatishingiz, yurak urish tezligini kuzatishingiz yoki hatto masofadan turib shifokor bilan maslahatlashingiz mumkin. Shifokorlar bilan muloqot qilish uchun ijtimoiy media ilovalari va bemorlarni shifokorlar bilan bog'laydigan ilovalar mavjud. Ilovalar sog'liqni saqlash sohasini tez o'zgartirmoqda, deyish kamtarlikdir. Bugungi kunda tarixdagi har qanday vaqtga qaraganda yaxshiroq va qulayroq davolash usullari mavjud. Bu asosan texnologik innovatsiyalar bilan bog'liq. Xuddi shu yangiliklar davolashning boshqa yanada yaxshi yo'llarini o'rganish va tadqiq qilish imkonini berdi, shuning uchun sog'liqni saqlash sanoati har kuni yanada yaxshi samaradorlik sari qadam tashlamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Wikipedia (Internet) (Cited 2012 February 01). Available from: <http://en.wikipedia.org/wiki/Ophthalmology> . 2009.
2. Encyclopedia Britannica. (Internet) (Cited 2012 February 01). Available from: <http://www.britannica.com/EBchecked/topic/430067/ophthalmology> . 2010.
3. International Foundation for Information Technology. (Internet) (Cited 2012 February 01). Available from: http://www.if4it.com/SYNTHESIZED/GLOSSARY/I/Information_Technology_IT.html . 2008.
4. National Institutes of Health National Center for Research Resources. (Internet) (Cited 2012 February 01). Available from: <http://www.ncrr.nih.gov/publications/informatics/ehr.pdf> . 2010.

5. Arden GB. The use of computers in ophthalmology: an exercise in futurology. *Trans Ophthalmol Soc U K*. 1985;104:88–99. [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
6. Rajeev B. Computers in ophthalmology practice. *Indian J Ophthalmol*. 1998;46:163–168. [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
7. Dick B, Eisenmann D, Tekaat CJ, Grote A. Ophthalmological information exchange of letters and digital pictures via the Internet. *Klin Monatsbl Augenheilkd*. 1996;209:aA7–a15. [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]
8. Mainster MA, Sewell JJ. Small computers in the private ophthalmic practice. Practical considerations. *Surv Ophthalmol*. 1980;24(5):315–321. [[PubMed](#)] [[Google](#)]

YOSH AVLODNI-VATANPARVARLIK RUXIDA TARBIYALASHDA MUSIQANING O‘RNI

Qambarova Mahliyo Abdurahmon qizi

Namangan davlat universiteti Musiqa ta’limi va madaniyati fakulteti
Musiqa ta’limi yo‘nalishi MUZ-BU-21 guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbek xalqining orzu umidlari musqa orqali ifodalab berilgan.. Musiqa bu tarbiyaning eng faol turi hisoblanishi, Bola tug‘ilgandan so‘ng ilk bor ona allasini tinglab orom olishi, ona allasiga Vatanga muhabbat, ona yurtiga sadoqat kabi insoniy tuyg‘ular mujassamligi,.

Kalit so‘zlari: Musiqa, san‘at, el, jamiat, burch, komil, qadimiy, yoshlar, vatanparvarlik.

АННОТАЦИЯ

В данной статье через музыку выражаются мечты и надежды узбекского народа. Музыка считается самой активной формой воспитания, после рождения ребенка это первое время отдыха, слушая музыку матери, любовь к Родине, верность Родине. ‘свое воплощение.

Ключевые слова: Музыка, искусство, нация, община, долг, совершенство, древность, молодежь, патриотизм.

ANNOTATION

In this article, the dreams and hopes of the Uzbek people are expressed through music. Music is considered the most active form of education, after the birth of a child, it is the first time to rest listening to the music of the mother, love for the motherland, loyalty to the motherland. ‘their incarnation,.

Key words: Music, art, nation, community, duty, perfect, ancient, youth, patriotism.

Musiqa - hech narsa bilan o‘lchab, solishtirib bo‘lmaydigan beqiyos ilohiy ta’sir kuchiga ega.

Shavkat Mirziyoyev

Yangi O‘zbekistonda kishilik jamiyati rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimizning ertalarini vatan parvarlik ruxida tarbiyalash ularni teran fikrlay oladigan yetuk farzandlar qilib tarbiyalashimis siz-u bizni burchimiz hisoblanadi. Musiqa ta’limi va tarbiyasi o‘quvchi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Shu o‘rinda biz o‘zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq, boy tarixga ega ekanligini ta’kidlab o‘tishimiz joizdir. Sababi, tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an’anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo‘llari, shuningdek, folklor- havaskorlik musiqiy merosi singari shaklangan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko‘rinishlari bir-birini to‘ldirib kelmoqda va ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma’naviy madaniyatimizning bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Musiqa ellarni-ellarga, dillarni-dillarga bog‘lovchi, kishi estetik didini tarbiyalovchi hamda madaniy saviyasini oshiruvchi mo‘jizaviy vositadir. Musiqa bu tarbiyaning eng faol turi hisoblanadi. Bola tug‘ilgandan so‘ng ilk bor ona allasini tinglab orom oladi. Ona allasiga Vatanga muhabbat, ona yurtiga sadoqat kabi insoniy tuyg‘ular mujassamdir. Musiqa ta’limi va tarbiyasi o‘quvchi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san’ati milliy musiqa san’atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog‘liq holda paydo bo‘lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san’at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an’anaviy ruhdagi qo‘shiqlari o‘lmas meros bo‘lib, barcha davrlardagidek bugun ham “labbay” deb javob bermoqda. Lekin, shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo‘shiqlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlanishida bosh omillardan bo‘lmish musiqiy san’at bilan shug‘ullanayotgan barcha mutaxassis va san’atkorlarga muhim vazifa qilib qo‘yilishi tabiiydir. Mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yuubordi. Biz yangi jamiyat qurar ekanmiz, Vatanimizning kelajagi bo‘lmish barkamol avlodning tarbiyasi biz uchun juda muhimdir. Uning dunyoqarashini rivolantirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash bizning asosiy vazifalarimizdandir. Shuningdek XXI asrni “Intellectual yoshlar asri” deb nomlanishi ham bejiz emas. Ertangi kun egalari bo‘lgan yoshlarni har tomonlama bilimli va

salohiyatli, tanlagan kasbining ustasi bo'lishi uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Shunday ekan, yoshlarning to'g'ri tarbiya topishida, millatimiz va Vatanimizga sadoqat ruhida ulg'ayishida musiqa va san'atning o'rni beqiyosdir. Bundan tashqari, musiqa nafaqat insoning tarbiyasiga, balki, uning salomatligiga ham ulkan ta'sir qiladi. Hatto qadimgi odamlar ham san'atning shifobaxsh ta'siri borligini bilishgan! Masalan, Qadimgi Yunonistonda Pifagor o'zining Krotone universitetida kunni qo'shiq kuylash bilan boshlar ekan. Sababi, musiqa ertalab ongni uyqudan tozalash va faollikka rag'batlantirishga, kechqurun - tinchlanish va dam olishishiga xizmat qilar ekan. Qadimgi zamonlarda musiqa va tibbiyot markazlari odamlarni melankolik, asab kasalliklari va yurak-qon tomir tizimi kasalliklaridan davolagan ekan. Musiqa aqliy rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi, inson aql-zakovatini uchun ma'sul bo'lgan hujayralar o'sishini tezlashtiradi. Pifagor maktabida matematika darslari musiqa sadolari bilan birga olib borilishi bejiz emas, bu esa miyanning samaradorligi va aqliy faoligini oshiradi. Nafaqat qadimda, biz yashab turgan jamiyat taraqqiyotida musiqa va san'atning o'rni beqiyosdir. Har bir millat va ellatlarni birlashtiradigan, an'analarimizni mustahkamlaydigan ham mana shu hisoblanadi. Har qanday ko'ngilni o'ziga rom eta oladigan, insonlarning qalbiga ezgulik urug'ini ekib, boshqa yomon illatlarga qarshi kurashadigan ham musiqa desak mubolag'a emas. "Komil musiqa qalbni shunday larzaga keltiradiki, bu hissiyotni sevimli mavjudotlardan bahra olayotgan kabi holatda bo'lgandek his etasiz, ya'ni musiqa so'zsiz, dunyoda bor bo'lgan eng yorqin baxtni ato etadi", - degan edi Stendal

Musiqa o'qituvchilarining asosiy maqsadi bolalarga musiqa tarbiyasi orqali musiqiy ta'lim berish, ularning iqtidorini rivojlantirish. Faqat yetuk mutaxassis bolalarni to'g'ri tarbiyalay olishi mumkin. Musiqa o'qituvchilarini har taraflama yetuk shaxs qilib tayyorlashda, "Musiqa o'qitish metodikasi" fanining o'rni beqiyos. . Shu bois talabalar bilan uslubiy yo'naltirish mashg'ulotlari uchun imkoniyatlari oz emas. Masalan: Asosiy cholg'u asbobi sinfida talabalarni o'rganilayotgan asarlarni tahlil qilish, bilim va malakalarini samarali rivojlantirish mumkin. Ovozni yo'lga qo'yish mashg'ulotlarida esa turli yoshdagi bolalarning tovush xosil qilish va uni saqlash va

shakllantirish usullari va imkoniyatlarini ko‘rib chiqish zarur. Shu o‘rinda musiqa bilan faqat musiqiy qobiliyati bor bolalar shug‘ullanishi kerak, degan fikr yanglish yekanligini aytishimiz kerak. Tarbiya jarayonida bolalar faolligiga, shijoatiga, ishga ijodiy munosabatda bo‘lishiga katta ahamiyat beriladi. Chunki bolalar o‘z faolliklarini namoyon qilishi extimoli bo‘lgan pedogokik metodlarni qiziqish bilan qabul qiladilar. Musiqa o‘qituvchisi, xar bir o‘qituvchi kabi, o‘z fanini kundalik xayot, dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar bilan bog‘lab olib borishi kerak. Umumta’lim maktablarida musiqiy ta’lim – tarbiyaning muhim vazifalaridan biri – o‘quvchilarda musiqa san’ati vositasida milliy g‘ururni shakllantirish va o‘stirishga erishishdir. Ushbu jarayon musiqa darsidagi musiqiy faoliyatlarning barcha turlari asosida amalga oshiriladi. Masalan, har bir kuy yoki qo‘shiqni o‘rganish uchun uni, avvalo, eshitish, ohangga hamda uning matniga e’tibor berish, uni o‘rganib tahlil qilish, musiqiy rivojiga quloq solish, musiqaga cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish, asarga o‘z munosabatini bildira olishi muhimdir. Demak har bir yosh bolalarni musiqaga qiziqтира olsak uning dunyo qarashini, fikirlashiga, o‘zimizning ozgina bo‘lsada hissamizni qo‘shgan bo‘lar ekanmiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mas’ul maharirlar: A.Haydarov, I.Yuldashev. “Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san’atning o‘rni” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya maqolalar to‘plami. “Oltin meros Press” nashriyoti. 2020.447 bet
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida gi PQ- 112-sonli qarori. www.lex.uz
3. “O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi Respublika 18-KO‘P tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari. 2020. Toshkent. Musiqa va Hayot. 15-qism

THE JONES STUDIO ARCHITECTURAL COMPANY CREATED A SCHOOL INTERIOR AND THE EFFECT OF COLORS ON CHILDREN IN IT

Saidyusupova Maftuna Farkhadovna

Teacher National art and design institute named after Kamoliddin Bekhzad

ABSTRACT

The architectural firm Jones Studio was selected in 2004 to design a new building for Desiderata Alternative High School. This school is designed for 125 students with developmental disabilities. Its interior and colors are made based on children's mental state.

Key words: Learning process, necessary knowledge, boarding school, modern interior, aesthetic effect of environment, brightness and proportion.

The Jones Studio Architecture Company was selected in 2004 to create a new Desiderata Alternative High School building. It was designed for 125 developmentally disabled students.

In the educational process, they not only receive education, but also learn from the necessary knowledge in everyday life. Was located in the built building. It moved to a new building in 2004. The building interior was built into the study plan. Management rooms, training classes, rooms where sports classes take place and treatment zones were also decorated in their own way. One of the solutions was that the architects created inner courtyards full of plants. It is inside these courtyards that the open-air lecture halls are located. Light hatches on the roofs fill the room with daylight. The stained glass in the interior creates a specific specific environment for obtaining new knowledge.

This is the case when such low-funding interior solutions are used both in boarding schools in Uzbekistan, and there is an opportunity for the student to avoid annoying embarrassment, as well as to feel and evaluate the game of visual colors. This, in turn, allows students to achieve the desired results, relieving the process of mastering classes, giving them a special mood and positively affecting their psyche. Of course Sergio interiors can make new ideas come into the world. Students of boarding schools spend months both living and studying in this institution, a simple interior leads to their boredom, mental exhaustion, homesickness. And as a result of this, children's assimilation of classes is slowed down. Therefore, we think that new achievements and

positive results will be achieved if the architectural solutions used in the construction of the Desiderata Alternative high school are applied in our country.

In the work of the author, the presence of architectural presence in the historical development of the graphic cartoon goes through control, on the example of which the main legal principles of architecture are manifested, the foundation of new principles in the structure of architectural projects is carried out taking into account the means of designing architectural objects. A.V. In ponkrateva's work to design a modern interior: a modern interior is a functional cultural world in which things and equipment are in harmony with each other in color. The functionality of the modern interior lies in the fact that the comps of these laws are put into one system, in which the process of specific life activities in people, unlike the vital World, is taken into account, and this process is carried out at the same stage as the development of culture.

The principle of " design " is based on the optimal laws of organizations. In this formula, the concept of design has a clear understanding. The design is similar to poetic tonality, exploring the juxtaposition of each piece of equipment, without touching their composition. Thing-becomes a certain character in the system of placement of items. Under Optimal conditions, such signs can be accurately calculated.

The aesthetic impact of design-environment is important in the formation of the personality of the student, intellectual mental potential, physical and mental development. When designing environmental design of children's educational institutions, it is necessary to take into account that it affects the comprehensive formation of the child's personality. This design should serve to fulfill certain tasks of education and to bring to the surface special additional medical, pictorial, physical, environmental, domestic production, mental physical capabilities, and at the same time give the child aesthetic pleasure. From a historical pedagogical point of view, the understanding of the design of the surrounding project is summed up on the basis of the requirement of the child, who is first formed as a person in the educational and educational relations of society. This primarily ensures a high level of condition in the process of its active life activity in the visual functional comfort of the building. This condition manifests itself in the form of a positive emotional impact, and the signs of adequacy of the Environmental Design, in which the child is invited, affect his feelings for the individual capabilities of the physical-mental, mental, task. There is such a concept that children are fed from colors like a real medicine. Adults are tired of work every day and strive for soft colors. And children are presented with brightness and proportion. When decorating the interior of children's educational buildings by choosing a design color gamut, it is necessary to take into account the following. Sensory development is the main factor in the gradual growth of the child. This is due to the activity of the organs of perception of the development of reception. In this case,

when equipping an item, it is necessary to pay attention to: color, shape, volume, taste, etc.k.

Conclusion. The search and analysis of Interior and design elements suitable for school-age children, attractive, encouraging and stimulating creativity showed that it is necessary to change the interiors of all boarding schools in our country and take into account the opinion of the Masters of their work, future architects and just creative children, taking it into account not just, but creatively. Because the opinions of children who get special in these schools are important. It is the task of an adult to come to the right solution and create a child-friendly environment with a thorough development of the right economic side.

REFERENCES

1. Змановских Э.В. Художественные приемы и технологические средства в дизайне интерьера общественных зданий. Автореферат дисс.на соискание ученой степени канд.технических наук// Санкт-Петербург: 2009 г. – 20с
2. Калмыков Д. Методы проектирования в дизайне и разработка дизайн-концепций.
3. Пономарева Е.С. Интерьер гражданских зданий. – Минск:Вышэйшая школа, 1991. – 255 с.
4. Гарипова С.Р., Кириенко М.В. Влияние визуальной среды интерьера на психологические характеристики учащихся. Сб. трудов. – Уфа: БашГАУ, 2002. – с. 69-73.
5. Романова Г.С. Влияние цвета на человека. Источник: Промышленный дизайн - 2008 / Материалы доклада. - Донецк, ДонНТУ - 2008, с.20.
6. Лакшми Бхаскаран. Время и дизайн/ стили и направление в современном искусстве и архитектуре//Пер. с англ. И.Д. Голыбина .
— М.: «Издательство АРТ-РОДНИК»,2006. - 204 с.
7. Кирш И. Красивая школа: идея и практика // Дидакт. – 2000. – № 5. – С. 60-67.
8. <http://www.catsparella.com>
9. <http://psypress.ru>
10. <http://iqrate.com>
11. <http://arteluca.ru/svetovoj-dizajn-interera>
12. <http://www.oknabober.ru>
13. <http://ru.wikipedia.org>

LINGUOCULTURAL ASPECT OF IDIOMATIC COMPOUND WORDS

Azimova Nigora Ilxomovna

M.LNI-AU-21 Lingvistika (ingliz tili), 601-guruh talabasi

ANNOTATION

The present article is devoted to investigation of English and Uzbek idiomatic expressions or phraseological units which contain culture-related information. They were divided into main groups: idiomatic expressions with the structure of knowledge related to religion, myths and legends, literature, geography, history and culture.

Keywords: idiom, idiomatic expression, phraseological unit, semantics, structures of knowledge, linguo-cultural content.

The objectives of the research: English and Uzbek idiomatic expressions with linguocultural content. The following methods of the research were used: descriptive method, comparative and cross-cultural analysis. Results obtained: linguocultural information in the semantics of English and Uzbek idiomatic expressions has been revealed and approved by numerous examples. Conclusion: the structures of religious, mythological, historical, literature-related, geographical and national-specific knowledge have been defined in the meaningful content of idioms.

Idiomatic expressions differ from common word combinations by their fixed structure and stability of the components. Idiomatic expressions or idioms are often called “phraseological units” or “phraseologisms” in linguistic issues. Such units directly reflect people’s culture, way of their life, they are so called “national spirit” of a definite nation.

Phraseology, which is the branch of linguistics that studies idiomatic expressions or phraseological units, always deals with national-cultural content of a language system. It is connected with history of the nation and reveals national mentality of native language speakers.

The semantic or meaningful essence of idioms is a huge store of knowledge, which turns to be topical and is disclosed in the process of communication thus giving a chance to a reader/listener to comprehend the meaning of this or that phraseological unit. For example, let’s analyze the English idiom Damon and Pythias, which means “very close friends”, “good friends”. When we call two friends by this expression we mean that they are very close and faithful to each other. In the Uzbek language such friends are called

by a similar expression: иккаласи бир тешикка тупуради. But this idiom belongs to a colloquial style and can't be used in literary or official style.

In the meaning of idiomatic expressions different aspects of language can be disclosed: religious-moral, social, mythological, historical, etc. Such language units convey significant knowledge about the world picture and people.

Awareness of the special national and cultural identity of phraseological units, initially intuitive and a priori, accompanied phraseology from the very beginning of this linguistic discipline at all stages of its development. Thus, the development of various approaches to the identification of national-cultural feature in phraseology corresponded to the stages of development of the language image in linguistics.

The interests of linguistics are focused on the background knowledge of native speakers and on non-equivalent vocabulary. Background knowledge is defined as "knowledge of the realities of speakers and listeners, which is the basis of language communication". When studying phraseology in linguo-regional studies, extralinguistic factors reflected in the component composition of phraseological units are identified and classified.

Special attention to the plan of expression of phraseological units highlights the meaning of historical and etymological interpretation of elements or prototype of phraseological units. Within the framework of the linguistic-cultural approach, the national-cultural originality of phraseological units is expressed in the mention of certain extralinguistic realities that are characteristic of this culture and belong to the background knowledge of native speakers.

Literature has also enriched English phraseology by original images. Names and family names, even nicknames of personages of novels, poems, fairy tales are used in phraseological units to characterize people with similar personal qualities. The work of the great English writer William Shakespeare undoubtedly enriched English phraseology with its unique images and phrases: come out-Herod Herod – to surpass Herod in cruelty; play the jack (or Jack) with somebody – to cheat, deceive someone; Hamlet with Hamlet left out – something devoid of its essence; Hamlet without the Prince of Denmark – something devoid of its essence; king's (Queen's) English – literary English; Cordelia's gift – a soft, gentle female voice; A Daniel come to judgment – an honest, righteous judge (in modern language used ironically):

'I shall have to toss for it'. He tossed a penny in the air, 'Muriel will call', said her father in the tone of a Daniel come to judgement (Compton Mackenzie, "The Rival Monster").

Shakespeareanism includes the following expressions for men and women: men in buckram – fictional people (for the sake of bragging); dance barefoot – stay an oldmaid;

curled darlings – rich suitors, rich idlers; the faithful Adam – a faithful, old servant (named after a character in the Comedy of W. Shakespeare "As you like it"); better a witty fool than a foolish wit – better a witty fool than a stupid wit; it's in his buttons – he's lucky, he'll be a success.

However, in modern English phraseology, such units may experience some changes associated with the constant development of the language system: chartered libertine – a person who is allowed to do whatever he wants. The genius and talent of Shakespeare is confirmed by the fact that the images, names, situations and sayings created by him entered not only his native English, but also other languages of the world.

From the novel by Charles Dickens "Oliver Twist" in English phraseology appeared a unit with the nickname of the pickpocket John Dawkins: an Artful Dodger – a scoundrel. Another phraseological unit is associated with the hero of the novel "David Copperfield": King Charles's head – an idea, the subject of insanity. In the novel "Little Dorrit", Charles Dickens calls the bureaucratic institution the Circumlocution Office. The writer John Poole was the creator of the phraseological unit Paul Pry – a man who pokes his nose into other people's affairs, too curious person.

And the famous phraseological unit man Friday (the faithful servant) carries an etymology from the novel "Robinson Crusoe" by Daniel Defoe. That was the name of Crusoe's loyal assistant. In modern phraseology, man Friday means a dedicated assistant in all matters. By analogy, the phraseologisms girl Friday was created – a loyal assistant (usually about a girl secretary).

Thus, the character of a proper name is determined by many factors: the geographical environment, culture, history, and religion of the people.

These are just some examples which describe and disclose history and culture of people. In the modern English and Uzbek languages there are hundreds of similar examples of idiomatic expressions which are closely connected with history, geography, literature, myths and legends, religion and culture. They are very interesting for both lingual-cultural investigations and self-learning and broadening one's outlook as well.

REFERENCES

1. Artyomova A.F., Leonovich O.A. Proper names in phraseological units // Foreign languages at school. – 2003. – № 4. – P.73-78.
2. Ermolovich D.I. Proper names in the language style. – Moscow: R. Valent, 2001. – 200 p.
3. “Woman in myths and legends” // Encyclopedic dictionary. The author: O.P. Valyanskaya and others. – Tashkent, 1992. – 302 p.
4. Kubryakova E.S. Language and knowledge. On the path of acquiring knowledge of language: parts of speech from a cognitive point of view. The role of language in the knowledge of the world. Moscow: Languages of Slavic culture, 2014. – 560 p.
5. Kunin A.V. English-Russian phraseological dictionary. In three books. – Moscow: SE, 1967. – Book 1. – 738 p.; Book 2. – 739-1264 p.

AVTOMOBILLARDA VODOROD ENERGIYASIDAN FOYDALANISH USULLARI

Jurayev Baxodir Botirovich

QarMII assistenti

Jumayev Shaxzod Shavkat o'g'li

QarMII stajyor o'qituvchisi

Yangiboyev Asilbek Ergash o'g'li

QarMII magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada avtotransport vositalarining atrof-muhitga ta'siri, ularni kamaytirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar va vodorod energiyasidan avtotransport vositalarida foydalanish yo'llari tahlil qilingan. Shu bilan birgalikda vodorod energiyasidan foydalanish natijasida avtotransport konstruksiyasida kuzatilgan o'zgarishlar taqqoslash orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Vodorod, transport vositasi, IYoD, yonilg'i elementi, yashil iqtisodiyot, atrof-muhit.

Bugungi kunda energiya resurslariga bo'lgan talab tarkibiy jihatdan o'zgarmoqda, xususan uglevodorod resurslaridan qayta tiklanuvchi manbalarga o'tishda vodorod energetikasini rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu bilan birga, soha holatining tahlili iqlim o'zgarishi sharoitida respublikada samarali, resurstejamkor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta'minlash bilan bog'liq muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Respublikada vodorod energetikasi infratuzilmasini barpo etish, qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasi sohalarida ilmiy va amaliy izlanishlarning natijadorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishini ta'minlash bo'yicha bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda[1].

Yashil iqtisodiyot - bu ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, lekin ko'proq siyosiy jihatdan qo'llaniladigan yo'nalishga ega[2].

Har qanday iqtisodi rivojlangan davlatlarda birinchi navbatda transport sohasi rivojlanganligini, sanoat rivojlanishida transport vositalari asosiy lokomotiv hisoblanishini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa avtomobil transporti dunyo xalqlari va iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli zamonaviy turdagi avtomobillar kun sayin ko‘payib, qulayliklari oshib bormoqda.

Avtomobillar sonining oshishi qulayliklarni oshirishi bilan birgalikda bir qator global muammolarning birlamchi manbai bo‘lmoqda. Global isish, havoning ifloslanishi, har xil ichki kasalliklarning ko‘payishi va uglevodorodli yonilg‘ilarning cheklangan resursi an’anaviy yonilg‘ilar o‘rniga muqobil yonilg‘ilardan foydalanishni, yoki gibrid avtomobillar, elektromobillar hamda vodorod avtomobillardan foydalanishni taqozo etmoqda. Bu esa iqtisodiy samaraga erishishga, resurslardan oqilona foydalanishga, transport vositalarining atrof-muhitga keltirayotgan zararni qisqartirishga yordam beradi.


So‘ngi yillarda olimlar vodorod yonilg‘isini transport vositalarida qo‘llash yuqoridagi muammolarning yechimi bo‘lishini ilgari surmoqdalar. Chunki, vodorod yuqori energetik quvvatga egaligi, yonganda yonish mahsuloti sifatida suvning ajralib chiqishi, vodorodning tabiiy resursi yer yuzasida ko‘pligi boshqa turdagi yonilg‘ilardan ustun jihatlarini ifodalaydi. Vodorod yonilg‘isidan foydalanishning afzalligi shundaki, vodorodda ishlaydigan dvigatellarning muhim xususiyati—bu ekologik tozalik hisoblanadi. Vodoroddan foydalanish uglevodorod yonilg‘i turlaridan foydalanishdagi atrof-muhitga tushadigan chiqindilar ko‘rinishidagi barcha zararli moddalardan xolos etadi.

Ichki yonuv dvigatellarida vodoroddan yonilg‘i sifatida foydalanish g‘oyasi yangilik emas. 1806-yilda Fransiyada Isaak de Riva tomonidan vodorod yonilg‘isida ishlaydigan birinchi dvigatel ixtiro qilindi va patentlashtirildi. Ammo toza vodorod olishda energiya sarfining yuqoriligi, olingan vodorodni saqlashda o‘ta zich idishlar yaratish, foydalanish zarurati, keng miqyosda infrasturukturaning mavjud emasligi kabi qator sabablarga ko‘ra vodorod yonilg‘ili avtomobillar rivojlanishi to‘xtab qoldi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib bir qator global muammolar yana vodorod energiyasidan foydalanishga e’tibor qaratishni taqozo etdi. Bu sohada ko‘plab avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘z avtomobillarini ishlab chiqardilar. “Hondo”, “Toyota”, “Hyundai” va boshqa taniqli ishlab chiqaruvchilar shular jumlasidandir[3].

Transport vositalarida vodorodni yonilg‘i sifatida bir qancha usullar orqali qo‘llash mumkin:

- faqat vodorodning o‘zidan foydalanish;
- vodorodni boshqa yonilg‘i turlari bilan aralashtirilgan holda foydalanish;
- vodorodni yonilg‘i elementida qo‘llash orqali foydalanish.

Mavjud ichki yonuv dvigatelli avtomobillarda vodorodni qo'llash uchun qo'shimcha jihozlardan vodorodni ta'minlash tizimi va uni saqlash uchun idish o'rnatiladi(1-rasm).





1-rasm. Vodorodli ta'minlash tizimi

Bunday usul yonilg'i sifatida ham vodoroddan va benzindan ham foydalanishga yo'l beradi. Toza vodorodda ishlagan avtomobillarda dvigatelning quvvati ortadi, ajralib chiqayotgan chiqindi gazlar miqdori deyarli bo'lmaydi. Bunday usuldan "BMW" va "MAZDA" kabi avtomobil ishlab chiqaruvchilar o'zlarining vodorodli avtomobillarida foydalanganlar.

Vodoroddan an'anaviy uglevodorod yonilg'isi bilan aralashgan holda foydalanish mumkin. Bunday metoddan foydalanish ichki yonuv dvigatellarini toza vodorodda ishlash metodidagi muammolar bilan bog'liq bo'lib, benzin yoki dizel yonilg'isini sezilarli iqtisod qilishga olib keladi. Vodorodni an'anaviy yonilg'ilar bilan aralashtirilgan holda qo'llash tashqi muhitga chiqarilayotgan chiqindi gaz miqdorining ham kamayishiga olib keladi.

Yuqoridagi ikki usulda vodoroddan foydalanganimizda avtomobillardan atrof-muhitga zararli ta'sir, portlash xavfi, shovqin kabi omillar saqlanib qoladi. Shundan kelib chiqqan holda ko'plab mutaxassislar va avtomobil ishlab chiqaruvchilar yonilg'i elementlaridan foydalanib ishlaydigan avtomobillarni eng maquli deb tan olishadi. Vodorod bilan kislorod qurilmada yonilg'i elementi deb ataluvchi birikma hosil qiladi, natijada elektr toki hosil bo'lib elektrodvigelga tushadi hamda avtomobilni harakatga keltiradi. Bu jarayonning qo'shimcha mahsuloti suv hisoblanib, bug' ko'rinishida

tashqariga chiqariladi(2-rasm). Vodorodda elektrolit anod (-), kislorodda elektrolit katod (+) hosil bo‘ladi:



2-rasm. Yonilg'i elementi va uning ishlashi

Yonilg'i elementlari transport vositalarida qo'llaniladigan asosiy quvvat manbalaridan biri hisoblanadi. Ichki yonuv dvigatellari bilan taqqoslaganda yonilg'i elementlarining samaradorligi yuqori va atrof-muhitga zararli ta'siri esa ancha past hisoblanadi[4].

“Yashil” energetika nuqtayi nazaridan yonilg'i elementlarining foydali ish koeffitsiyenti (FIK) o'ta yuqori – 70-90%. Qiyoslash uchun: eng yaxshi ichki yonuv dvigatellari FIK 35-40%ni tashkil etadi. Quyosh fotoelektr stansiyalari uchun FIK atigi 15-20% bo'lib, ob-havo sharoitiga bog'liq. Eng yaxshi shamol elektr stansiyalarining FIK 40%gacha yetadi, lekin shamol stansiyalari ham qulay ob-havo sharoitini va qimmatbaho xizmat ko'rsatishni talab qiladi[5].

Xulosa sifatida shuni ta'kidlashimiz kerakki, zamonaviy dunyoni transport vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Transport vositalari kirib bormagan iqtisodiyot sohasining o'zi yo'q. Ammo transport vositalarining ortib borishi bilan atrof-muhitga va insonlar salomatligiga zararli ta'sirlar miqdori ham ortib bormoqda. Bunday zararli ta'sirlarni kamaytirish bo'yicha rivojlangan mamlakatlarda, shu jumladan bizning

yurtimizda ham bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunday bo'lsada bu tadbirlar yetarli bo'layotgani yo'q. Salbiy oqibatlar ta'sirini kamaytirishning asosiy yo'llaridan biri bu vodorod yonilg'isida ishlaydigan avtotransport vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishdir. Shunda tabiatimizni ham, insonlar salomatligini ham asrab qolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5063-son Qarori.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashil_iqtisodiyot
3. O'.R. Boynazarov, "Muqobil energiya avtomobillari", Toshkent, Voris nashriyoti-2020y, 203bet.
4. Mehrdad Ehsani, Yimin Gao, Stefano Longo, Kambiz M. Ebrahimi, "Modern Electric, Hybrid Electric, and Fuel Cell Vehicles". Third Edition. CRC Press Taylor & Francis Group, 2018 year, 573 page.
5. Gavin D.J. Harper "Fuel Cell Projects for the Evil Genius" 2008 year.

ASALARICHILIK VA ASALARI SUTI HAQIDA

Ishanqulova Dilafroz Ulugbek qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
Zoologiya va anatomiya kafedrası o‘qituvchisi,

Mamadaliyeva Ug‘iloy Utkir qizi

Biologiya va uni o‘qitish metodikasi yo‘nalishi 1 – kurs talabasi

Mamatkulova Dilobar Odiljon qizi

Biologiya va uni o‘qitish metodikasi yo‘nalishi 1 – kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola asalarichilik tarixi, asalarichilikning rivojlanishi, asalarilar yordamida harbiy texnikada foydalanish tartibi, asalari suti haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Asalarichilik tarixi, asalarilar suti, *Apis mellifera mellifera*, *Apis mellifera carpathica*, *Apis mellifera carnica*, *Pollmann*

Apikultura, yoki asalarichilik bu asalarilarni insonlar yasagan uyalarda kam mehnat, vaqt va xarajatlarsiz saqlab maksimal darajada mahsuldorlikka erishish san’atidir. Asalarilardan bebaho bo‘lgan asal, asalari ona suti, perga, propolis, ari zaxri va mum olinadi. Shu bilan birga asalarilar tabiatdagi eng muhim bo‘lgan vazifasi o‘simliklarni changlatish bilan shug‘illanishadi. Asalarichilik tarixida bir necha bosqichlar bo‘lgan. Dastlab odamlar asalni o‘rmon va tog‘larda daraxtlarning kovaklari, toshlar yoriqlari, g‘orlarga uya qo‘ygan asalarilardan olganlar. Bunday asalarichilik terimchilik va ovchilikning bir turi hisoblangan.

Asalarilar suti haqida ari uchun maxsus yasalgan katakchalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Asalari sutini ko‘p miqdorda yig‘ish uchun uning uyasini yetimlantirish uslubi orqali yaxshi natija olinadi. Bu usul bilan asalarilarning turiga qarab, misol uchun kavkaz asalarilaridan bir martada 50-60 dona onalik katakchalari olish mumkin.

Asalari onalik suti olish uchun avvalo tanlangan tarbiyachi uyani ona arisidan ajratib olinadi. Yana bir usuli kuchli uya tanlanib ikkiga, kuchli va kuchsiz qismlarga bo‘linadi va ona ari kuchsiz qism bilan qoldiriladi. Bunda ozuqaga ham e’tibor berish muhim. Yetimlantirilgan uyada ko‘proq qadoqlangan urug‘li rom, bir necha ozuqali rom va bir dona yangi urug‘li romdan qoldirish maqsadga muvofiq. Chunki qadoqlangan urug‘li romlar kiyenchalik boquvchilar sonini ko‘payishiga olib keladi.

Oradan 5-6 soat o'tgandan keyin yetimlantirilgan uyaning o'rtasiga maxsus onalik katakchalarga yosh qurtchalar joylangan 2 dona rom joylashtiramiz. Asalarilar uyaga qo'yilgan maxsus katakchalarni 4 sutka davomida to'ldirishadi va 4-5 sutkalarda maxsus romlar yig'ib olinishi mumkin. Bu jarayonni bir necha marta 1 oydan ko'p bo'lmagan muddatda takrorlash mumkin.

Ba'zi adabiyotlarda bu jarayon 6-8 kun deb ham aytilgan. Bizni tajribamizdan kelib chiqib shuni aytish muhimki, bu holat asalarilarning soniga, ozuqa miqdoriga, asalarining turiga va bir qancha boshqa faktorlarga bog'liq. Har bir asalarichi o'z asalarilarini yaxshi tushunishi juda ham maqsadga muvofiqdir. Misol uchun maxsus romlarni erta yig'ib olish katakchalarda kam miqdorda onalik suti to'planishiga va aksincha kech yig'ilganda qurtcha sutni bir qismini yeb qo'ygan bo'lishi mumkin. Shu sababli har bir asalarichi tajribasi va vaziyatidan kelib chiqqan holda necha kunda hosilni yig'ishini o'zi belgilaydi.

Yuqorida aytganimizdek oldindan tayyorlangan sanitariya qoidalariga mos bo'lgan xonada onalik sutini yig'ish amalga oshiriladi. Avvaliga qo'llar va barcha foydalaniladigan asboblar spirt bilan dezinfeksiyalanadi. Olib kelingan sutli katakchalardagi qurtchalar olib tashlanadi. Asalari onalik suti ochiq havoda o'zining foydali xususiyatini yuqotishi sababli katakchalarda saqlash maqsadga muvofiqdir. Mahsulot uyadan tashqarida 10-15 daqiqadan so'ng sifatini yo'qota boshlaydi. Saqlash uchun asalari suti tabiiy holda-katakchalarida maxsus germetik konteynerga joylanadi va sovitgichda 1.5-2C darajada yil davomida saqlash mumkin. Saqlashning yana boshqa usulida asalari suti shisha kolbachaga yig'ib olinadi va havo kirmaydigan qilib mum bilan muhrlab mahkamlanadi. Yana boshqa saqlash usulida sut asal yoki spirt bilan aralashtiriladi. Ammo bu ikki holatda mahsulotni uzoq saqlab bo'lmaydi.

Asalari sutidan "apilak" (biogenik stimulyator, restorativ ta'sirga ega dori) va bir qancha kasalliklarga davo bo'ladigan boshqa preparatlar ishlab chiqariladi. Asalari suti moddalar almashinuvini yaxshilaydi, semirib yoki ozib ketishga qarshi qo'llaniladi, inson tanasini yuqumli kasalliklarga qarshiligini kuchaytiradi, endokren bezlari faoliyatini yaxshilaydi, ateroskeroz va yurak qon tomirlari yetishmovchiligini davolashda yaxshi tasir ko'rsatadi.

Kasalliklarga chidamliligi asalarilarnig eng foydali bo'lgan nasliy sifat belgilaridan biridir. Bu sifatga ega o'rta rus asalarisi chirish kasalliklari, pad asalidan zaharlanish, askoferoz va boshqa kasalliklarga chidamliligi bilan boshqa nasldagi asalarilar oldida eng yuqori o'rinda turadi.

O'rta rus asalarisi – *Apis mellifera mellifera*

Bu tur asalarilarining rangi to'q-kulrang, hech qanday sarg'ishliklarsiz, boshqa arilarga nisbatan kattaroq bo'ladi. Hartumchasining uzunligi 5,9-6,4mm. Voyaga yetgan ona arining og'irligi 200-210 mg bo'lib qulay sharoitlarda 2,500-3000

donagacha tuxum quyishi mumkin. Bu tur yevropaning markaziy va shimoliy hududlarida vujudga kelgan bo'lib o'zining mahsuldorligi, kasallik va sovuqqa chidamliligi bilan xarakterlanadi. Ular 6-7 oygacha dalada uchmasdan qishlashi mumkin. O'rta rus arisining boshqa tur arilariga nisbatan yana bir o'ziga hosligi nozematoz va pad asalidan zaharlanishiga chidamliligidir.

Asosiy asal yeg'ish davrida o'rta rus arisi maksimal darajada kuch sarflab va bazan bir turdagi kam asal beruvchi o'simlikdan boshqa yaxshiroq o'simlikka kechikibroq qo'na boshlaydi. Dalaga kun qiziganda uchib uyaga erta qaytishadi. Uyada asalni avval yuqori qisimdagi romlarga kiyin urug' uchun qo'yilgan romlarga to'playdi.

Ushbu tur asalarilari jahldorligi bilan ajralib turadi va asalarichinig qupol betartib ishlashiga juda qattiq intensiv holatda o'zining asosiy quroli bilan uyani himoya qiladi.

O'rta rus arisi boshqa tur arilariga nisbatan o'g'irlikka moyilligi juda past va o'z uyalarini o'g'irlikdan himoyalashda ham juda sustkash. Bu tur arilar roylanishga moyilligi juda qattiq va davomiydir.

Kulrang kavkaz tog' asalarisi – *Apis Mellifera caucasica*

Ushbu turdagi asalarilar kul-rangsimon va boshqa turlarga nisbatan eng uzun 7,2mm gacha bo'lgan hartumchalarining uzunligi bilan farqlanadi. Yetilgan ona arining og'irligi 200 mg va sutkasiga 1500 ga yaqib tuxum qo'yadi.

Asosan Kavkaz o'lkasining tog' oldi va tog'li hududlarida keng tarqalgan. O'rta rus asalarisiga nisbatan asal yeg'ishda poliflor daladan yaxshi foydalanadi. Bir turdagi shiraga boy o'simlikdan boshqasiga tez ko'chib moslashadi. Uyadagi urug' uchun qo'yilgan romlarni asalga birinchi bo'lib to'ldiradi. Kulrang kavkaz tog' asalarising o'ziga hos jihatlari bir nechta. Misol uchun ular o'zimliklardan intensiv nektar ajralish davrida uyadagi barcha ishchi arilar shu jumladan urug'ni tarbiyalashda ishtirok etayotganlari ham o'zlarini dalaga nektar yeg'ishga safarbar etadilar.

Yana bir xarakteri ular uyadan dalaga erta uchib chiqib kech qaytishidir. Bu asalarilar maroq bilan erta bahorda, kech salqin kuzda, tuman va mayin yomg'irda ham uchishga yaxshi moslashishgan. Yoz oylarining iliq tunlarida daladagi gullarda tunab qolishga ham odatlanishgan. Bu tur asalarilar asal yeg'ishda juda tadbirkor, ayniqsa kuchsiz himoyalangan uyalardan asal o'g'irlashga moyil va shu bilan birga o'z uyalarini juda yaxshi qo'riqlashadi. Kulrang kavkaz asalarilari roy holatidan oson chiqib tezda ishga kirishib ketadi. Asalarilar o'rta rus va karpat turlariga solishtirganda qishga kam chidamli va qishlashdagi bo'ladigan muammolar nozematoz va pad asalidan zaharlanishdan ko'[proq aziyat chekishadi.

Karpat asalarisi – *Apis mellifera carpathica*

Bu asalarilar kulrangli, hartumchasi o'rtacha uzunlikda 6,3-7,0 mm, yetilgan ona arining o'rtacha og'irligi 205 mg bo'lib sutkasiga 1800 tagacha tuxum qo'yishi mumkin.

Asalarilarning karpap turi bir qancha ijobiy sifatlari bilan farqlanadi: tinchliksevar, samarador, qishlashda (o'rta rus turidan kiyen) yaxshi, kam roylanadi, asal qadoqlashi «quruq» usulda yoqimli oq rangda, va boshqa turlar bilan solishtirganda eng asosiy jihati bu erta yoshdan nektar va gulchang yeg'ishga kirishadi. Tarkibida shakar miqdori kam bo'lgan nektarni ham yaxshi o'zlashtiradi.

Karpap asalarilari turiga hos kamchiliklari bu unung o'g'rilikka moyilligi va propolisni juda kam ishab chiqarishidir. Daladan nektar kelishi kam bo'lganda uyani kurikdan utkazish ushbu uyani vaqtincha o'z qabiladoshlaridan himoyasis holatga solib quyadi. Propolisning kamligiga sabab bu tur arilari Karpap hududlarida umuman propolisdan foidalanishmaydi. Karpap asalari mum kapalaklariga befarqligi ularning yana bir kamchiligidir. Oilani ko'zdan kechirganda mum kapalaklariga qarshi alohida etibor talab etiladi.

Karniola yoki karnika asalarisi – *Apis mellifera carnica*, Pollmann

Karnika arisining tanasi kulrang kumishsimon rangi bilan farqlanadi. Ishchi ari hartumchasining uzunligi 6,4-6,8 mm, ona ari 205 mg og'irlikda sutkasiga 1400-2000 dona tuxum qo'yadi. Mutahassislar bu tur asalarisi o'zida karpap va kavkaz turlarning ijobiy hususiyatlarini mujassam etgan deb hisoblashadi. Qishga chidamliligi o'rta rus arisidan kiyen turadi. Tinchliksevar, erta bahordan rivojlanadi, (o'rtacha 30%), roylik holatidan tez chiqadi, va yaxshi nektarli o'simliklarga uchishi tez almshinadi. Asalni avval urug'li romlarga va kiyen qo'shimcha bo'lmadagi romli uyalarga joylaydi. Karnika asalarilari zahiradagi ozuqani kam istemol qilgan holda uncha katta bulmagan oilalarda ham yaxshi qishlaydi. Bu asalarilar o'ziga hos iqlimli qishi sovuq va asal yeg'ish mavsumi qisqa bo'lgan markaziy yevropa asalarichilari o'rtasida juda mashhur. Yagona o'ziga hosligi uyaning kuchsiz propolislashidir.

Xulosa qilib aytganda Asalarichilik qishloq xo'jaligining serdaromad sohalaridan biridir. Respublikamizning tabiiy sharoiti ham asalari oilalarni tezkor texnologiya asosida boqish uchun juda qulaydir. Shuning uchun asal yyetishtirish Respublikada salmokli o'rinda turishi mumkin. Asalarichilik mahsulotlarni ko'paytirishga karatilgan tadbirning ishlab chiqish, asalarichilik fermer xo'jaliklarida amalga oshirilayotgan jarayonlarga mahalliy populyasiyadagi asalarilar alohida ahamiyatga ega. O'zbekistonning tabiiy iklim sharoiti qishloq xo'jaligi ekinlarning hosildorligini oshirishda asalari oilalarni zamonoviy ilg'or texnologiya asosida ekinzorlarda boqib, asalarichilik mahsulotlar yetishtirishni ko'paytirish uchun qulay imqoniyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bogdanov S.P. “O‘zbekiston hayvonlari” T.: O‘qituvchi, 1983
2. Dubovskiy G.K. Ummatov A.M. Zoologiyadan o‘quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi, 1991
3. Кузнецов Б.А, Чернов А.З., Катанова Л.Н. Курс зоологии. М., «Агропромиздат», 1989
4. Лукин Е.И. Зоология. М., «Висшая школа», 1989
5. Мухаммадиев А.М. Umurtqasiz hayvonlar zoologiyasi. T.: O‘qituvchi, 1976
6. Mavlonov O., Xurramov Sh., Norboev Z. Umurtqasizlar zoologiyasi. T.: «O‘zbekiston». 2002

www.ziyonet.uz

www.aim.uz

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNING NUTQIY KAMCHILIKLARI HAQIDA TUSHUNCHA VA KELIB CHIQUISH SABABLARI

To'xliboyeva Zuxra Abdumutal qizi

Andijon davlat universiteti Pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim fakulteti 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning nutqiy xususiyatlari, nutq kamchiliklari, ularning turlari, nutqiy kamchiliklarning buzilish sabablari shuningdek ularni oldini olish bo'yicha tashkil etilgan korreksion – tarbiyaviy ishlar mazmuni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: nutq, nuqtiiy kamchilik, nutq nuqsoni, nutqiy xususiyatlar, muloqot.

O'zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lidan borar ekan o'z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog'lagan, o'sib kelayotgan yosh avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi ta'lim islohalari sharoitida ham barkamol avlod tarbiyasi haqida gapirar ekanlar "Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalombor farzandlarimizning unib, o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishga bog'liqdir"[1] - deb alohida ta'kidlaganlar.

Maktabgacha ta'lim bolalarni har tomonlama , ya'ni jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik tomonidan tarbiyalashdek maqsadni o'z oldiga qo'ygan. Bu maqsad esa bolalarga ona tilini o'rgatish jarayonida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida og'zaki nutqini o'stirish natijasida bolalar aqlan rivojlanib, umumiy madaniy saviyasi oshadi. Ular tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, tabiat va jamiyat qonunyatlarini tushunib boradilar. Bolalarda nutqning rivojlanishi ularning ruhiy jihatdan ham takomillashib borishiga yordam beradi.

Bola tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar yordamida , shuningdek nutq yordamida bilib olish qobiliyatiga ega. Ammo boladagi intellekt, ya'ni ruhiy jarayonlar (xotira, xayol, tafakkur va h.k.) shunchaki bola organizmining o'sib borishi va takomillashishi bilan paydo bo'lmay, balki nutqning rivojlanishi bilan paydo bo'ladi va takomillashdi.[2]

Ko'pgina tajribalar shuni ko'rsatadiki, nutqi rivojlanmagan bola to'liq shaxs sifatida kamol topmaydi.

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Shuningdek, nutq - insonning kommunikativ faoliyati turlaridan biri, til jamoasining boshqa a'zolari bilan muloqot qilish uchun til vositalaridan foydalanish. Nutq deganda nutq jarayoni (nutq faoliyati) ham, uning natijasi ham (xotira yoki yozish orqali mustahkamlangan nutq mahsulotlari) tushuniladi.

Muloqot vositasi sifatida nutq tufayli, shaxsning shaxsiy ongi shaxsiy tajriba bilan cheklanmasdan, boshqa odamlarning tajribasi bilan umumlashtiriladi va kuzatish va boshqa og'zaki bo'lmagan, to'g'ridan-to'g'ri bilish jarayonlaridan ko'ra ko'proq darajada umumlashtiriladi.

Bolaning nutqi - kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqning to'g'ri shakllanishi atrofdegilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim - tarbiyaga bog'liq jarayon hisoblandi.

Nutq tug'ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi. Bola moddiy dunyodagi narsa va hodisalarni ongida aks ettirib, bularning in'ikosi so'z shaklida ifolaydi, til hodisalari vositasida namoyon bo'ladi.[3] Inson o'zi ko'rgan ta'sirlangan buyum yoki hodisalarni so'z yordami nomlab, ularning mazmuni haqidagi taassurotlarini obrazlar, fikrlar, tushunchalar, tasavvurlar ko'rinishida aniqlash, ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Har qanday hodisani miyada aks etishi hamda ongda mustahkamlanishida – nutq yetakchi ahamiyatga egadir. Shuning bilan birga bolalardagi fikrlash qobilyati ham – nutq negizida paydo bo'ladi.

Bolada nutqning normal rivojlanishi, unga doimo yangi tushunchalarni o'zlashtirib olishga, tevarak-atrof haqidagi bilim va tasavvurini kengaytirishga imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, nutq, uning rivojlanishi tafakkurning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir.

Bundan tashqari bola nutqining rivojlanish davrlarini aniq bilish zarur. Bu esa nutqning rivojlanishi jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o'z vaqtida bilish va aniqlash uchun kerak bo'ladi.

Nutq kamchiligi - logopediya fanida muayyan tilning me'yorlaridan chetga chiqish deb ta'riflanadi.

Nutq kamchiliklari quyidagilar bilan xarakterlanadi:

1. Nutq kamchiligi o'z-o'zidan barham topmaydi, balki vaqt o'tgan sari yanada mustahkamlanib, zo'rayib boradi.

2. Nutq kamchiliklarini kattalarda namoyon bo'lishi ularning yoshiga mos kelmaydi.

3. Nutq kamchiligiga ega bo'lgan kishilar logopedik yordamga muhtoj bo'ladilar.

4. Og'ir nutq kamchiliklari bolaning nafaqat nutqiga, balki uning umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalarda nutq kamchiliklarini yuzaga keltiruvchi sabablar ichida tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek atrof-muhitning tashqi sharoitlari farq qilinadi.

Nutqiy kamchiliklar turli sabablarini ko'rib chiqishda evolyusion-dinamik yondoshiladi. Bu nuqsonning yuzaga kelish jarayonini tahlil qilishdan, anomal rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini va har bir yosh davrida Nutqning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olishdan iboratdir (I. M. Sechenov, L. V. Vigotskiy, V. I. Lubovski). [4]

Nutq kamchiliklari sababi deganda- Organizmga tashqi va ichki zararli omillar ta'sir etishi yoki ularning o'zaro aloqasi tushunish mumkin, qaysiki bu, nutq buzilishi xususiyatlarini aniqlaydi.

Bolalardagi nutqiy kamchiliklarning asosiy sabablari:

1. Embrion rivojlanish davridagi turli xil patologiyalar;
2. Xomiladorlik vaqtidagi toksikozlar, virusli va endokrin kasalliklar, jarohatlar, qonning rezus-faktorga mos kelmasligi;
3. Tug'ruq vaqtidagi shikastlanish va asfiksiya;
4. Bola rivojlanishining birinchi yilidagi bosh miya kasalliklari (meningit, ensofalit).
5. Miyaning chayqalishi bilan birga sodir bo'ladigan bosh miya jarohatlari.
6. Nasliy faktorlar.
7. Sosial-maishiy sharoitning yomonligi. Bu xolat mikrososial pedagogik qarovsizlikka, vegetativ disfunktsiyaga, emosional-irodaviy muhitning buzilishlariga va nutqning rivojlanmay qolishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek S.M.Dobrogayev nutq buzishlarini quyidagicha tasniflagan

1. Oliy nerv faoliyat kasalliklari.
2. Anatomik nutq apparatining patalogik o'zgarishlari.
3. Bolalikdan tarbiyaning yetishmasligi.
4. Organizmning umumiy nevropatik holati.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan sabablar, ayrim hollarda ularning birgalikda qo'shib kelishi nutqning turli tomonlarining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Hamma nutq kamchiliklarning kelib chiqishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1. Organik xarakterdagi nutq buzilishlari.
2. Funksional xarakterdagi nutq buzilishlari.

Organik nutq buzilishlari o'z navbatida ma'lum joyning zararlanishiga ko'ra markaziy va periferik xarakterda bo'ladi.

Markaziy buzilishlar: markaziy nerv sistemasini u yoki bu qismlarining buzilishi, zararlanishi natijasida kelib chiqadi. Markaziy xarakterdagi organik nutq buzilishlariga: alaliya, afaziya, dizartriya nutq kamchiliklari kiradi.

Periferik buzilishlar: artikulyasion apparatning noto'g'ri to'zilishi yoki buzilishi va periferik nerv artikulyasion organlar inervasiyasining buzilishidan kelib chiqadi.

Periferik xarakterdagi organik nutq buzilishlariga: rinolaliya, prognatiya, progeniya kiradi.

Funksional buzilishlar — bunda nutq jarayonida ishtirok etadigan a'zolar tuzilishida hech qanday o'zgarishlar bo'lmaydi. Funksional xarakterdagi nutq Turli nutq buzilishlarining rivojlanishini oldindan aniqlash katta ahamiyatga egadir. Agarda nutqiy nuqson bolaning maktabga kelgan vaqtida ilk bor aniqlansa, u holda uni tuzatish qiyinchiliklari kuzatilib, o'zlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agarda bolaning nutq nuqsoni maktabgacha yoshida aniqlansa, tibbiy va pedagogik tuzatish maktabda to'laqonli ta'lim olish imkonini beradi.

Shuningdek, tish qatorlarining qing'ir-qiyshiqqligi va tanglayning noto'g'ri tuzilishi ham talaffuz qilishga halal beradi yoki past, yassi bo'lganida ham bola tovushlarni aniq-tiniq talaffuz etolmasligi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy kamchiliklarnig keng tarqalishi sabablaridan yana biri oilada bola nutqi noto'g'ri shakllanganligidir. Ko'pchilik xonadonlarda kattalar kichik farzandlari bilan „bola tililda” so'zlashadi. Erkalab-suyib, chuchuk tilda bola bilan gaplashish yoqimli, lekin bu odat kelajakda bolakay nutqiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham ehtimoldan holi emas. Bundan tashqari, ayrim bolalar nutqidagi kamchiliklarga, ularning tovushlarni buzib talaffuz qilishiga kattalar e'tibor bermaydilar, o'z vaqtida to'g'irlanmagan bunday xatolar bolada ma'lum kamchiliklarni yuzaga keltirib, nutq nusoni rivojlanishiga olib keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalardagi nutqiy kamchiliklarini o'z vaqtida aniqlansa hamda uni bartaraf etish ishlari izchillik bilan olib borilsa, albatta ko'zlangan maqsadga erishiladi.

XULOSA

Nutqdagi kamchilik bolaning tafakkuri, xotirasi, diqqati va boshqa ruhiy jarayonlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutqiy kamchiliklar ko'p hollarda bolalarga maxsus ta'sir etish yo'llari orqali oldini olishga erishilmoqda. Hozirgi kunda bolalar poliknikasi mutaxassislari doimiy dinamik kuzatuv bilan bir qatorda 14 yoshgacha bo'lgan bolalarni poliknikadan tashqari maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida profilaktika ko'rikdan o'tkazish turadilar. Bolalar muassasalaridagi tarbiyachi pedagog va shifokorlarning hamkorlikdagi ishlar bolalar sog'lig'idagi kamchiliklar bilan bir qatorda nutq

rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi yoki nutq kamchiliklarini keltirib chiqaruvchi tug'mava orttirilgan kasalliklarni erta aniqlashga erishilmoqda. Bolalardagi nutq kamchiliklarni bartaraf etish, ularni o'z sog'lom tengdoshlari qatori jamiyatda o'z o'rnini topishlariga yordam berish muhim vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A.Karimov "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" Toshkent. 1998
2. D.R.c Babayeva "NUTQ O'STIRISH NAZARIYASIVA METODIKASI" "Barkamol fayz media" nashriyoti 2018.
- 3.Q.Shodiyeva Nutq o'stirish uslubyoti "O'qituvchi " nashriyoti – matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2009
4. M.Ayupova "LOGOPEDIYA" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent - 2019
- 5.V.S. Raxmanova "Defektologiya asoslari" Toshkent VORIS – NASHRIYOT 2012

ZAMONAVIY O‘ZBEK MINIATYURASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Mamadjonova Shahlo To‘ychiboy qizi

Namangan davlat universiteti, “San’atshunoslik” fakulteti
Amaliy san’at va rangtasvir yo‘nalishi, II bosqich talabasi
shahlomamadjonova087@gmail.com

ANNOTASIYA

Mazkur maqolada o‘zbek tasviriy san’atida miniatyurani ahamiyati xususida so‘z yuritilib, tarixiy davrlardan hozirgi kundagi miniatyura kompozitsiyalarini rivojlanish bosqichlari hamda Sharq xalqlari madaniyati tarixida o‘chmas iz qoldirgan, jahon tamadduni xazinasini o‘zining ajoyib qimmatbaho durdonalari bilan boyitgani, butun dunyo tamadduni tarixida salmoqli o‘rin olgan zamonaviy o‘zbek miniatyura san’atining ifodaviy vositalari xalq ustalari tomonidan o‘rganib kelingan tasviriy ijodiy faoliyatini miniatyura san’ati orqali shakllantirish masalasi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, san’at, nafosat va go‘zallik, iste’dod, badiiylik, hunarmand, musavvir, naqqosh, hattot, kompozitsion yechim, lok, grafika, sir, tasavvur, mahobatli

KIRISH: Tarix xotirasi xalqning, jonajon o‘lkamizning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o‘zlikni yangilashni, ta’bir joiz bo‘lsa, milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi. Ma’lumki ajdodlarimiz tomonidan yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish, ularni kelajak hayotga tayyorlash, ijodiy faoliyatga, odob-axloqli bo‘lishga, ilm olishga, foydali yumushlar bilan shug‘ullanishga tayyorlash ishlari Sharq xalqlarining qon-qoniga singib ketgan noyob amallardandir. Shu bilan birga azaliy qadriyatlarimiz bo‘lgan milliy hunarmandchilik san’ati ana’nalarimizni kelajak avlod uchun yetkazib berishdan iborat. Ta’lim-tarbiya ishlarining qonun bilan himoyalinishi, barcha tashkiliy, rahbarlik va ta’minot ishlarining davlat tasarrufida bo‘lishi, xalqimizning o‘z kelajagi uchun saqlab qolish borasidagi milliy merosimizga bo‘lgan jiddiy e’tibordan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA MYETODOLOGIYA

Ma’lumki, diyorumiz jahon tarixi va tamaddunining eng qadimiy makon va markazlaridan biridir. Respublika hududida saqlanib qolgan yuzlab bebaho arxeologik maskanlar, me’moriy va yozma yodgorliklar, amaliy san’at va xalq ijodiyati

namunalari, bularning barchasi xalqimizning boy va betakror tarixiy – ma’naviy merosidir. Sharq xalqlarining uzoq tarixida, hatto odamzod paydo bo‘lishining boshlang‘ich davrlarida, masalan, ibtidoiy jamoa tuzumida, quldorlik jamiyati tuzumida ham yosh bolalarning, kelajak avlodning tarbiyasiga e’tibor berib kelingan.

Albatta Sharq miniatyurasi o‘rganish, tomosha qilish zavq olish go‘zallik bilan oshufta bo‘lib qolmasdan, Sharqning bugungi kundagi san’at sarchashmalarini ham ilmiy-estetik tomonlama ham tasavvur etish zaruratidir.

Miniatyura rangtasvir markazlari tarixan tarkib topgan yirik viloyatlarining bosh shaharlari Eronda Sheroz, keyinroq Isfaxon, Kazvin, Tabriz, Xurosonda Hirot, Movarounnaxrda Samarqand va Buxoro bo‘lgan bu markazlarda asosiy texnik usullarning yagonaligi, estetik jabhalarda umumiylik jihatlaridan o‘ziga xos badiiy maktablar shakllangan. Movarounnahr miniatyura rangtasviri shakllanishi haqida ma’lumotlar XIV asr oxiri, Amir Temurning buyuk davlatiga asos solingan davrga borib taqaladi.

O‘rta Sharq miniatyura rangtasvirining gullab-yashnashi XV-XVII asarlariga to‘g‘ri keladi. Bu san’at ko‘p jihatdan dunyoviy yo‘nalishlar kuchaygan muhit bilan bog‘liq bo‘lib, musavvirlar hayotiy voqealar, tarixiy va adabiy qaxramonlarni tasvirlash imkoniga ega edilar. Sharq miniatyurasi o‘ziga xos badiiy ifoda tiliga ega bo‘lib, unda makonning olis yaqinligi, qisqarilshi va yorug‘lik qonunlari asosiy vosita sifatida talqin etilmaganligi bilan ajralib turadi.

XVII asrda bir xil O‘rta Osiyo rassomlari o‘z vatanidan uzoqda miniatyura san’atida anan’alarni davom ettirishga majbur bo‘lishdilar. Rassom Davlat Muhammad Xindistonda Boburiylar saroyida sulton va ularni oilalarini, saroy amirlarini, shoirlarining suratlarini yaratdi. Shu davrda Xindistonda Muhammad Murod Samarqandiy Bobur saroyida ijod qilib, portret ustasi nomini oldi.

Miniatyura san’ati o‘zbek xalqining qadimiy eng nafis ijod turlaridan biridir. Tarixiy manbalarga ko‘ra, surat solingan lokli qutichalar XVI asrda Buxoroda yasalgan ekan. Bu davrdagi lokli miniatyura namunalari bizgacha yetib kelmagan, hunarmandchilikning bu turiga xos bo‘lgan ko‘pgina ishlab chiqarish jarayonlari esa unutilib ketgan. Miniatyurachi rassom tashqi dunyodagi haqiqatni-kuzatib hayotni tasavvurlari asosida kompozitsiyaning ma’lum qonun qoidalariga amal qilgan holda asar yaratdi. Asrimizning yetmishinchi yillarida O‘zbekiston madaniy hayotida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Xususan, bu davrda tasviriy san’atning toshqog‘ozga chiziladigon lokli rangtasvir turi–miniatyura san’ati paydo bo‘ldi. Aynan o‘sha davirda xalq san’atining barcha turlarini saqlab qolish, rivojlantirish va qayta tiklash maqsadida nafis naqshu nigor tajriba – ilmiy ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etildi. O‘zbekiston rassomlar uyushmasining badiiy fondi tasarrufidagi “Usta” xalq san’ati birlashmasiga asos soldi. Unga taniqli rassom Chingiz Ahmarov mutasaddi etib tayinlandi. Mazkur

ustaxona dargohida iste'dodli yosh rassomlarning ilk miniatyura asarlari bunyodga keldi. "Usta" xalq san'ati birlashmasida o'z ijodiy faolyatda turli miniatyura kompozitsiyalarni milliy g'oyada ijod etayotgan musavvirlardan taniqli o'zbek musavviri Chingiz Axmarov va uning shogirdlari Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov hamda o'sha paytda yosh, navqiron san'atkorlar Niyozali Xolmatov, Shomahmud Muhammadjonov, Abduvosit Qambarov, G'ayrat Kamolov, Munira Sotiboldiyeva va boshqalar bor edi.

Shomahmud Muhammadjonov ijodi lokli miniatyura bilan shug'ullanadigan ilk musavvirlar avlodi uchun ibrat bo'ldi. O'rta asr Sharq miniatyurasi, uning texnologik usullariga oid chuqur bilim va ayni chog'da akademik dastgohli rangtasvir malakalari Shomahmud Muhammadjonovda o'ziga xos badiiy uslubning shakllanishiga zamin bo'ldi. U naqshlarda O'rta asrlar miniatyurasi qonunlariga amal qiladi. Musavvir qahramonlari ruhiy holatini qiyofa, vaziyat, imo ishoralar, ranglarning ramziy ma'nolari orqali aks ettiradi. Biroq Shomahmud Muhammadjonov O'rta asrlardagi ustalardan farqli ravishda, miniatyura san'atining an'anaviy tizimiga zamonaviy muallifning o'ziga xos badiiy tafakkurini ham singdirishga harakat qiladi. U O'zbekiston tasviriy san'atida an'analar va zamonaviylikning uyg'unlashuvidan iborat o'ziga xos yo'nalishning asoschilaridan biriga aylandi. Uning O'zbekiston lokli miniatyurasi rivojiga qo'shgan hissasi salmoqlidir. Badiiy hunarmandchilikning bir necha turlari bilan shug'ullanish musavvirning miniatyura rangtasviri olamidagi ijodiy izlanishlarini yanada boyitdi.

G'ayrat Kamolov toshqog'ozdan (pape-mashe) ishlangan qutichalar, upadonlar, bezakli taxtachalarni bevosita miniatyura bilan bezaydi. Musavvir mavzu tanlashda ko'proq folklor ohanglari-yu, Navoiy dostonlariga murojaat qiladi. G'ayrat Kamolov ijodi rang-barang bo'lib, miniatyura an'analarning Ovrupo realistik rangtasvir usullari bilan birga qo'shib olib borilishi bilan ajralib turadi.

Bahodir Yo'ldoshev iste'dodli miniatyura musavviri. 1961 yilda Toshkent viloyatida tug'ilgan. 1982 yili Nizomiy nomli Toshkent Davlat Pedagogika institutining badiiy grafika fakultetini tugallagan. 1990 yildan beri Abulqosim madrasasida ijod qilib kelmoqda. U yaratgan miniatyuralarida O'rta asr syujetlari o'z yechimini topgan. Qog'oz va matolardagi musavvirning miniatyura asarlari o'zining noyob kompozitsion yechimi, ranglar uyg'unligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Zilola Sulaymonova – miniatyura musavviri. U bugungi kunda Respublika musavvirlik kollejida mutaxassis o'qituvchi bo'lib ijod qilib kelmoqda. Asarlarida mumtoz Sharq miniatyura yo'nalishi bo'yicha va O'zbek xalq yozuvchilarining ijodiga mansub miniatyura kompozitsiyalarini uchratish mumkin. Uning miniatyura asarlari o'zining noyob kompozitsion y e chimi, ranglar uyg'unligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Lokli miniatyura san'ati – g'oyat ulkan qunt, mahorat, bilim, nozik hissiyot talab qiladigan ijod turidir. Hozirgi miniatyura ustasi Sharq mumtoz miniatyurasining yuksak cho'qqilariga bir oz bo'lsada yaqinlashishga intilmasdan ijod qila olmaydi. Musavvirlarning navqiron avlodiga mansub yoshlar o'z ijodlarida avvalo miniatyura san'atining an'anaviy qonun-qoidalariga amal qilmokdalar. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Respublika Rassomlik kolleji va Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetining bitiruvchilari Bahodir Yo'ldoshev, Abduhakim Karimov, Anvar Isroilov, Jaloliddin Ashrapov, Shoilhom Shoyoqubov, Rasul Po'latov, Abdulla Nazirov, Shorasul Shoahmedov, Sunnatulla Po'latov, Faxriddin Rahmatullayev, Shoolim Shomansurov, Kamoliddin Mirzayev, Zilola Sulaymonovalar shular jumlasidandir. Ular "Hunarmand" uyushmasida mehnat qilishadi, yana birovlari erkin ijod bilan mashg'ul. Ijodkorlarning Abulqosim madrasasida joylashgan hujralari o'zining shinamligi, ularda saf tortib turgan tayyor kutichalar, qadimgi qog'ozlarga solingan chizmalar, kitoblar, badiiy materiallar diqqat-e'tiborni tortadi. Ehtimol, qo'lyozma kitoblar ustida ko'z nurini to'kkan O'rta asrlardagi musavvir ustalarni ham ana shunga o'xshagan ijodiy muhit o'rab turgan bo'lsa ne ajab: bu yerda nihoyatda sokin va osoyishta ruhiyat hamda orzu-niyatlar hukm suradi. Bu musavvirlar hali yosh bo'lishlariga qaramay, ularning har biri o'z shogirdlariga ega. Badiiy an'analarning davomiyligi, Sharqdagi ta'lim shakllaridan birining o'ziga xos xususiyatlari ham ana shunda namoyon bo'ladi. Yosh miniatyurachilar asarlarida Sharq miniatyurasining badiiy-uslubiy o'ziga xos xususiyatlari: tasvirning majoziyliigi, ranglarning bezakbopligi, suratlardagi nafosat, ijroning puxtaligi saqlab kelinmoqda. Yosh ustalar pape-masheni tayyorlashning qadimiy texnologiyasini saqlab qolgan holda, faqat tabiiy bo'yoq kukunlarga tuxum sarig'ini qo'shib ishlatishmoqda. O'rta asrlardagi miniatyurachi musavvirlar ko'pincha qoliplardan foydalanishgan, vaqti kelib o'z kompozitsiyalarini yaratish maqsadida uzoq vaqt davomida mashhur ustalarning rasmlaridagi ayrim unsurlardan nusxa olishgan. Lakli miniatyura janrida ishlayotgan hozirgi yosh musavvirlar ham o'z amaliyotlarida ana shu tamoyilni qo'llashmoqda. Ular miniatyuraning badiiy qonun-qoidalarini avaylab caqlagan holda tarixiy va zamonaviy mavzularda mualliflik kompozitsiyalarini yaratishmoqda. Firdavsiyning "Shohnoma", Nizomiyning "Xamsa", Jomiyning "Yusuf va Zulayho", Navoiyning "Xamsa" dostonlari va boshqa tarixiy-adabiy manbalar qahramonlari yosh ustalarning lokli naqshlarida yana qayta gavdalanmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki mustaqillik yillarida o'zbek miniatyura san'atiga e'tibor yanada kuchaydi. O'zbek tasviriy san'atida kuplab miniatyura asarlaridagi turli kurinishga ega bo'lgan ijodiy g'oyadagi kompozitsiyalarni ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan 1997 yilda

Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tashkil topdi. O‘zbekistonning hozirgi san’atida miniatyura – oddiy bir tur bo‘lmay, balki lakli miniatyura, devoriy naqshlar, mato va charmdagi miniatyurani o‘z ichiga oladigan keng qamrovli badiiy-uslubiy yo‘nalishdir. Bugungi kunda miniatyura san’ati aynan ravnaq pallasidadir, miniatyurachi musavvirlar doirasi kengayib, asarlarida badiiylik yuksalib bormoqda. Bu bilan esa hozirgi kun talabidan kelib chiqib miniatyura san’ati turizm infratuzilmasining asosiy vositalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3509 son Qarori.
2. Sh.Shoyoqubov. O‘zbekiston bugungi miniatyura rangtasviri Musavvir “Sharq” nashryot –matbaa konsernining Bosh tahririyati Toshkent-1994
3. Polyakova Ye.A, Raximova Z.I. Miniatyura i literatura vostoka. T.87.
4. Zohidov P.Sh.“Me’mor olami” T-1996 yil “Komuslar bosh tahririyati”
5. Ro‘zinov, B., Rejabova, S., & Ismoilov, Yu. (2013). Qosimov A. Namangan viloyati madaniy merosi. *Namangan: Namangan*.
6. Qozoqov T, Ruzinov.B., & Vohidov, A. (2020). Buyuklarga beshik bo‘lgan Axsikent yohud Farg‘ona allomalari. *Toshkent: Navro‘z*.
7. Ruzinov, B.A. Mamadjanova Ch. (2023). Tasviriy san’at rivojlanish tarixi va bugungi kundagi ahamiyatli jihatlarini o‘rganish va taxlil qilish. *models and methods for increasing the efficiency of innovative research*, 2(19), 1-8.
8. Ruzinov, B. A. (2022). Fargona vodiysi amaliy sanati. *Journal of new century innovations*, 10(3), 70-74.
9. Amanullaev, A. A. (2022). current issues in the training of future teachers of fine arts. *asia pacific journal of marketing & management review* issn: 2319-2836 impact factor: 7.603, 11(03), 1-3.
10. Baymetov, B. B., & Sharipjonov, M. Sh. (2020). Tasviriy san’atdan malakali pedagog kadrlar tayyorlashda nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning uyg‘unligi. *innovatsii v pedagogike i psixologii*, (SI-2№ 3).

IMPROVING THE PRAGMATIC COMPETENCE OF FUTURE OFFICERS

Utenbaeva Guljazira Mukhtarovna

senior lecturer of the Department of “Language Learning” University of Public
Safety of the Republic of Uzbekistan (ORCID: 0000-0001-5321-6268)

e-mail: mukhtarovna9420@gmail.com

ABSTRACT

This article analyzes the concept of “foreign language competence”, as well as one of its main components – “pragmatic competence”. Having traced the main approaches to their improvement, the author analyzed the positions of a linguodidacticist, whose views on the problem are of particular importance for this study and developed theoretical conclusions.

Keywords: competence, foreign language competence, pragmatic competence, cadets, Russian as a foreign language.

BO‘LAJAK OFITSERLARNING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada “chet tili kompetensiyasi” tushunchasi, shuningdek uning asosiy tarkibiy qismlaridan biri–“pragmatik kompetensiya” ko‘rib chiqilgan. Ularni takomillashtirishning asosiy yondashuvlarini kuzatib, muallif tomonidan lingvodidaktika pozitsiyalarini tahlil qilingan, uning muammoga bo‘lgan qarashlari ushbu tadqiqot uchun alohida ahamiyatga ega va nazariy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, kompetentlik, chet tili kompetensiyasi, pragmatik kompetensiya, kursantlar, rus tili chet tili sifatida.

Introduction. The most important component of the project of the new State educational Standard of higher Education of the Republic of Uzbekistan (the State Educational Institution of the Republic of Uzbekistan) is the focus on achieving practical skills and the ability to apply the acquired knowledge for the implementation of professional activities. In the practice of the educational process, this approach is commonly called competence-based. The competence approach is an approach to the research, design and organization of the educational process, the key category of which is the concept of “competence” [1].

Competencies in education are the main benchmarks for the effectiveness, successful and effective development of the educational process, which, in turn, strengthens the position of the competence-based approach to education in the Republic of Uzbekistan. The competence-based approach allows us to focus on the results, which are considered as the ability and readiness of a person to take action to fulfill the assigned professional tasks [3].

I.A. Zimnaya, among the factors determining the need for the use of a competence-based approach in modern higher education, highlights, first of all, the integration and globalization of the world economy and the change of the educational paradigm [6]. As a result, in modern teaching methods there is a tendency to use such a concept as communicative competence, which, in relation to the process of teaching a foreign language, is transformed into the concept of “foreign language communicative competence” [7]. In our opinion, the most accurate definition of this concept is given by E.N. Baguzina: “Foreign language communicative competence is the willingness and ability of a person to understand and generate foreign language utterances in accordance with a specific situation, a specific target setting, communicative intention and tasks of professional activity” [7].

Literary review. The problems of communication in pedagogy are considered in the works of A.A. Verbitsky, B.V. Belyaev, E.I. Passov, A.K. Markova, B.C. Korostylev, V.V. Kraevsky, A.A. Leontiev, E.S. Polat, P.D. Parygin, E.I. Passov, V.G. Gak, Faenova, V.A. Averin, L.A. Bykov, L.M. Voityuk, I.N. Denisova, N.V. Samoukina, I.Y. Tarasova, L.A. Filatova, V.P. Konetskaya, L.A. Bushina, B.A. Ivanova, V.L. Skalkina, L.A. Tatarinova, G.P. Shchedrina, T.V. Bazzhina, E.V. Musnitskaya, S.G. Ter-Minasova, N.A. Yakubova et al.

Research methodology. We searched for information in scientific and popular scientific sources, the analysis of which revealed that the terms “competent” and “competence” are somewhat similar and have a lot in common, but at the same time, the concept of “competence” has a broader meaning. Let’s compare: competence – the ability to perform a task or do something [9]; competent – fundamental abilities (implied knowledge, etc.) manifested by social actors who are “qualified” participants in social contexts [4]; competence is an area of issues in which someone is knowledgeable [5]; competence is a property in the meaning of the adjective “competent”: having thorough knowledge in any field.

Analysis and results. L.T. Akhmedova considers foreign language communicative competence as a set of the following components: linguistic,

sociolinguistic, pragmatic and discursive. Also, L.T. Akhmedova notes that pragmatic competence provides strategies that contribute to the effectiveness of communication, for example, strategies of interruption, clarification, compensation in situations with communication difficulties.

Thus, having considered several options for constructing the structure of foreign language communicative competence, we come to the conclusion that pragmatic competence is one of its important structural components.

Speaking about the competence of the military, we note that the pragmatic competence of the future military specialist is of interest for this study, which is one of the main factors in modern conditions that have a strong influence on the readiness of a graduate of a military university to withstand competition in the global labor market and take a worthy place not only in the professional, but also in the international community.

Conclusions and suggestions. The analysis allows us to draw the following conclusions. The current interpretation of pragmatic competence within the research boundaries of linguodidactics presents this phenomenon as a set of illocutionary and sociolinguistic competencies that determine successful communication in a non-native language.

In the course of the study, it was found that the functional components of pragmatic competence, ensuring the improvement of communicative skills in the process of teaching the Russian language to the students of the Higher School of Economics, are: within the illocutionary competence – the operational component (distinguishing the functional features of the language repertoire used) and the organizational component (compliance with conventional norms and structuring of utterance), within the sociolinguistic competence – the interactive component (the relevant choice of communicative strategies and tactics) and the paralinguistic component (the use of non-verbal means of implementing a communicative intention in accordance with a specific communication situation).

REFERENCES

1. Закон Республики Узбекистан об образовании. Принят Законодательной палатой 19 мая 2020 года. Одобрен Сенатом 7 августа 2020 года. [Электронный ресурс]: <https://lex.uz/ru/docs/5013009> (дата обращения 15.10.2022).
2. Ахмедова Л.Т. Общеευропейские компетенции владения иностранным языком: изучение, обучение, оценка» в образовательном процессе Республики Узбекистан. // Научно-методический электронный журнал «Методика. Назария ва амалиёт/ методика методологияси» // науч.статья. Т., 2017. 71 с.
3. Багузина Е.И. Веб-квест технология как дидактическое средство формирования иноязычной коммуникативной компетенции (на примере студентов неязыкового вуза): автореф. дис. канд. пед. наук. М., 2012. 29 с.
4. Utenbaeva G. M. The importance of listening skills in teaching Russian language to the cadets of military institute //EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), INDIA SJIF Impact Factor. – Т. 6. – С. 18-21.

TURLI TIZIMLI TILLARDA “YER” KONSEPTI VERBALIZATORLARINING MORFEMIK SATHDA IFODALANISHI QIYOSIY TADQIQI

Xoshimova Nargis Abdullayevna

Farg‘ona davlat universiteti, i Ingliz tili va adabiyoti fakulteti,
Ingliz tilini o‘qitish metodikasi kafedrasini mudiri,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yusupova Nodiraxon Erkinjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti magistranti
nodiratoshtemirova1@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lmish kognitiv tilshunoslikning asosiy tadqiqot materiali bo‘lgan “yer” konsepti ingliz va o‘zbek tillaridagi morfemik birliklar misolida chog‘ishtirma tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etildi.

Kalit so‘zlar: yetakchi morfema, tobe morfema, affiks, suffiks, prefix, konsept, tushuncha, morfemika.

ABSTRACT

In this article, the concept of "earth", which is the main research material of cognitive linguistics, one of the modern directions of linguistics, was studied from the point of view of cross-linguistics on the example of morphemic units in English and Uzbek languages.

Key words: free morphemes, bound (affixational) morphemes, affix, suffix, prefix, concept, notion, morphemics.

Tilning eng kichik ma‘noli qismini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi morfemika deb ataladi. Manashunday eng kichik ma‘noli qismlar morfemalar atamasi bilan yuritiladi. Misol uchun terimchilarimizni so‘zi ter-im-chi-lar-imiz-ni qismlaridan tashkil topgan. Bu so‘zdagi “ter” yetakchi morfema hisoblanib, -im, -chi, -lar, -imiz, -ni kabi ko‘makchi morfemalar so‘zga qo‘shimcha ma‘no yuklash vazifasini bajarib kelmoqda.

Yana shu o‘rinda quyidagicha savol tug‘ilishi mumkin: so‘z va morfema bir xil tushunchalarmi? Yo‘q. Morfema va so‘z birliklari bir-biridan tubdan farq qiladi.

Barcha morfemalar ham mustaqil holatda qo‘llanila olmaydi. Lekin so‘z o‘z holicha tilning har bir satxida erkin qo‘llanilishi mumkin. Ingliz tilida ham morfema atamasiga huddi o‘zbek tilidagidek izoh beriladi. Ya’ni morfemalar tilning eng kichik ma’noli qismi bo‘lib, ikki guruhga bo‘linadi: o‘zak morfemalar (root morphemes) va yordamchi (tobe) morfemalar (affixitional morphemes). Misol uchun, passed so‘zidagi pass-o‘zak morfema bo‘lsa, unga qo‘shilgan –ed tobe morfemadir, uning vazifasi pass-o‘tmoq fe’liga o‘tgan zamon ma’nosini yuklashdir. O‘zak morfema so‘zning asl ma’nosini ifodalab, markaziy qism bo‘lib keladi. Turli affikslar qo‘shilishi natijasida mazkur o‘zak morfemalardan yangi so‘z yasalishi yoki shakl yasalishi mumkin. O‘zak morfema so‘zning semantik yadrosidir. Masalan, yerlik, yersizlik, yerli kabi so‘zlarda yer so‘z yasalishi uchun ham, shakl yasalishi uchun ham asos hisoblanadi.

Affiksial morfema mustaqil leksik (lug‘aviy) ma’no ifodalay olmaydigan, so‘zning leksik yoki grammatik ma’nolarini boyitishga xizmat qiluvchi birliklardir. Affiksial morfema ergash yoki yordamchi morfema deb ham ataladi. Masalan, kulolchilik so‘zidagi –chilik qo‘shimchasi ma’lum kasb egasi ma’nosini bildiruvchi so‘z o‘zagiga qo‘shilib, yangi faoliyat ma’nosini yuklaydi. Affiksial morfemalar so‘z yasovchi qo‘shimchalar va shakl yasovchi qo‘shimchalarga bo‘linadi. “Yer” leksemasiga ham so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida boshqa ma’noni bildiruvchi yangi leksemalar hosil bo‘ladi. Misol uchun *yer/siz* so‘zidagi –siz qo‘shimchasi ot so‘z turkumiga kiruvchi so‘zdan sifat yasab yerga ega emaslik ma’nosini bildiradi (*o‘rta asrlarda yersiz dehqonlar ko‘plab qiyinchilikka uchrashgan*). Ingliz tilida: *land/less (adj.)*. *Much of the rural population of India is landless and poverty-stricken (Hindistondagi ko‘plab qishloq aholisi yersiz va kambag‘aldir.)*

Yer/li: Botqoq yerli hududlarda hosil yaxshi bo‘lmaydi.

Yersiz va kichik yerli dehqonlar esa yirik zamindorlarning vaqf yerlarida ijarachi sifatida ishlab berishardi. (“Tarixdan xokoyalar”)

Land/owning: East Prussia was always dominated by a handful of landowning families. (Sharqiy Prussiya doim bir qancha katta yerli oilalar tomonidan boshqarilgan.)

Yer/lik: Xudoyligingizni aytsangiz: qanaqa odamlar o‘zi, tag-zoti qanaqa, asli shu yerlikmi yo boshqa joydan kelishganmi? (O‘tkir Xoshimov “Dunyoning ishlari”).

Native: After 30 years I am finally returning to my native land. (Oradan 30 yil o‘tib, nihoyat, ona yurtimga qaytaman).

Yer/sizlik: Asosiy daromadi dehqonchilik bo‘lgan ko‘plab davlatlarda yersizlik natijasida ishsizlik darajasi keskin oshdi.

Land/lessness: Landlessness was what a millions of farmers suffered especially during middle ages.

Yer/dor: yer egasi, mulkdor. Arslonqul bolalikdan pada boqqan, yerdorlarning xirmonini ko'targan, qo'sh haydagan. (Oybek, Navoiy)

Yer/la; yer/lamoq: ko'mmoq, dafn etmoq. Bolaga qaragam - o'lik. Bolani tashlab ketishga ko'nglim bo'lmadi. Uni yerlash kerak edi. (A. Muxtor. Davr mening taqdirimda).

Bury: I was horrified that people would think I was dead and bury me alive. (odamlar meni o'lgan deb o'ylab tiriklayin ko'mib yuborishlari mumkinligidan vahimaga tushardim.

Yuqorida keltirilgan misollar orqali shuni aniqlashimiz mumkinki, "yer" so'zi – li, -siz, -lik, -sizlik, -dor, -la kabi qo'shimchalar bilan ishlatiladi. Mazkur affiksial morfemalar yolg'iz qo'llanila olmasada, o'zak morfemaga qo'shimcha ma'no yuklaydi.

-li. Ushbu morfema ham ot so'z turkumiga oid so'zlarga qo'shib, sifat so'z turkumiga mansub so'zlar yasalishi uchun xizmat qiladi. Leksik va semantik jihatdan egalik, mavjudlik kabi ma'nolarni o'zak morfemaga yuklash vazifasini bajaradi.. Misol uchun, yerli- yerga egalik qilish, qorli- qor mavjudligini ifodalaydi.

-siz. Bu affiks ham otlarga qo'shib, shaxs va narsaning belgi va holatni bildiruvchi so'zlar hosil qiladi. –li morfemasiga qarama-qarshi tarzda biror narsa va xususiyatning mavjud emasligini ko'rsatadi. Masalan, yer/siz- yeri (ekin maydoni ma'nosida) yo'q, hush/siz- hushi yo'q kabi so'zlarda –siz morfemasi shaxsning belgisini ifodalasa, unum/siz- unumi yo'q, suv/siz- yetarli suv miqdoriga ega emas kabi leksemalar orqali mazkur qo'shimcha narsaning xususiyatini bildiradi. Ingliz tilidagi –less affiksiga ekvivalent hisoblanadi (landless, hopeless, meaningless, jobless).

Keyingi qo'shimchamiz –la ot so'z turkumiga oid so'zlardan fe'l so'z turkumiga mansub so'zlar yasaydi. Misol uchun, yer/la- dafn qilmoq, so'z/la- gapirmoq, quchoq/la- bag'riga bosmoq. Ingliz tilida ushbu morfemaga ma'no va vazifaviy jihatdan teng bo'lgan bir nechta affikslar mavjud. Masalan, glorify so'zidagi –fy suffiksi glory (o'zbek tiliga sharaf deb tarjima qilinadi) ot so'z turkumiga oid bo'lgan leksemadan ish-harakatni bildiruvchi yangi leksema glorify (ya'ni sharaflamoq) ni hosil qiladi. Bu qo'shimchani ishlatilishiga boshqa bir qancha misollar keltirilishi mumkin (beautify, justify, simplify, purify, clarify).

-sizlik affiksi ma'lum bir narsaga ega bo'lmaslik degan ma'noni bildirib, ingliz tilidagi –ness suffiksi, im-, ir-, un-, dis-, il- kabi prefikslari bilan teng ma'no anglatadi. Masalan, landless/ness (yer/sizlik), im/patience (sabr/sizlik), ir/responsibility

(mas'uliyat/sizlik), un/belief (e'tiqodsizlik), dis/ability (qobiliyat/sizlik), il/literacy (savod/sizlik).

"Yer" leksemasiga shakl yasovchi qoshimchalar (prefikslar va postfikslar) qo'shilishi mumkin: (kelishik qo'shimchalari bilan) yerni, yerning, yerga, yerdan, yerda; (egalik qo'shimchalari bilan) yerim, yering, yeri, yerimiz, yeringiz, yerlari. Shuningdek, yer so'zi ishtirokida yuzaga keladigan ko'plab qo'shma so'zlar har ikki tilda, ya'ni ingliz va o'zbek tillarida mavjud. Misol uchun:

Yer/to'la: Keyin gulsafsarlar o'sib yotgan allaqanday zahkash, katalakdek hovliga kirib qoldik. Yerto'la soyasida yotgan kuchukni ko'rib, to'xtab qoldim.

Cellar: They cleared out the cellar and transformed it into a lovely playroom for the kids. (Ular yerto'lani tozlashdi va bu yerni bolalar uchun sevimli o'yin xonasoga aylantirishdi.)

Yer/tut: qulupnay. Sen oyog'ing ostidagi yertutni kormapsanaa? Nosir ham Ozod bilan "bellashadi". (M. Xidir).

Strawberry: In addition, volunteers regularly drop off meals for the residents, including fruit, loaves of bread and once even a strawberry shortcake. (Sarah Ravani, San Francisco Chronicle, 14 Jan. 2023).- Bundan tashqari, ko'ngillilar muntazam ravishda aholi uchun ovqat, jumladan, mevalar, non va hatto yilda bir marta qulupnayli keyklarni olib kelishadi.

Yer/yong'oq: Sanobar uyiga kiriboq, kichik o'g'lining uyning har burchagiga yeryong'oq bo'laklarini sohib yuborganligini ko'rib, judayam jahllandi.

Peanut; groundnut: Children who suffered from a severe allergy took part in the year-long trial, where they were given increasing amounts of peanut protein. (Og'ir allergiya bilan og'rigan bolalar bir yil davom etgan sinovda ishtirok etdilar, ulargq ortib boradigan miqdorda yeryong'oq oqsili berildi.)

Yer/osti: Yerosti boyliklari ko'p mamlakatlar iqtisodi rivojlanishi jihatidan ham boshqa davlatlardan ustuvorlikka ega bo'ladilar.

Under/ground: Ten miners were trapped underground when the roof of the tunnel fell in. (Tunnel tomi qulash paytida o'nta kon ishchisi yer ostida qamalib qoldi).

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga qarab aytishimiz mumkinki, "yer" konseptual maydoni qiyosiy va chog'ishtirma usullar orqali o'rganilishi natijasida, ushbu konseptning ingliz va o'zbek tillaridagi morfemik sathda izomorfik va allomorfik jihatlarga ega ekanligi tadqiq qilindi. O'tkazilgan tadqiqotlarga qaramay, ushbu konseptning noverbal vositalar orqali ifodalanishi, stilistik jihatdan qo'llanilishi, tayyor nutq birliklarida va badiiy adabiy diskurslarda ifodalanishi masalalari hamon ochiq qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

- 1.A. Madvaliyev tahriri ostida. "O'zbek tilining izohli lug'ati". Davlat ilmiy nashriyoti "Toshkent".
2. Sh.Safarov "Kognitiv tilshunoslik" -Jizzax, 2006.
3. Colin McIntosh. "Cambridge advanced learner's dictionary". Cambridge university press, 2013.
4. A. L. oqli Melikuziev, (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126-128.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА С ПРИМЕНЕНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПОГРАНИЧНЫХ ВОЙСК В ВЫСШИХ ВОЕННЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Умаров Рахмат Нигматович

Заместитель начальника кафедры
службы и тактики пограничных войск
Академии Вооруженных Сил Республики Узбекистан

ABSTRACT

In the article, the problems and ways of modernizing the education system, above the military. The idea of a competency-based approach in the education system of military professional competence implies a high level of systematic integration into education and military training. In addition, educational work in the field of education based on innovative approaches to improvement is discussed.

Key words: Modernization, innovation, competition, uniqueness, system, competence, educational process, subjects, ICT, science and technology, integrity, generality, universality, differentiation.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются проблемы и пути модернизации системы высшего военного образования, также, обсуждается идея компетентностного подхода в системе образования. Военно- профессиональные компетенции предполагают высокий уровень систематической интеграции в образовании и военную подготовку, кроме того, усовершенствование воспитательной работы в сфере образования на основе инновационных подходов.

Ключевые слова: Модернизация, инновации, конкуренция, уникальность, система, компетентность, образовательный процесс, предметы, ИКТ, наука и техника, целостность, общность, универсальность, дифференциальный подход.

ВВЕДЕНИЕ. На сегодняшний день важнейшей задачей является создание среды новаторства в мировоззрении нашего народа. Как говорит глава нашего государства Шавкат Мирзиёев: «Если не будет инноваций, не будет конкуренции и развития ни в одной сфере. Если мы не будем широко пропагандировать изменения в этой области среди наших людей, если мы не развиваем навыки,

интенсивность сегодняшней эпохи, беспрецедентные достижения науки и техники мы не можем идти в ногу со временем».

Сегодня в силах государства помочь повысить качество военного образования. Система высшего профессионального образования в процессе корректировки системы образования нашей страны Инновационное наполнение компонентов на рынке эффективных и качественных образовательных услуг возникла необходимость повысить толерантность. В названиях проблем и путей модернизации системы образования отношения относятся к прошлому «компетентным». Высшее военное образование идея компетентного подхода в системе военно-профессиональных компетенций в образовании предполагает высокий уровень системной интеграции.

Сегодня в силах государства помочь повысить качество военного образования. В процессе улучшения системы высшего профессионального образования на рынке эффективных и качественных образовательных услуг возникла необходимость повысить толерантность. В решении проблем и нахождения путей модернизации системы образования отношение «компетентный» относится к прошлому. В высшем военном образовании идея компетентного подхода в образовании системы военно-профессиональных компетенций предполагает высокий уровень системной интеграции.

Как известно, в XXI веке который считается веком высокоразвитых технологий уделяется больше внимания вопросу широкого внедрения инноваций в образовательном процессе. В последние годы инновация в Узбекистане была одной из первых, которая вошла в систему образования и введённую инновацию в образовании как это отразилось в процессе образования и в других областях мы можем видеть в настоящий момент.

Тренинги, проводимые на основе инновационной технологии, предназначены для студентов важные жизненные достижения и проблемы дают им возможность выразить свои личные отношения, подумать о них, обосновать свою точку зрения. Вот почему роль и значение технологий несравнимы в инновационном образовании, в формировании творческого подхода у студентов в процессе образовательного процесса. Поэтому регулярно необходимо обращать внимание на применение инновационных образовательных технологий в новое исследование в системе образования наряду с внедрением программ повышения квалификации педагогов.

Современная педагогика – это организация и управление педагогическими процессами, которая помимо стремления изучить его идеи всесторонне, с разных точек зрения, разрабатывает методические рекомендации по их внедрению в образовательную практику. На сегодняшний день методологию системного

подхода и информационно-коммуникационную педагогику невозможно представить себе вне обеспечения эффективности педагогических процессов, которые без технологических инструментов недоступны.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Активные и интерактивные образовательные технологии в высшей школе (формы проведения уроков): учебник / сост. Т.Г. Мухина. - Н. Новгород:

Гущин Ю.В. Интерактивные методы обучения в высшей школе // Международная природа, общество и психологический журнал человеческого университета «Дубна», 2012.

Захарова, И.Г. Информационные технологии в образовании: Учебник для вузов. образовательные учреждения / И.Г. Захарова. - М.: «Академия»,

Коваленко Е.М. Элементы интерактивных технологий и электронного обучения в образовании // Современная система интерактивного обучения в условиях модернизации образования. Научный - Материалы методической конференции; Южный федеральный университет). - Ростов-на-Дону: Издательство Южного федерального университета.

«Об образовании в Российской Федерации» от 29 декабря 2012 г. № 273-ФЗ.

Федеральный закон (с изменениями от 13.07.2015) // Справочная правовая система «Консультант Плюс».

Мухина С.А., Соловьева А.А. Современные инновационные технологии обучения. М.: ГЭОТАР – Медиа, 2008.

Альтиментова Д.Ю., Федосов А.Ю. Повышение качества подготовки бакалавров с применением компьютерного тестирования и рациональных способов коррекции знаний // Педагогическая информатика. 2017. № 1. С. 45-53.

Паршутина Л.А., Самойленко П.И. Дидактические средства обеспечения учебно-исследовательской деятельности школьников в учебно-воспитательном процессе по естественнонаучным предметам. - М.: АПК и ППРО, 2013. -154 с.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ И ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ.

Новшество должны способствовать достижению основной цели военного профессионального образования – подготовке для государства и его Вооруженных Сил профессионально грамотных, способных выполнить свой воинский долг военных специалистов, а именно специалистов пограничных войск в наибольшей степени обладающих высокими нравственными качествами.

Данные новшества позволяют удовлетворить потребности обучающихся в интеллектуальном и культурном развитии, в приобретении профессионального образования определенного уровня и направленности в соответствии с Государственными образовательными стандартами. Развитие современного военного образования предполагает изменение требований к профессиональной подготовке специалистов пограничных войск, оценке эффективности их воспитательной и познавательной деятельности в соответствии с инновационными тенденциями. Это обуславливает необходимость поиска новых подходов к организации взаимодействий и отношений между участниками образовательного процесса. Методика современного преподавания учебных дисциплин испытывает потребность в реализации гуманистических подходов к взаимодействию между педагогом и учащимся, которое характеризуется не господством – подчинением, не подавлением и соперничеством, а сотрудничеством, открытостью, доверием, искренностью. При организации учебно-воспитательной работы в военном вузе преподаватели ориентируются на положения Государственного стандарта высшего военного профессионального образования, определяющего количественное и качественное содержание изучаемых дисциплин. При изучении дисциплин гуманитарного цикла возможно, не нарушая требований нормативных документов, добиваться вариативности подходов к реализации программ, планировать учебный процесс, использовать учебники и другие материалы в зависимости от интересов обучающихся. Следует отметить, что изучение таких дисциплин в военном вузе многоцелевое. Овладение ими предполагает не столько активную работу с преподавателем, сколько интенсивную самостоятельную работу. При этом гуманистическая методология дает курсанту возможность «открыть» себя другим и других для себя, почувствовать себя значительным и равным [6]. Процесс обучения всегда связан с необходимостью оценки как текущих, так итоговых результатов учебной деятельности. Такая оценка проводится в вузе в форме тестов, экзаменов и зачетов. Это помогает

индивидуализировать и дифференцировать оценку умственной деятельности каждого отдельного курсанта.

РЕЗУЛЬТАТЫ. Актуальными и значимыми являются эмоционально-гуманный и коммуникативный подходы, именно они обладают определенным потенциалом для становления гуманистической направленности у курсантов. Основные виды коммуникативной деятельности, протекающие в атмосфере сотрудничества при групповом взаимодействии курсантов, создают условия для активного перерастания учебных действий в методы научного познания. Коммуникативная деятельность субъектов общения позволяют развивать активную деятельностную позицию. Ориентация современных методов на принцип коммуникативности предполагает широкое использование учебных ситуаций. Коммуникативный подход предполагает индивидуализацию в обучении, постановку познавательных задач, которые соответствуют потребностям личности. Это способствует адекватной реакции и становлению активности личности курсанта. Таким образом, адекватное педагогическое общение преподавателя и курсанта является необходимой гуманистической составляющей их педагогического взаимодействия в условиях современного военного вуза. Резюмируя вышеизложенное, следует отметить, что инновационная образовательная деятельность в военном вузе предполагает реализацию гуманизации педагогических взаимодействий на основе организации общения преподавателя и курсанта в процессе совместной деятельности и на этой основе становления гуманистических качеств личности обучаемых.

ВЫВОДЫ. Таким образом, модульное обучение интегрирует в себе весь прогрессивный опыт, накопленный в педагогической теории и практике. В частности, из программированного обучения заимствована идея активизации учебно-познавательной деятельности за счет логики подачи дозированного материала и четкой системы самоконтроля. Системный подход обогатил модульное обучение идеей гибкого управления процессом по знания за счет

индивидуального выбора темпа освоения материала и поэтому является основой профессиональной подготовки будущих офицеров к деятельности по охране объектов.

ЛИТЕРАТУРА

1. Активные и интерактивные образовательные технологии в высшей школе (формы проведения уроков): учебник / сост. Т.Г. Мухина. - Н. Новгород:
2. Гущин Ю.В. Интерактивные методы обучения в высшей школе // Международная природа, общество и психологический журнал человеческого университета «Дубна», 2012.
3. Захарова, И.Г. Информационные технологии в образовании: Учебник для вузов. образовательные учреждения / И.Г. Захарова. - М.: «Академия»,
5. «Об образовании в Российской Федерации» от 29 декабря 2012 г. № 273-ФЗ. Федеральный закон (с изменениями от 13.07.2015) // Справочная правовая система «Консультант Плюс».
6. Мухина С.А., Соловьева А.А. Современные инновационные технологии обучения. М.: ГЭОТАР – Медиа, 2008.
7. Альтиментова Д.Ю., Федосов А.Ю. Повышение качества подготовки бакалавров с применением компьютерного тестирования и рациональных способов коррекции знаний // Педагогическая информатика. 2017. № 1. С. 45-53.
8. Паршутина Л.А., Самойленко П.И. Дидактические средства обеспечения учебно -исследовательской деятельности школьников в учебно-воспитательном процессе по естественнонаучным предметам. - М.: АПК и ППРО, 2013. -154 с.
9. Сизова Т.В. Научное обеспечение профессионального образования // Профессиональное образование. Столица. 2012. № 3. С. 27-29.
10. Барышникова Т.И. Педагогические условия развития способности к самореализации у студентов вуза (на материале изучения иностранного языка): Автореф. ... канд. пед. наук. Хабаровск, 2002. С. 21

YOSHLAR IJTIMOYIY –MADANIY FAOLLIGINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Mamashukurov Ozodbek Erkin o‘g‘li
Namangan davlat universiteti

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada yoshlar ijtimoiy madaniy faoliyatning jamiyati taraqqiyotidagi o‘rni, ularning ahamiyati aks ettirilgan

Kalit so‘zlar: Yoshlarga oid davlat siyosati, ijtimoiy institut, ijtimoiy islohotlar, fuqarolik jamiyati, demokratik jarayonlar, mafkuraviy qarashlar, yoshlar jamg‘armalari,

РОЛЬ МОЛОДЕЖНОЙ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

АННОТАЦИЯ

В данной статье отражена роль социально-культурной деятельности молодежи в развитии общества и ее значение.

Ключевые слова: государственная молодежная политика, социальный институт, социальные реформы, гражданское общество, демократические процессы, идеологические взгляды, молодежные фонды.

THE ROLE OF YOUTH SOCIAL-CULTURAL ACTIVITY IN SOCIETY DEVELOPMENT

ABSTRACT

This article reflects the role of social and cultural activities of young people in the development of society and their importance.

Key words: State youth policy, social institution, social reforms, civil society, democratic processes, ideological views, youth funds.

Jamiyat hayotini harakatga keltiruvchi asosiy kuch bu-yoshlar hisoblanadi. Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlar rivojida bu tabaqaning alohida o‘rni bor. Yoshlar hayoti, ularning ijtimoiy – siyosiy harakati bilan bog‘liq jarayonlar jamiyat hayotining ko‘zgusi, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning aks – sadosi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tishi va mamlakatda amalga oshirilgan keng ko‘lamdagi islohotlar hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi yoshlarning jamiyatda tutgan o‘rni masalasini nihoyatda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib berdi. Bugungi kunda jamiyatning yangilanishi, amalga oshirilayotgan islohotlar, rejalarning samarasi, avvalambor yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jihatdan qanchalik faol ekanligi bilan bevosita bog‘liq. Bundan ko‘rinib turibdiki jamiyat hayotida yoshlarning tutgan o‘rni juda muhimdir. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda bugungi kunda dunyo hamjamiyati taraqqiyotida va xalqaro ijtimoiy-siyosiy hayotda yoshlarga oid siyosatni amalga oshirilishi, dunyo hamjamiyati tomonidan yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalasi, ularning mavjud muammolarini bartaraf etish yo‘llari kabi bir qator masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ularning ijtimoiy – siyosiy hayotda o‘z o‘rnini topishi, jamiyatning tom ma’noda harakatga keltiruvchi kuchiga aylanishi bilan bog‘liq muammolar shu jumladandir.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga jamiyatning imtiyozli qatlamidan biri sifatida g‘amho‘rlik ko‘rsatilib, mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab ularga oid davlat siyosatini izchil ro‘yobga chiqarib kelinmoqda. Bu siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo‘nalishlari, yoshlarga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy kafolatlar O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 20 noyabrdagi “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonunida belgilab qo‘yilgan. Qonunning 1-moddasida “Yoshlarga oid siyosat O‘zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo‘lida imkoni boricha to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir” [1.] deb yozib qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo‘lgan, uyg‘un rivojlangan insonlar bo‘lib, XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz” [2]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda yoshlar ijtimoiy-siyosiy kuch sifatidagi faoliyatining muhimligi va amaliy ahamiyati, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiyalash va yangilash masalasi bilan chambarchas bog‘liqligidadir, chunki mamlakatimizda yoshlarning aholi tarkibidagi salmog‘i 64,0 % tashkil qiladi[3.]. Yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeining tobora ortib borishi mamlakatimiz uchun o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugun yangicha dunyoqarash va demokratik tafakkurga ega bo‘lgan yoshlarning yangi avlodi

shakllanmoqda. Shu bois ham, O‘zbekistonni yoshlar mamlakati deb atash mumkin. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, 2008 yil oxiriga kelib mamlakatimizda amaldagi qonun hujjatlari miqdori 5091 tani, ya’ni 307 ta qonun, 465 ta O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 545 ta Farmonlari, 308 ta qaror, 14 ta farmoyish, 2328 ta hukumat qarorlari, 1124 ta vazirlik va davlat organlari hujjatlarini tashkil etdi[4.]. Bu chiqarilgan qonun hujjatlaridan yurtimizda yoshlarga doir 100 ga yaqin qonun hujjatlari, 10 dan ortiq qonunlar, 30 dan ortiq Prezident qarorlari va farmonlari, 40 dan ortiq Vazirlar Mahkamasi qarorlari chiqarilib amaliy hayotga tadbiiq etildi [5.].

Mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o‘rni va salohiyatiga doir masalalar yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan. Bu tadqiqotlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin. Jumladan, A.S.Datiboyev, I.Yu.Inoyatov, S.U.Sulaymonova, A.R.Hakimov, R.N.Tolipov, R.B.Siddiqovlar O‘zbekistonda sovet totalitarizmi va mustaqillik yillarida o‘rta-maxsus kasb hunar ta’limi tizimida kadrlar tayyorlash, sanoatni rivojlantirishda ishchi yoshlar, qishloq xo‘jaligi taraqqiyotida yoshlarning ishtiroki masalalarini tahlil qildilar. Shu bilan birga tadqiqotchilardan D.N. Rajabova, E.M.Abzalov, L.X.Tangriyev, R.E.Turdiboyeva, Q.Quranboyev, N.Hasanov, N.Hasanova, D.Bo‘ronovalar o‘z tadqiqotlarida yoshlarning ijtimoiylashuvi, ularning bandlik masalasi hamda jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotdagi munosabatlari, huquqiy madaniyatini yuksaltirish kabi masalalarga alohida e’tibor berganlar[6.].

Iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va mafkuraviy islohotlarni amalga oshirishda yoshlarning faolligini oshirish, ularning jamiyat hayotiga integratsiyasini ta’minlash kabi masalalari Z.Qodirova, I.Karimov, T.Malikov, B.Jo‘rayev tadqiqotlarida tahlil etilgan. E.X.Babamuratov demokratik jamiyatning ma’naviy yangilanishi jarayonida yoshlar ijtimoiy tafakkurida kechayotgan o‘zgarishlari masalalariga e’tibor qaratganlar.[7.]

Keyingi yillardagi o‘z ilmiy tadqiqotlarida B.Djambakiyev, G.Tillayeva, A.Mavrulov, S.Fayziev, K.Normatov, X.S. Hayxova, E.Karimov, Sh.Gayupova, K.Kalonov, R.Ismailova, kabi tadqiqotchilar yoshlar va yoshlar tashkilotlarining ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va ma’naviy hayotdagi tutgan o‘rni masalalarining muayyan bir jihatlarini tahlil qildilar[8.].

Yoshlarga jamiyatninig barcha sohalarida asosiy kuch sifatida qaraladi. Ularning siyosat, iqtisod, qishloq ho‘jaligi, davlat boshqaruvi kabi yo‘nalishlardagi faoliyatiga e’tibor beradigan bo‘lsak bugungi kunga kelib yoshlar jamiyatda etakchi mavqega ega bo‘lgan qatlamga aylandilar.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida tinimsiz izlanishlar olib borilmoqda. Bu jarayonlarda yoshlar o‘zlarining

siyosiy faolligi bilan alohida tashabbus ko'rsatmoqdalar. Demokratik jamiyat barpo etishda fuqarolarning ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi eng muhim omillardan biridir. Bu haqida buyuk davlat arbobi I.A.Karimov quyidagi fikrni bildiradi: "Hokimiyat tuzilmalarining demokratik mazmuni ko'p jihatdan davlatni boshqarishda fuqarolarning ishtirok etish masalasi qanchalik hal qilinganligi bilan belgilanishi ma'lum. O'zbekistonda ushbu huquqning amal qilishi uchun qonun asoslari yaratilgan. Biroq hali jamiyat va fuqarolar davlatni boshqarishda ishtirok etish, o'zlari qanday boshqarilayotganligi haqida ma'lumot olish huquqini anglay boshlashiga va bu huquqdan foydalana oladigan bo'lishlariga erishish kerak. Shunday sharoitdagina davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o'z masuliyatlarini his qiladilar. Buning uchun fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish zarur. Barqaror, mustahkam tizimlarda, agar fuqarolarning siyosiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun hamma huquqiy, demokratik shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, aholining o'zi ixtiyoriy ravishda, professional asosda mamlakatning siyosiy hayotida tobora keng ishtirok etadi". Bu borada I.A.Karimov yoshlarimizning davlat siyosati, oldimizga qo'ygan vazifalarimizni qay darajada anglashi bilan bog'liqligiga alohida e'tibor qaratadi. Darhaqiqat, yoshlarimizning siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy bilim saviyasi tobora o'sib bormoqda. Ular mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini nafaqat anglab etmoqdalar. Ayni paytda, davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish, sud-huquq, axborot sohasini isloh qilishda faol ishtirok etmoqdalar. "Buning tasdig'ini, mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirish jarayoni hech qachon ortga qaytmaydigan, qat'iy va izchil tus olgani, odamlarimiz o'zgarib, ularning siyosiy va fuqarolik faolligi oshayotgani, ongu tafakkuri yuksalib, yon-atrofdan bo'layotgan barcha voqea-hodisalarga dahldorlik tuyg'usi, ertangi kunga ishonchi ortib borayotgani misolida ko'rish, anglash qiyin emas"[9].

Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rnini beqiyosdir. Hozirgi davrda O'zbekistonda 7 millionga yaqin fuqarolar kasaba uyushmalari faoliyatida, 600 mingdan ortiqroq fuqarolar esa siyosiy partiyalar a'zolari sifatida jamoatchilik ishlarida ishtirok etadilar.

Shuningdek, millionlab fuqarolar, yoshlar, xotin-qizlar, turli jamg'armalar, nodavlat, notijorat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etmoqdalar. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligining muhim ko'rsatkichlaridan biri bu - ularning mamlakatimiz siyosiy hayotida muhim voqealik hisoblangan saylovlaridagi faol ishtiroki sanaladi. Ayni vaqtda saylovlar yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshiradi. Saylovlar vaqtidagi turli kampaniyalar, ayni jarayonlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish kabi tadbirlar saylovchilarning

siyosiy va huquqiy madaniyatini yuksaltiradi, yoshlarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga qulay imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda bugun yangicha fikrlaydigan, o'z kelajagini jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan, davlatining taraqqiyotiga o'ziga xos munosib hissa qo'shayotgan yangi avlod vakillarining ijtimoiy hayotga kirib kelishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat tomonidan yoshlarga alohida e'tibor qaratilayotgani kelajagi porloq yurtimizni rivojiga katta hissa qo'shmoqda. Shu bilan birga jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlarning roli va mas'ulligi oshib bormoqda. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ular tomonidan ko'rsatilayotgan faollik va uning natijasida yuzaga kelayotgan muvaffaqiyatlar mamlakatimizning buyuk kelajagini ta'minlashdagi asosiy unsurlardan biri bo'lishiga ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида”ги қонун 1991 йил 20 ноябрь. // Халқ сўзи. 1992 йил 8 январ.
2. Каримов И.А. Асосий вазифамиз-Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир.–Тошкент: Ўзбекистон, 2010.–Б.74–75.
3. Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. – 16-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 163.
4. [http:// www.Lex.Uz./law/](http://www.Lex.Uz./law/)
5. [http:// www.region.uz./news/](http://www.region.uz./news/)
6. Топилдиев О. Ёшлар – келажак бунёдкорлари. – Наманган, 2013. – Б.6
7. Djambakiyev B. Yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini takomillashtirishning ayrim masalalari // Falsafa va huquq. - Toshkent, 2007. 2-son. - B. 57-58.
8. Karimov I.A Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T.11.-Toshkent: O‘zbekiston, 2003.
9. Karimov.I Mamlakatimiz demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. -Toshkent, 2010. B. 7.

TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA TARAQQIYOTI

Adhamova Oltinoy Rafiqjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at va
muhandislik grafikasi" yonalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola eng nozik va nafis san'at turi bo'lmish tasviriy san'atning kelib chiqishi va rivojlanish jarayonlari to'g'risida keng fikr yuritadi hamda, tasviriy san'atning tarixiy taraqqiyotidan, to' bugungi kunga qadar bo'lgan davr mobaynida san'atning rivojlanish uchun amalga oshirilgan islohotlar to'g'risida bir qancha ma'lumotlarni keng bayon qiladi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, taraqqiyot, rasm, tarix, O'zbekiston, maktab, tasvir, rassom, faoliyat.

*Yoshlarimizning madaniy saviyasini yuksaltirish,
ma'naviy olamini boyitish, san'at va go'zallikka
intilishini kuchaytirish lozim!*

Sh.Miziyoyev

Ma'lumki, rasm chizish barcha jahon xalqlari hayotida juda qadimdan shakllanib, u san'at hamda madaniyatning eng mukammal va doimiy mashg'uloti hisoblangan. Shu boisdan ham juda qadimdan bu mashg'ulotni rivojlantirish va takomillashtirish barcha xalqlarda asta sekin amalga oshirib kelingan. Tasviriy san'at ong va tafakkurning eng ko'hna mahsuli bo'lib, insoniyat uzoq yillik tarixiy taraqqiyot asnosida atrof mihit, tabiat va voqelikka nisbatan o'z munosabatini sodda shakllarda bildirishga intilishgan. Shu alfozda tasviriy san'atning dastlabki sodda namunalari yuzaga kela boshladi. Bu insoniyatning ibtidoiy jamoa davridan boshlanib, yer yuzida ilk sinfiy jamiyatning shakllanishi va undan keyingi davrning ijtimoiy-madaniy va tarixiy jarayonlari davomida takomillashdi. Ibtidoiy jamoa davri bizgacha yetib kelgan eng qadimgi qoyatosh rasmlari odamlar rasm chizish bilan ibtidoiy jamoa davrining paleolit yoki qadimgi tosh asridanoq shug'ullana boshlaganligidan dalolat beradi. Ibtidoiy jamoa davri eng uzoq davom etgan tarixiy bosqich bo'lib, odamlarning ilk hayoti, dastlabki tushunchalari shakllana boshlagan va bu jarayonga o'z munosabatlarini bildira boshlagan davrdir. M azkur bosqich yer yuzining qaryib, barcha joylarida bosib o'tilgan. Bu tarixiy taraqqiyot davomida odam larning dastlabki tasavvuri, badiiy-estetik his-tuyg'ulari shakllana boshlagan. O'z davrining sodda

hayotiy ko‘rinishini ifodalovchi devoriy suratlar, dekorativ uslubdagi shartli harakterli haykaltaroshlik nam unalarida buni kuzatish mumkin. Bu kabi tasvirlar asosan g‘or devorlariga va qoyatosh yuzalariga ishlangan animalistik janrga xos namunalardan iboratdir. Ibtidoiy tasvirlar tabiiy bo‘yoqlarda ishlanishi va asosan natural kattalikka egaligi bilan alohida ajralib turadi. Jahon xalqlari san‘ati tirixida ibtidoiy jamoa davri muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tarixiy bosqich qaryib barcha xalqlarning tarixiy-madaniy o‘tmishidan o‘rin olgan. Bu davr yer yuzidagi odamlarning ilk tushunchalari, atrof-muhit va undagi voqea-hodisalarni tushunishga bo‘lgan dastlabki qarashlarini ifodalaydi. Bunday qarashlar dastavval oddiy shaklga ega bo‘lgan uy-ro‘zg‘or buyumlari va mehnat-ov qurollarini yasash, davrlar o‘tib esa ularga bezak berish asnosida shakllanib kelgan.

Fransiya, Ispaniya, Old Osiyo, O‘rta Osiyodan 5—10 ming yillik rasmlar topilgan, ulaming yaratilganiga 5—10 ming yillarcha bo‘lgan. Ma‘lumki, eramizdan avvalgi 3 minginchi yillarda odamlar mis, qalay, qo‘rg‘oshin va ruxni eritib, undan bronza olishgan. Bronzadan yasalgan buyumlar juda chiroyli qilib bezatilgan. Bu davrda ishlangan buyumlardagi rasmlar odamlar rasm chizish bilan jiddiy shug‘ullanganliklaridan dalolat beradi. Tarixdan ma‘lumki, jamiyat taraqqiyoti Sharq mamlakatlarida, jumladan, Misrda ancha tez va ancha oldinroq boshlangan. Qadimgi Misrda grafika va rasm chizish san‘ati shakllanib, juda erta taraqqiyot yo‘liga chiqib oldi. Qadimgi Misrda tasviriy san‘at, adabiyot va me‘morchilik kuchli taraqqiy etdi. Bu yerda rasm chizish, grafika ishlari avloddan avlodga o‘tib keldi. Keyinchalik esa bu sohada kichik maktablar tashkil etila boshlandi. Haqiqiy rasm chizish maktablari eng avval Misrda, so‘ngra Hindistonda va Xitoyda tashkil etilgan. Bu maktablarda asosan yer o‘lchash, yo‘l, kanal va binolar qurish rejasini tuzish, chizmalar chizish, buyumlarga badiiy bezaklar ishlash o‘rgatilar edi. Qadimgi Yunonistonda ham rasm chizish maktablari juda erta tashkil topgan va asosiy e‘tibor tabiatni chiroyli qilib tasvirlashga qaratilgan. Rasmlar simmetriya, matematik hisob, nisbatlar nazariyasi asosida chizilgan. XX asr boshlarida Peterburg, Moskva, Qozon, Odessa, Penzada rasm o‘qituvchilari tayyorlaydigan bir qator bilim yurtlari ochiladi. Rus Badiiy akademiyasi qoshida rasmni o‘qitish metodikasi bo‘yicha maxsus komissiya ish boshlaydi. Bu komissiya tarkibida N.Ge, I.Kramskoy, P.Chistyakov kabi yetuk rassomlar faoliyat olib boradilar. XX asr boshlaridan AQSH, Italiya, Germaniyada ham umumta‘lim maktablarida rasm fanining o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi. Ular uchun o‘quv-metodik qo‘llanmalar, darsliklar, dasturlar yaratildi va takomillashtirib kelindi. O‘tgan asrning 50—60-yillarida jahonning juda ko‘p mamlakatlarida tasviriy san‘atning o‘qitilishi bo‘yicha ko‘plab amaliy ishlar qilindi.

Tadqiqotchilarning fikricha, mamlakatimiz hududlarida bundan million yillarcha muqaddam ham ajdodlarimizning yashaganligi haqida ma‘lumotlar bor. Shuningdek,

O‘zbekiston hududida bundan qariyb 5—10 ming yillarcha muqaddam odamlar ishlagan rasmlar, buyumlar ko‘plab topilgan. Sarmishsoy, Zarautsoy, Qoratepa, Oltintepa, Chust, Dalvarzin, Kaltaminor kabi manzilgohlardan topilgan eng qadimiy suratlar va buyumlar ajdodlarimizning san‘at va madaniyati yaxshi rivojlanganligidan dalolat beradi. Qoyalarga o‘yib yoki turli tabiiy bo‘yoqlarda ishlangan rasm-suratlar ham ajdodlarimizning juda qadimdan rasm chizish bilan shug‘ullanib kelganligini bildiradi. Eramizdan avvalgi 1- ming yillik boshlarida O‘zbekiston hududida dastlabki quldorlik davlatlari paydo bo‘la boshlaydi. O‘rta asr boshlarida O‘zbekistonda san‘at va madaniyat beqiyos darajada rivojlana boshladi. Qadimgi Xorazm, Termiz, Samarqand, Farg‘onada san‘atning barcha turlari rivoj topdi. 1918- yili Samarqandda, 1919- yili Toshkentda, 1920- yili Andijonda rasm chizishni o‘rgatuvchi maxsus texnikum-maktablar ochildi. 1927- yili Toshkentda, 1929- yili Samarqandda badiiy bilim yurtlari tashkil etildi. O‘rta umumta‘lim maktablari o‘quv rejasiga rasm o‘quv fani kiritildi. 1 - 3 – sinflarda 8—12 soatgacha rasm darslari o‘qitildi. 30-yillarda rassom I.Ikromov tashabbusi bilan matbuot sahifalarida rasmni o‘qitish bo‘yicha metodik tavsiyalar berila boshlandi. „M aorif va o‘qituvchi“ , „Alanga“ jurnallari sahifalarida I.Ikromovning metodik tavsiyalari e‘lon qilindi. 1932-yilda uning „Rasmni o‘rganish“ , 1935-yili „H arf yozishni o‘rgan“ o‘quv qo‘llanmalari nashr etildi. 40-50 - yillarda dasturga estetik tarbiya elementlari kiritildi. 70-80-yillarda O‘zbekistonda tasviriy san‘atni o‘qitish uslubiyoti bo‘yicha R.Hasanov, M.Nabiyev, B.Oripov, Q.Qosimov, A.Inog‘omov, A.Jilsova, A.Isoxo‘jayev kabi pedagog-rassomlar jiddiy shug‘ullanaboshladilar. Shu yillarda O‘zbekistonda tasviriy san‘atni o‘qitishga e‘tibor yanada kuchaydi.

1972- yildan R.Hasanov, B.Oripov, A.Isoxo‘jayevlar 1—4-sinflar uchun o‘zlarining „Tasviriy san‘at“ darsliklarini yaratdilar. Respublikada shu soha bo‘yicha qator ilmiy ishlar qilindi. 1987- yildan Namangan davlat pedagogika institutida „Badiiy grafika“ fakulteti ish boshladi. Mustaqillik yillarida o‘rta umumta‘lim maktablarida tasviriy san‘atning o‘qitilish samaradorligi bo‘yicha juda katta tadbirlar ishlab chiqildi. Shunga ko‘ra 1—4-sinflarda tasviriy san‘at darslari 2 soatga ko‘paytirildi. Birinchi sinfdan boshlab tasviriy san‘at darslarini mutaxassis rassom-pedagoglar o‘tadigan bo‘ldi. O‘zbekiston Badiiy akademiyasi „Milliy san‘at va dizayn“ instituti va respublikadagi barcha „Rassomchilik“ fakulteti bo‘lgan universitetlarning o‘quv rejasiga pedagogika, psixologiya va tasviriy san‘atni o‘qitish metodikasi darslari kiritildi. Mustaqillik yillarida respublikaning qator viloyat, shahar, tumanlarida yoshlarga tasviriy san‘atni o‘qitish bo‘yicha litseylar, kollejlari, maxsus intemat maktablar ochilib, iste‘dodli yoshlarga tasviriy san‘atdan chuqurlashtirilgan bilim va malakalar berish keng yo‘lga qo‘yildi. Oliy o‘quv yurtlarida tasviriy san‘atni o‘qitish metodikasi, nazariyasi va tarixi bo‘yicha magistratura va daktaranturalar

ochilmoqda. U yerda xalqimizning iste'dodli yoshlari bilim olib, jahonga mashhur rassom, san'atshunos, pedagog-olimlar bo'lib yetishib chiqib, O'zbekiston tasviriy san'atini jahon san'ati darajasiga olib chiqishdek sharafli va mas'uliyatli vazifani amalga oshirmoqdalar.

San'at tushunchasi keng bo'lib, u avvalo inson hissiyoti bilan bog'liqdir. Shuning uchun tasviriy san'at boshqa san'at turlari kabi kishilarning his tuyg'ulariga kuchli ta'sir o'tkaza oladi. Tasviriy san'atda turli xil voqea-hodisalar, munosabatlar, manzaralar aks etadi. Kishilar tasviriy san'at asarlarini tomosha qilib, ularda aks etgan voqea-hodisalar, holatlar, go'zalliklarga o'z munosabatlarini bildiradilar, ta'sirlanadilar. Kishilarni, tabiat ko'rinishlarini, voqea-hodisalarni, narsalarni tekis yuzalarda yoki hajmlarda turli vositalar bilan ifodalash -tasviriy san'at deyiladi.

Tasviriy san'at san'atning eng qadimiy turlaridan biri bo'lib turli davlatlarga keng tarqalgan hamda, insoniyat manaviy madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ma'lumki, tasviriy san'at insonni mehnatga, tafakkur qilishga, ijodga, go'zallikni his qilishga chorlaydi. Kuzatishlar va ilmiy tadqiqotlar, tasviriy san'at yoshlarga faqat ilm-tafakkur, go'zal estetik ideallarni beribgina qolmay, insonning eng muhim jihatlarini, ya'ni kuzatish, ko'rish, idrok qilish hamda tafakkur-tasavvurlarini rivojlantiradigan asosiy vosita ekanligini isbotlamoqda. O'quvchilar tasviriy san'at mashg'ulotlarida xilma-xil narsalar bilan tanishib, uning katta-kichikligi, shakli, undagi xunuk va chiroyli elementlarni aniqlaydilar, narsalar shaklini idrok etadilar, rang va tuslarini o'rganadilar. Narsa shaklini idrok etish bilan birga, uni tahlil qilib, ong faoliyati asosida naturani tasvirga aylantirib, uni qog'ozga joylashtiradilar. Shundan so'ng natura tasviri daftar yuzasiga tushiriladi. Lekin bu jarayon juda murakkab bo'lib, uni sog'lom, rivojlangan bolagina uddasidan chiqa oladi. Bu jarayonda bolaning fikri chalg'isa, shakl aniq chiqmaydi, rang topilmaydi. Shu boisdan bu faoliyatni faqat sog'lom, ya'ni fiziologik va psixologik jihatdan to'la rivojlangan bolagina amalga oshira oladi. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida bolaning ko'rish a'zolari takomillashib boradi. Chunki har bir mashg'ulotda narsalarni e'tibor bilan kuzatish va ularni idrok etish o'rgatilib, bolaning diqqat-e'tiborini bir nuqtaga qaratish malakasi ham beriladi. Shuningdek tasviriy san'at mashg'uloti o'quvchilarni e'tiborli bo'lishga, zehn bilan faoliyat ko'rsatishga, barcha his-tuyg'ularini jamlagan holda, o'zida bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni ishga solishga o'rgatadi. Binobarin, tasviriy san'at darslari o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishida asosiy omillardan biri bo'lib qoladi.

O'zbekiston tasviriy san'ati juda qisqa vaqtda rivojlanib, katta yutuqlarga erishdi. O'zbekiston san'ati zafarli yo'lni bosib o'tdi. Respublikamiz rassomlari ko'pgina ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, san'atimiz ta'sirchanligining ortib borayotganini

namoyish etdilar. Bizning rassomlarimiz ko'pgina janrlarda ijod qilib kelmoqdalar, manzara, natyurmort, portret va boshqa. Natyurmortda bozorlarimizning to'lib toshgan noz-ne'matlarini, manzara janrida esa, o'lkamizning go'zalligini va bepoyonligini, oddiy tabiat ko'rinishidagi go'zallikni to'laqonli ifodalashga harakat qilmoqlar. Shu bilan birga qadimdan qolgan butun dunyoga taniqli ajib me'morchilikning nodir yodgorliklarini o'z asarlarida ko'rsatdilar. Portret janrida esa Vatanimizning ilg'or kishilarini, mehnatkash xalqni, shoir, rassom, musiqachilarni tasvirladilar. Bizning O'zbekiston Vatanimiz ajoyib iste'dodli rassom va haykaltaroshlarni etkazib berdi. Bular ichida Iskandar Ikromov, Chingiz Ahmarov, Malik Nabiev, Mannon Saidov, Damir Ro'ziboev, Ilhom Jabborov, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzaev, Akmal Ikromjonov, Ne'mat O'akimov, Osimxon Vosixonov, Temur Sa'dullaev, o'ofur Abdurahmonovlar alohida mavqega ega. O'zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzaev rangtasvir ustasi xalqimiz an'alariga, boy va sermazmun o'tmish tasviriy san'at merosiga hurmat bilan qaraydi. Rassom o'z xalqiga xos psixologik kechinmalarni chuqur tahlil qila oladi. Rassom ona-tabiat bag'rida o'zbekona an'analarni, to'ylarni, beg'ubor o'zbek bolalarini, lo'bar qizlarni, mushtipar onalar kabi obrazlarni aks ettira olishga muvaffaq bo'ldi. Jumladan, "Toshkent - tinchlik va do'stlik shahri" triptixi, "Bola xonada", "Intizorlik", "Yosh oila haqida qo'shiq" kabi o'nlab asarlar moybo'yoqda yaratilgan. Umuman rassom tabiat va jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni e'tiborsiz qoldirmaydi. Rassom rangtasvirlarga shunday jon bag'ishlaydiki, undagi go'zallik sirlari odamlarni ezgulikka etaklaydi. Rassom asarlari bugungi kunda xalqimiz hurmatini qozonish bilan birga, ko'pgina xorijiy davlatlarda ham ma'lum va mashhurdir. Bahodir Jalolov ham O'zbekiston xalq rassomi bo'lib, zamonaviy rangtasvir san'ati rivojiga katta hissa qo'shib kelayotgan iste'dodli rassomlardan biridir. B.Jalolov tasviriy san'at borasidagi tahsilni davom ettirib, keyinchalik Ch.Ahmarov, R.Choriev, E.P.Melnikov, B.D.Korolyovlardan tasviriy san'at sirlarini o'rgandi. Shu sababli ham u yaratgan portretlarda yuksak mahorat aniq ko'zga tashlanib turadi. Uning ijodidagi tuyg'ular uyg'unligi tomoshabinni o'ziga mahliyo etib qo'yadi. U portret san'atida ko'p yutuqlarga erishdi. Uning to'laqonli

asarlarida o‘zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o‘z ifodasini topgan. U bir katta seriya portretlarni yaratadi, bular ichida akademiklar, rassom va boshqa taniqli odamlar obrazlari bor. B.Jalolov ijodida olam sirlari o‘zgacha talqin etiladi. Bunga, “Gul va Rayhon afsonasi”, “Nido”, “Baxt qushi”, “Abadiy va navqiron Hindiston”, “XXI asr Madonnasi” kabi ko‘plab asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Mustaqil O‘zbekiston tarixiga bag‘ishlangan O‘zbekiston xalqlari tarixiy muzeyi devoriga ishlangan monumental ko‘rinishdagi surat jiddiy va mazmunli tarixiy dalillar orqali salobatli tasvirlanishi bilan har qanday tomoshabin e‘tiborini o‘ziga jalb qila oladi. Polotnoni kuzatgan tomoshabin boy tarix sahifalariga ega bo‘lgan o‘zbek xalqining buyuk va qudratli ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qiladi. B.Jalolov ijodi shu jihati bilan qadrlidir. O‘zbekistonda samarali mehnat qilgan rus rassomlaridan biri Pavel Petrovich Benkov edi. U o‘zbek san‘atining rivojlanishiga, milliy kadrlar etishib chiqishiga katta hissa qo‘shdi. U Buxoro, Xiva, Samarqand haqida juda ko‘p polotnolar ishlagan. Bular asosan yarim manzara va yarim maishiy janrda bo‘lib, ularda rassom kundalik xalq turmushini qadimgi nodir me‘morchilik fonida ustalik bilan tasvirlaydi. Ajoyib ayollar obrazini ham yaratadi. “Dugonalar”, “Dutorchi qiz” deb nomlangan asarlar do‘stlik mavzusida yaratgan yirik asarlaridir. 20-30- yillardan boshlab milliy rassomlar ko‘rina boshlandi. Ular o‘zlarining dastlabki asarlari bilan respublika badiiy ko‘rgazmalarida ishtirok etib, badiiy hayotni yanada jonlantirdilar. Bu yillarga kelib san‘at mavzusi kengaydi. Do‘stlik, tinchlik, mehnat go‘zalligini kuylovchi asarlar yaratildi. Iste‘dodli yosh rassom Bahrom O‘amdamiyning “Ish tugadi” deb nomlangan kartinasi shu davrda kishilar ongida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar o‘z ifodasini topdi. Shu bilan birga Lutfulla Abdullaevning “Yosh shoir uyidagi uchrashuv” deb nomlangan asar yoshlar orasida san‘at va ma‘rifatga intiluvchi yoshlarning fazilatlarini ochib berishga bag‘ishlangan. Bu yosh rassomlar O‘zbekiston san‘atining taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shdilar.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, san‘at hayot go‘zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarini kamol toptiradi, ularni tenglik ozodlik birodarlik yorqin kelajakka intilishga da‘vat etadi. Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy

qadriyatlar oddiy boyliklar bo‘lib qolmay, balki o‘zida inson aql-zakovati, hayot to‘g‘risidagi fikr-tuygularini aks ettiruvchi ko‘zgu hamdir. Jaxon san‘ati tarixini o‘rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o‘tmish odamlarning xis-to‘yg‘u, hayotiy tajribalarini o‘rganish g‘oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so‘zsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi. O‘zbek xalqining dunyoga mashhur bo‘lgan me‘morchilik, amaliy va tasviriy san‘at asarlarini maktablarda boshqa materiallarga qaraganda kengroq va chuqurroq o‘rgatilishi talab etiladi. Shu bilan birga maktablarda ta‘lim mazmunining viloyat va shaharlar bo‘yicha tabaqalashtirilishi ham maqsadga muvofiqdir. Chunki, O‘zbekistonning viloyat, shahar, hattoki qishloqlarida amaliy san‘at va me‘morchilikning rivojlanishida o‘ziga xoslik bor. Buni Buxoro, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Rishton, Shahrisabz, Nurota, Marg‘ilon, G‘ijduvon, Urgut, Xo‘jayli va boshqa shaharlarning san‘atida Ham yaqqol ko‘rish mumkin. Milliy san‘atimiz bizning faxrimiz, uni biz keng o‘rganishimiz tabiiy xoldir. Lekin, jahonda hamma Xalqlar tomonidan tan olingan umuminsoniy badiiy qadriyatlar ham mavjud. Ularni o‘quvchilarga o‘rgatmasdan turib, Xalqimiz jahon madaniyatida o‘z o‘rnini topa olmaydi. Aks holda, o‘quvchilarimiz milliy qobiqqa o‘ralishib qolib, jahon durdonalaridan bahramand bo‘la olmay qoladilar. Shuni alohida qayd qilish lozimki, ko‘p asrlik milliy-badiiy madaniyatimiz tasviriy san‘at, dekorativ-amaliy san‘at, me‘morchilik san‘ati) haqida tegishli bilimlar berish bilan bir qatorda o‘quvchilarga tasviriy va amaliy san‘atdan beriladigan malakalarni unutmashimiz zarur!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. B. Oripov. Tasviriy san‘at va uni o‘qitish metodikasi. T. "Ilm-ziyo" nashriyoti. 2005.
2. S. Mirzayev. Tasviriy san‘at tarixi fanidan ma‘ruzalar matni. Andijon- 2017.
3. N. Abdullayev. San‘at tarixi. 1-tom. "O‘qituvchi" Toshkent-1986.
4. S. Abdirasilov. Tasviriy san‘at o‘qitish metodikasi. Toshkent-2012.
5. D. Pulatov. Tasviriy san‘at tarixi. (Qadimgi dunyo san‘ati). Namangan-2018.
6. R. Xasanov. Maktabda tasviriy san‘atni o‘qitish metodikasi. "Fan" nashriyoti-2004.
7. B. Oripov. Tasviriy san‘atni o‘qitishning zamonaviy pedagogic texnologiyalasi, didaktikasi va metodikasi. "Ilm-ziyo" nashriyoti. Toshkent-2013.
8. B. Oripov. Tasviriy san‘at va uni o‘qitish metodikasi. (Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma 2-nashri). "Ilm-ziyo" Toshkent-2012.

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINING KASBIY
TAYYORGARLIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH JARAYONINI TASHKIL
ETISH SHAKLLARI**

Ruzimova Marjonoy Yo‘ldash qizi
Urganch davlat pedagogika instituti magistri

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada integratsiyalashgan ta‘lim, ta‘lim jarayonini tashkil qilishda integratsiyadan foydalanish, ta‘lim sifatini oshirishda integratsiyalashgan ta‘limning didaktik tamoyillarining o‘ziga xos xususiyatlari nazariy asoslangan.

Kalit so‘zlar: Integratsiya, tamoyil, integrativ dars, samara, ko‘nikma, malaka, amaliy mashqlar, rivojlanish.

**ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ОРГАНИЗАЦИЯ ПРОЦЕССА
УЛУЧШЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО
ПОДХОДА ФОРМЫ**

АННОТАЦИЯ

В данной статье теоретически обосновываются уникальные характеристики дидактических принципов интегрированного обучения, использование интеграции в организации образовательного процесса, повышение качества образования.

Ключевые слова: Интеграция, принцип, интегративный урок, эффект, умение, компетентность, практические занятия, развитие.

**PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL
TEACHERS ORGANIZATION OF THE IMPROVEMENT PROCESS
BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH FORMS**

ABSTRACT

In this article, the unique characteristics of didactic principles of integrated education, the use of integration in the organization of the educational process, and the improvement of the quality of education are theoretically based.

Keywords: integration, principle, integrative lesson, effect, skill, competence, practical exercises, development.

Integratsiyalangan an'anaviy ma'ruzalardan quyidagi ikki xususiyatlar bilan farqlanuvchi ma'ruza kurslarini tushunamiz:
1) material bayoni chiziqli sodir bo'lmaydi, balki muayyan tushunchalar, g'oyalar, fikrlar doirasida guruhlanadi;
2) predmetli o'quv fani tushunchalari va g'oyalari bayoni (masalan: o'lkashunoslik) o'quv fanining mos modelini qurish uchun asos hisoblangan, talabalarga asosiy yo'nalish kursidan ma'lum bo'lgan tushunchalar, g'oyalar doirasida sodir bo'ladi. Integrativ o'qitish metodi u qo'llaniladigan o'quv vaziyatlarining turlariga ko'ra turli funksiyalarni bajaradi¹:

1. Integrativ o'qitish metodining tashkil etuvchi vazifasi o'qitishning muayyan bosqichlarida bilimlarning predmetli sohalarida o'quv materialini mantiqiy tashkil etishda ifodalanadi. To'plangan empirik materialni tizimlashtirish tushunchalarni ifodalash mantiqiy operatsiyasi shaklida, tushunchalarni bo'lish asosida tuzilma ob'ektlarining tasnifi shaklida o'tkazilishi mumkin. Tuzilmaviy elementlar uchun tushunchalarni belgilashning mantiqiy operatsiyasi amalga oshiriladi. Integrativ o'qitish metodining tashkil etuvchi funksiyasi doirasida formal mantiqiy sxemalar ko'rinishida o'quv fani yoki o'quv fanining bo'limining tuzilmasini aniqlashda foydalanilishi mumkin.

2. Integrativ o'qitish metodining metodologik funksiyasi ilmiy bilishga oid faoliyatni amalga oshirish qoidalari va tavsiyalarini ajratishda ifodalanadi. Integrativ o'qitish metodi bilish dialektikasini "Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish" ta'lim yo'nalishida oliy ta'lim muassasasi ta'limi bilan uyg'un birlashtirishga imkon beradi va bu uni aniq-ilmiy metodologiya metodi sifatida tavsiflaydi. O'qitish jarayoni dialektik xususiyati o'quv materialini modellarining bilish bosqichlaridagi xronologik tahlili, turli darajalar va bilimning turli predmetli sohalarida o'quv faoliyatiga yagona yondashuvda ifodalanadi. Metodologik funktsiya o'quv jarayonida integrativ o'qitish metodini amalga oshirish doirasida vositali hamda bu funktsiyaning ifodalanishiga ko'maklashuvchi o'quv vaziyatlarini tashkil etishda bevosita ifodalanishi mumkin.

3. Integratsiyalovchi funktsiya integratsiya mexanizmini amalga oshirishda ifodalanadi. Bunda, bir tomondan, integrativ o'qitish metodi ta'lim oluvchiga bilish faoliyati jarayonining vositalarini taqdim etadi, boshqa tomondan esa bo'lajak

¹ Самсиков Сергей Алексеевич. Интегративный подход к подготовке учителей начальных классов (Логический аспект): Дис. ... канд. пед. наук : 13.00.01 : Рязань, 2000 212 с. РГБ ОД, 61:01-13/150-9

boshlang'ich sinf o'qituvchisi "ta'limi mazmuni" tizimining alohida elementlarining o'zaro aloqadorligi usullarini aniqlaydi va bu bilan yangi sifatning-o'qitishning yaxlit jarayoni hosil bo'lishiga olib keladi. Masalan, pedagogik nazariya doirasida matematikaning tavsifi matematikani o'qitish metodikasining modelini qurishga imkon beradi. O'rganish ob'ekti sifatida "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" boshqa o'quv fanlari asosida mumkin bo'ladi: "Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi", "Umumiy psixologiya", "Umumiy pedagogika", "Matematika o'qitish metodikasi" va boshqalar. Fanlardan har biri tadqiqot ob'ekti bilan o'zaro aloqalarni o'rganishning birlamchi maydoni hisoblanib, tadqiqot ob'ektini yangi mazmun bilan to'ldirib, uni boyitadi.

4. Maqsadni aniqlovchi funksiya. Maqsadni belgilash muammosi pedagogika fanining fundamental muammolaridan biri hisoblanadi. Fan maqsadi faoliyat natijasini xayolan kutish sifatida belgilaydi. Maqsad faoliyatning bevosita motivi sifatida xizmat qiladi. Didaktika sohasidagi nazariy tadqiqotlar o'quv jarayoni maqsadi modeli va ta'lim mazmuni modelining yaqin aloqasini ta'kidlaydilar. Maqsadlarning mavjudligi ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ta'lim mazmuni tuzilmasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tizimni amalga oshirishni tavsiflash imkonini beradi. Maqsadlarni belgilash bosqichi antropogen tizimlar sinfi uchun ko'proq xosdir. Bunday tizimlarning funksional-tuzilmaviy bog'liqligi berilgan tizimdagi funksiyalarning birlamchiligida belgilanadi. "Ta'lim mazmuni" tizimi elementlarini to'rt darajalar: "tanishuv", "nuxalar", "ko'nikmalar", "o'zgarishlar" bo'yicha tavsiflash o'qitish mazmuni va uning samaradorligi mezonlarini miqdor va sifatli tavsiflashga imkon beradi. Didaktikada pedagogik jarayon maqsadlarini uchta ierarxik joylashgan darajalarda o'rganish qabul qilingan: umumnazariy, o'quv material, o'quv fani. B.C.Lednev¹ o'qitish maqsadlari dastlab o'quv fani darajasida aniqlashtirishini ta'kidlaydi. N.M.Skatkin² esa o'quv fani va o'quv materialining aloqasini ta'kidlab, "...ta'lim mazmuni o'quv materialidan ko'ra ko'proq aniq shaklga ega emasligi" ni ko'rsatadi. Bu quyidagilarda ifodalanadi: o'quv materialining har bir elementi uchun uning semantik mazmuni aniq maqsadni belgilashi mumkin. Dars tahlili modellarni qurishdan iborat. Darsning matematik modelini aniqlash ta'lim maqsadlari, darsning pedagogik modeli – tarbiyaviy maqsadlar, psixologik modeli – rivojlantiruvchi maqsadlar to'g'risidagi tasavvurni shakllantiradi. Tashkil etish asosini tanlash sharti bilan o'quv materialini mantiqiy tashkil etish maqsadni belgilovchi faoliyatni aniqlaydi. U yoki bu maqsadni aniqlashtirish darajasi model asosini tanlashga bog'liqdir: Davlat ta'lim standarti darajasi, ta'lim dasturi darajasi, aniq o'quv vaziyati darajasi. Turli asoslarda ifodalangan bir maqsad o'zining ifodalanish darajasi

¹ Леднев В. С. Содержание образования.-М.: Высш. шк., 1989. -360 с.

² Скаткин М.Н. Проблемы современной дидактики. – М.: Педагогика, 1980. – 96 с

bilan

farqlanadi.

5. Integrativ o'qitish metodining rivojlantiruvchi funksiyasi talabning aqliy faoliyatini faollashtiradi. To'g'ri belgilangan o'qitish doim rivojlantiradi, ammo rivojlantiruvchi funktsiya o'qituvchi va o'quvchilarning shaxsni har tomonlama rivojlantirishga maxsus yo'nalganliklarida yanada samarali amalga oshiriladi. Rivojlantiruvchi o'qitishning zamonaviy konsepsiyalari yaxlit psixik tizim sifatida shaxs rivojlanishiga yo'naltiradi: mustaqillik, bilishga oid faollik va o'qitishning shaxsiy motivlarining rivojlanishi. Rivojlantiruvchi o'qitish konsepsiyasi turli nuqtai nazarlardan: rivojlantiruvchi o'qitish tamoyillari, aqliy xatti-harakatlarni shakllantirish bosqichlari N.F.Talizina¹, faoliyatning muammoli tomoni (A.M.Matyushkin², M.I.Maxmutov³ rivojlantiruvchi o'qitish metodlari tizimi (I.Y.Lerner⁴, M.N.Skatkin⁵ bilishga oid faoliyatni o'rganish bilan bog'liq. Integrativ o'qitish metodining rivojlantiruvchi funksiyasi dialektik mantiq asosida bilish jarayoni sifatida o'qitish jarayonida yondashuv bilan bog'liq va o'quv materialini mantiqiy tashkil etishning umumlashgan ko'nikmalarini ishlab chiqish bilan tavsiflanadi.

6. Integrativ o'qitish metodining tartibga soluvchi funksiyasi uning didaktik xususiyatida ifodalanadi. O'qitish jarayoni turli darajalar, turli predmetli sohalar, turli o'qitish vositalari va usullari bilan amalga oshiriladi. Jarayonning yagona tomoni bo'lib o'quv faoliyati sub'ekti xizmat qiladi. Aynan sub'ekt shaxsiy faoliyatning yagona me'yorlarini ishlab chiqadi. O'quv materialini mantiqiy tashkil etish asosida o'quv jarayonini modellashtirish o'quv materialini mazmunini tanlash mezonlarini hosil qiladi.

7. Integrativ o'qitish metodining tarbiyaviy funksiyasi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining "Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishida 4 yillik ta'lim davomida metodni qo'llash o'qitishning ta'limiy darajasini oshirish uning tarbiyaviy funksiyalarini kuchaytirishini ko'rsatdi. Bunday o'zaro aloqaning asosi bo'lib insonning psixik faoliyatida anglash, his-tuyg'ular va xatti-harakatlarning qonuniy umumiyligi xizmat qiladi. Bu yaxlitlikni ta'minlash integrativ shaxsiy hosila sifatida dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik shartlardan biri hisoblanadi. Axloqiy va boshqa tushunchalar, me'yorlar

¹ Талызина Н.Ф. Методика составления обучающих программ: Учебн. Пособие. -М.: Изд-во МГУ, 1980

² Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении.- М.: Педагогика, 1972. – 208

³ Махмутов М.И. Проблемное обучение. – М.: Педагогика, 1975. –367 с.

⁴ Лернер И.Я. Дидактическая система методов обучения. – М.: Знание, 1976. – 64 с.

⁵ Скаткин М.Н. Проблемы современной дидактики. – М.: Педагогика, 1980. – 96 с

va talablar tizimini o'zlashtirishsiz shaxsni shakllantirish mumkin emasdir. Integrativ o'qitish metodini tashkil etuvchi konstruktiv-metodologik, rivojlantiruvchi va maqsadni aniqlovchi funksiyalar jamiyatning u yoki bu rivojlanish bosqichida tarbiya vazifalarini to'g'ri tushunishning ta'sirchan omili hisoblanadi. Integrativ o'qitish metodi tarbiyalovchi funksiyasining muhim tomoni pedagogik jarayonning shaxs darajasidagi ikkita umumiy ijtimoiy-shaxsiy mohiyatini aniqlash imkoniyati hisoblanadi (V.M.Monaxov¹). Ijtimoiy jihat jamiyatning umumiy boshlang'ich ta'limga global talablarini aks ettiradi. Shaxsiy jihat shaxsning asosiy tomonlarini shakllantirish nuqtai nazaridan umumiy oliy ta'limning maqsadlarini aks ettiradi. Bu nuqtai nazardan ta'lim mazmunini tanlash talaba tomonidan shaxsning amaliy faoliyatdagi bugungi ehtiyojlariga muvofiq amalga oshiriladi. Integrativ o'qitish metodi "Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish" ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitish doirasida bunday tanlovni amalga oshirishning keng imkoniyatini taqdim etadi. O'quv reja tuzilmasi integrativ o'qitish jarayonini vaqt bo'yicha taqsimlashga talablarning majmuini aks ettiradi:

- o'sib boruvchi murakkablikdagi bilishga oid vazifalarning vaqt bo'yicha taqsimlashning muayyan bosqichlaridagi bir turliligi;
- tuzilmaviy-invariant o'quv fanlarining muvofiqlashtirilganligi;
- o'qitish jarayonidagi uzluksizlikligi;
- alohida fanlarni o'rganishda bosqichlilikligi;
- instruktiv ko'rsatmalarining umumiyiligi.

